O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FIZIKA –MATEMATIKA FAKULTETI

MATEMATIKA KAFEDRASI

ODDIY DIFFERENSIAL TENGLAMALAR *fanidan*

Ma'ruzalar matni

BUXORO-2018

Fanning ishchi dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017 yil “28”iyundagi “434” –sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Oddiy differantsial tenglamalar” fani dasturi asosida tayyorlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2017 yil “27” iyundagi «5» - sonli majlisi bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi:
Sh.B.Merajova - Buxoro davlat universiteti “Matematika” kafedrasi katta o'qituvchisi.

Taqrizchilar:
H.R.Rasulov - Buxoro davlat universiteti “Matematika” kafedrasi dotsenti, fizika -matematika fanlari nomzodi.

N.H.Mamatova - Buxoro davlat universiteti “Matematika” kafedrasi dotsenti, fizika -matematika fanlari nomzodi.

ODDIY DIFFERENSIAL TENGLAMALARIDAN MA’RUZALAR MATNI
I-BOB BIRINCHI TARTIBLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR
1-Ma’ruza mashg’ulot.

1. “Kirish. Differensial tenglamalarga keltiriladigan masalalar. Hosilaga nisbatan yechilgan birinchi tartibli differensial tenglamalar, yechim tushunchasi, xususiy va umumiy yechim, integral chiziq, Koshi masalasi.Egri chiziqlar oilasining differensial tenglamasini tuzish” ma’ruza mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi modeli

1-ma’ruza	**Kirish. Differensial tenglamalarga keltiriladigan masalalar. Hosilaga nisbatan yechilgan birinchi tartibli Differensial tenglamalar, yechim tushunchasi, xususiy va umumiy yechim, integral chiziq, Koshi masalasi.Egri chiziqlar oilasining differensial tenglamasini tuzish**.
Vaqt-2 soat	Talabalar soni: 50nafardan oshmasligi kerak
O'quv mashg'uloti shakli	ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o’rganish
Mashg'ulot rejasi	1.Kirish. 2.Differensial tenglamalar haqida tushunchalar 3.Yechim tushunchasi, umumuiy yechim, integral chiziq, Koshi masalasi. 4.Egri chiziqlar oilasi,differensial tenglamalarga olib keladigan masalalar.
Asosiy tushuncha va atamalar	Differensial tenglama, differensial tenglamaning tartibi, xususiy hosilali differensial tenglama, egri chiziqlar oilasi, yechim, umumiy yechim, umumiy integral, integral chiziq, izoklina. Koshi masalasi.
Amaliy mashg'ulotining maqsadi	O’quv fani to’g’risida umumiy ta’surotlar berish, Oddiy differensial tenglamalari va uni keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
1.O’rgatuvchi: Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik fikrlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; *2.Rivojlantiruvchi*: Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo’llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish; *3.Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga	1.Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; 2.Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini o’rganildi; talabalarning ijodiy mahoratini shakillandi; 3.*Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o’rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik

rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.	tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individualishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirishlar o'rganildi.
Ta'lim usuli va texnikasi	instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
Ta'lim shakli	frontal; jamoaviy;
Ta'lim vositalari	Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
	mashg'ulot bo'yicha o'quv materiallari, proektor, axborot texnologiylari vositalari.
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shaklda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Manitoring va baholash	Og'zaki so'rov, kuzatish.

2. "Kirish. Differensial tenglamalarga keltiriladigan masalalar. Hosilaga nisbatan yechilgan birinchi tartibli differensial tenglamalar, yechim tushunchasi, xususiy va umumiy yechim, integral chiziq, Koshi masalasi.Egri chiziqlar oilasining differensial tenglamasini tuzish" ma'ruza texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzuning nomi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiriladi. 1.2.Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi (1.1-ilova). 1.3.Talabalarning darsga tayyorgarlik darajasini aniqlash, bilimlarini faollashtirish maqsadida tezkor savollar o'tkaziladi: 1)Differensial tenglama deb qanday tenglamaga aytiladi? 2)Differensial tenglamani tartibini ayting? 3)Differensial tenglamaning umumiy yechimi, xususiy va maxsus yechimlarini ayting? Mavzu, mazmuning muhokamasi guruhlarda davom etishi e'lon qilinadi.	Tinglaydilar. yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2- Asosiy bosqich.(55-daqiqa)	2.1.Talabalarni 4ta o'quv guruhiga bo'linadi. Mavzu bo'yicha tarqatma material beriladi(1.2-ilova). Guruhlarda o'quv vazifasini bajarish bo'yicha ishni tashkil qiladi. Har bir guruh o'z vazifalarini oladi(1.3-ilova). O'quv faoliyati natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhlarda ish boshlanganligini m'alum qiladi.Vazifani bajarishda o'quv materiallaridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Talabalarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar berish mumkin: 1. Hozirgi zamon talablari nimalardan iborat deb bilasiz? 2.Zamon talablarini bajarishda kadrlarning malakasi qanday bo'lishi kerak?	Tinglaydilar; Guruhlarda ishlaydilar, Savollarga javob izlaydilar. Tinglaydilar; o'qiydilar; guruhlarda ishlaydilar, asoaiylarni yozadilar. Tinglaydilar; savollar beradilar.

	3.Axborot texnologiyalarini qo'llashni bilish, nimalarni taqoza etadi? 4.Differensial tenglamalar fani va uning insoniyat tarixidagi roli hamda uning rivoji nimalardan iborat deb bilasiz? 5. Differensial tenglama deb nimaga aytiladi? 6. Differensial tenglama tartibi qanday aniqlanadi? 7. Yunalishlar maydoni qanday aniqlanadi va izoklinalar yordamida differensial tenglamaning integral chiziqlari qanday chiziladi? 8. Differensial tenglamaning integral chizig'i deb nimaga aytiladi? 2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Taqdimot vaqtida javoblarga izoh beradi, to'gri e'chimlarga e'tibor beradi, xatolarni ko'rsatadi. Talabalar bilan birgalikda javoblar to'g'riligini baholaydi, savollarga javob beradi. 2.4. Guruhlar bajargan ishlari bo'yicha o'z-o'zini baholaydilar va tekshiradilar. 2.5. Javoblarni to'ldiradi va qisqacha xulosalar qiladi.	Talabalar berilgan savollarga javob beradilar; misol va masalalarni daftarda echadilar. Guruh liderlari topshiriqlar javoblarini aytadilar. Liderlar o'z guruhlarida baholash o'tkazadilar. Tinglaydilar.
3- bosqich, yakuniy(15 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2.Mashg'ulotda maqsadga erishishdagi, talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi(1.3-1.4ilovalar). 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi(1.5-ilova) va uning baholash mezonlari aytiladi.	Savol beradilar. Tinglaydilar; muhokamada qatnashadilar. Topshiriqlarni yozadilar.

1.1-ilova

Har bir mashg'ulot 0,5 balldan 2 ballgacha baholanadi. Ekspert guruxlarning ish natijalarini baholovchi me'zonlari

Me'zonlar	Ball	%	Gurux natijalari bahosi			
			1	2	3	4
Axborotning to'liqligi	1,0	50				
Masala yechimining boshqacha usuli, illyustratsiyasi(grafik tarzda taqdim etish, ayrim hisoblashlarni aniq ko'rsatish va h.k.)	0,6	30				
Gurux faolligi (qo'shimcha, berilgan savol, javoblarning soni)	0,4	20				
JAMI	2	100				

86-100% / a'lo"
71-85% / - "yaxshi"
55-70% / - "qoniqarli"
0-54%-- "qoniqarsiz".

“Kirish. Differensial tenglamalarga keltiriladigan masalalar. Hosilaga nisbatan yechilgan birinchi tartibli differensial tenglamalar, yechim tushunchasi, xususiy va umumiy yechim, integral chiziq, Koshi masalasi.Egri chiziqlar oilasining differensial tenglamasini tuzish” mavzusi bo‘yicha tarqatma material

Differensial tenglamalar fizika, mexanika, differensial geometriya, variyasion hisob, issiqlik texnikasi, elektrotexnika, kimyo, biologiya va iqtisod kabi fanlarda keng qullaniladi.
Bu fanlarda uchraydigan ko’plab jarayonlar differensial tenglamalar yordamida tavsiflanadi.Shu tenglamalarni o’rganish bilan tegishli jarayonlar haqida biror ma’lumotga, tasavvurga ega bo’lamiz.
Usha differensial tenglamalar, o’rganilayotgan jarayonning matematik modelidan iborat bo’ladi.Bu model qancha mukammal bo’lsa,differensial tenglamalarni o’rganish natijasida olingan ma’lumotlar jarayonlarni shuncha to’la tavsiflaydi.Shuni aytib utish kerakim, tabiatda uchraydigan turli jarayonlar bir xil differensial tenglamalar bilan tavsiflanishi mumkin.

Ta’rif. Differensial tenglama deb, erkli uzgaruvchi x, noma’lum funksiya y va uning hosilalari orasidagi bog’lanishdan iborat bo’lgan tenglamaga aytiladi.

U simvolik ravishda

$$F(x, y, y', y'', \ldots, y^{(n)}) = 0 \quad (1)$$

ko’rinishda yoziladi.

Bunda F ko’rilayotgan sohada o’z argumentlarining uzluksiz funksiyasidir.(1) tenglamada erkli uzgaruvchi, noma’lum funksiya va hosilalardan bir nechtasi qatnashmasligi mumkin. Lekin u differensial tenglama bo’lsa, u holda hosilalardan hech bo’lmaganda bittasi qatnashishi shart.

Differensial tenglama tarkibiga kirgan hosilalarning eng Yuqori tartibiga, differensial tenglamaning tartibi deyiladi.

Masalan (1) tenglama, n-chi tartibli differensial tenglamadir.

Agar tenlamadagi noma’lum funksiya faqat bitta erkli o’zgaruvchiga bog’liq bo’lsa, bunday tenglamaga oddiy differensial tenglama deyiladi (ODT).

Agar tenglamadagi noma’lum funksiya bir nechta erkli o’zgaruvchiga bog’liq bo’lsa, tenglamada har-bir erkli o’zgaruvchilar bo’yicha olingan xususiy hosilalar qatnashishi mumkin. Bunday differensial tenglamalarga xususiy hosilali differensial tenglama deyiladi.
Masalan $u(x, y)$ funksiya ikkita x, y agrumentga bog’liq bo’lsin.
U holda

$$F\left(u, \frac{\partial u}{\partial x}, \quad \frac{\partial u}{\partial y}, \quad \frac{\partial^2 u}{\partial x^2}, \quad \frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y}, \quad \frac{\partial^2 u}{\partial y^2}\right) = 0 \qquad (2)$$

tenglamaga ikkinchi tartibli xususiy hosilali differensial tenglama deyiladi.

$$F\left(u, \frac{\partial u}{\partial x}, \quad \frac{\partial u}{\partial y}\right) = 0 \qquad (3)$$

ga esa birnichi tartibli xususiy hosilali differensial tenglama deyiladi.
Birinchi tartibli ODT ning umumiy ko’rinishi

$$F(x, y, y') = 0 \qquad (4)$$

dan iborat.

Agar bu tenglamani y' ga nisbatan yechish mumkin bo’lsa ya’ni

$$\frac{dy}{dx} = f(x, y) \text{ yoki } y' = f(x, y) \qquad (5)$$

Tenglama hosilaga nisbatan yechilgan birinchi tartibli differensial tenglama deyiladi.

Bunda $f(x,y)$ funksiya R^2 tekislikning (sonlar tekisligi $R^2=\{(a,b); a\in R,\quad b\in R\}$ R - haqiqiy sonlar to'plami) G sohasida aniqlangan bo'lsin. Agar J (ochiq, yopiq yoki yarim ochiq) intervalda aniqlangan $y=\varphi(x)$
funksiya uchun quyidagi uchta shart:

1. $(x,\varphi(x))\in G, \qquad GCR^2, \qquad x\in J$
2. $\varphi(x)\in C^1(J)$
3. $\varphi'(x)\equiv f(x,\varphi(x)), \qquad x\in J$

bajarilsa, u holda bu funksiya J integralda (5) tenglamaning yechimi deyiladi.
Agar

$$y=\psi(x,c) \qquad (6)$$

(6) funksiya, (5) tenglamani qanoatlantirsa, unga tenglamaning umumiy yechimi deyiladi. Bunda $c-$ ixtiyoriy o'zgarmas son (parametr) Ba'zi vaqtlarda umumiy yechim oshkormas

$$F(x,y,c)=0 \qquad (7)$$

ravishda berilishi mumkin (6) yechimga, tenglamaning umumiy integrali deyiladi.

Tenglamaninng umumiy $y=\psi(x,c)$ yechimi yoki umumiy $F(x,y,c)=0$ integrali, geometrik nuqtayi nazardan, bitta parametrga bog'liq bo'lgan egri chiziqlar oilasini ifodalaydi. Tekislikda har-bir yechim egri chiziqdan iborat. Unga tenglamaning integral chizig'i deyiladi. (5)tenglamani geometrik nuqtayi nazardan tekshiramiz.

x va y o'zgaruvchini tekislikdagi nuqtaning dekart koordinatalari uchun qabul qilsak, u holda $f(x,y)$ funksiya aniqlangan G sohaning har-bir x, y nuqtasiga (5) tenglama, G sohaning har-bir nuqtadan o'tuvchi integral chiziqqa o'tkazilgan urinmaning burchak koeffisiyentini ifodalaydi. Boshqacha aytganda $\frac{dy}{dx}$ qiymatini mos qo'yadi. $\frac{dy}{dx}$ ningqiymati, $y=\varphi(x)$ integral chizig'ining ixtiyoriy nuqtasiga o'tkazilgan urinmaning absissa o'qining musbat yo'nalishi bilan tashkil etgan burchakning tg ini bildiradi. Ya'ni har-bir nuqtada urinmaning yo'nalishini aniqlaydi.Biz yunalishlar maydoniga ega bo'lamiz.

Demak geometrik nuqtai nazardan birinchi tartibli differensial tenglamani yechish, shunday chiziqlarni topish kerakkim uning har-bir nuqtasiga o'tkazilgan urinmaning yo'nalishi, shu nuqtadagi yo'nalishlar maydoniga mos kelsin.

TA'RIF. Bir xil yo'nalish maydoniga ega bo'lgan nuqtalarning geometrik o'rniga izoklina deyiladi.

Izoklinalarga ko'ra, differensial tenglamalarning integral chiziqlarni chizish mumkin.

Izoklinalar usuli.

Hosilaga nisbatan yechilgan birinchi tartibli differensial tenglama berilgan bo'lsin.

$$\frac{dy}{dx}=f(x,y) \qquad (5)$$

Differensial tenglamaning integral chiziqlarini chizish uchun quyidagi ishlarni bajarish kerak.

1. Agar berilgan differensial tenglama hosilaga nisbatan yechilmagan bo'lsa, dastavval uni hosilaga nisbatan yechib olamiz.
2. Integral chiziqlarning chapdan ungga tomon harakat etganda, uning yunalishini aniqlaymiz;

$$\frac{dy}{dx}=f(x,y)>0$$

sharti bajarilgan sohada integral chiziqlar Yuqoriga qarab yunaladi.

$$\frac{dy}{dx}=f(x,y)<0$$

sharti bajariladigan sohada integral chiziqlar pastga qarab yo'naladi.

3. Differensial tenglamaning izoklinarlar oilasi tenglamasini tuzamiz.

$$f(x,y)=k \qquad (k=0;\quad \pm 1;\quad 2,....)$$

Bunda k-parametr.

Bu izoklinalar ichida eng ahamiyatlisi $k=0;\ k=\pm 1$ qiymatdagi izoklinadir. $k=0$ bo'lganda berilgan differensial tenglama

$$f(x,y)=0$$

ko'rinishni oladi.

Bu integral chiziqlarning maksimum va minimum yotadigin nuqtalarining geometrik o'rni bo'lib, bunda

$$\begin{cases} f(x,y)=0 \\ f'_x(x,y)>0 \end{cases}$$

sharti bajariladigan sohada integral chiziqlarining minimum nuqtalari yotadi.

$$\begin{cases} f(x,y)=0 \\ f'_x(x,y)<0 \end{cases}$$

sharti bajariladigan sohada integral chiziqlarning maksimum nuqtalari yotadi.

$k=-1$ bo'lsa, $f(x,y)=-1$ izoklinani hosil qilamiz.

Integral chiziqlar, bu izoklina bilan kesishgan nuqtalarida burchak koeffisiyenti –1 ga teng bo'lgan urinmalarga ega bo'ladi. Ya'ni ular o'zaro 135^0 burchak ostida kesishadi $k=1$ bo'lganda $f(x,y)=1$ izoklina tenglamasiga ega bo'lamiz.

Integral chiziqlari bu izoklina chizig'i bilan burchak koeffisiyenti $tg\varphi=1$ ya'ni 45^0 burchak ostida kesishadi. Integral chiziqlarni yanada aniqroq chizish uchun bukilish nuqtalarining geometrik o'rnini topamiz.

Ma'lumki bukilish nuqtalarining geometrik o'rni, ikkinchi tartibli hosilani nolga tenglashtirish yo'li bilan aniqlanadi.

(5) tenglamaga asosan y'' ni topamiz:

$$y''=\frac{\partial f}{\partial x}+\frac{\partial f}{\partial y}\frac{dy}{dx}=\frac{\partial f}{\partial x}+f(x,y)\frac{\partial f}{\partial y}=f'_x(x,y)+f(x,y)f''_y(x,y)$$

Bundan

$$f'_x(x,y)+f(x,y)f'_y(x,y)=0 \qquad (8)$$

(8) tenglama bilan aniqlanuvchi chiziq bukulish nuqtalarining geometrik o'rnini aniqlaydi.

Bunda $y''=f''_x+ff''_y>0$

shartini qanoatlantiruvchi sohada integral chiziqlari botiq $(\cup)$ bo'lib,

$$y''=f'_x+f\cdot f'_y<0$$

shartni kanotlantiruvchi sohada integral chiziqlari qavariq $(\cap)$ bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, berilgan differensial tenglamaning integral chiziqlarini chizish mumkin.

Misol . $y'=2x-y$ tenglamaning integral chiziqlarini, izoklina yordamida chizing.

Yechish. Integral chiziqlarining harakat yo'nalishlarini aniqlaymiz:

Agar $y'=2x-y>0$ bo'lsa, $y<2x$ bo'ladi.

Bu shartni qanoatlantiruvchi sohada integral chiziqlar Yuqoriga qarab yunaladilar. $(\uparrow)$

Agar $y'=2x-y<0$ bo'lsa, $y>2x$ bo'ladi.

Bu sohada integral chiziqlar pastga qarab yo'naladilar. $(\downarrow)$

Izoklinalar oilasining tenglamasini tuzamiz:

$y'=2x-y=k$ bundan $y=2x-k$.

k=0 bo'lsin. U holda

$y=2x$ ga ega bo'lamiz.

$$\begin{cases} f(x,y) = 2x - y = 0 \\ f_x'(x,y) = 2 > 0 \end{cases}$$

Bundan $y=2x$.

$y=2x$ to'g'richizig'ida integral chiziqlarning minimum nuqtalari yotadi.

Integral chiziqlar maksimum nuqtaga ega emas. Chunki x va y ning ko'rilayotgan sohadagi hamma qiymatlari uchun

$f_x'(x,y) = 2 > 0$

$k=1$ bo'lsin. U holda $y=2x-1$ ga ega bo'lamiz. Integral chiziqlar bu tug'ri chiziq bilan 45^0 burchak ostida kesishadilar.

$k=-1$ bo'lsin. U holda $y=2x+1$ ga ega bo'lamiz. Integral chiziqlar bu to'g'ri chiziq bilan 135^0 burchak ostida kesishadi.

$k=2$ bo'lsin. U holda $y=2x-2$ ga ega bo'lamiz. Bu berilgan tenglamani yechimi bo'ladi.

Haqiqatan ham

$y'=2$, $2 \equiv 2x - 2x + 2$

tenglamaning integral chiziqlari bu integral chiziq bilan kesishmaydi.

Endi bukilish nuqtalarining geometrik o'rnini aniqlaymiz.

Buning uchun berilgan tenglamadan

$y''=2-y'=2-2x+y=0$

bundan

$y=2x-2$

Bu bukilish nuqtalarining geometrik o'rni.

$y>2x-2$ shartni qanoatlantiruvchi sohada integral chiziqlari botiq,

$y<2x-2$

shartni qanoatlantiruvchi sohada integral chiziqlari qavariq bo'ladi.

Bu ma'lumotlarga ko'ra, integral chiziqlarni chizish mumkin.

Koshi masalasi.

$$\frac{dy}{dx} = f(x,y)$$

tenglama uchun Koshi masalasi deb, $x=x_0$ bo'lganda $y(x_0) = y_0$ shartini qanoatlantiruvchi yechimni topishga aytiladi. Boshqacha aytganda, tenglamaning shunday yechimini topish kerakkim, $f(x_0, y_0)$ nuqtasidan o'tsin. Koshi masalasini yechish uchun, dastavval berilgan differensial tenglamaning umumiy yechimi $y = \varphi(x,c)$ topiladi so'ngra $x = x_0$ $y(x_0) = y_0$ boshlangich shartlar yordamida parametr c ning qiymati $c = c_0$ aniqlanadi.

$y = \varphi(x,c)$ yechimdagi c o'rniga c_0 qo'ysak Koshi shartini qanoatlantiruvchi

$y = \varphi(x,c_0)$ yechimga ega bo'lamiz.

Ta'rif. (5) differensial tenglamaning Koshi masalasini qanoatlantiruvchi $y=y(x)$ yechimi xususiy yechim deyiladi. Ya'ni, boshqacha qilib aytganda, barcha nuqtalarida yagonalik sharti bajaraladigan yechim xususiy yechim deyiladi.

Ta'rif. Barcha nuqtalarida yechimning yagonalik sharti buziladigan yechim maxsus yechim deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, (5) differensial tenglamaning (6) munosabat o'z ichiga olmagan yechimlari maxsus yechimlar deb ataladi. Differensial tenglama nazariyasida differensial tenglamaning barcha yechimlarini topish asosiy masala hisoblanadi. Agar differensial tenglamaning yechimini elementlar funksiyalar va ularning integrallari yordamida yozish mumkin bo'lsa, u holda differensial tenglama kvadraturalarda integralandi deyiladi.

Differensial tenglamaga keltiriladigan ba'zi bir masalalarni qaraymiz.

Masala. 1. Bitta parametrga bog'liq bo'lgan egri chiziqlar oilasining differensial tenglamasi tuzilsin.

Yechish.Ma'lumki bitta parametrga bog'liq bo'lgan egri chiziqlar oilasining umumiy tenglamasi

$$F(x, y, c) = 0 \quad (9)$$

dan iborat. Bunda c- parametr bo'lib, F funksiya $x,\ y(x)$ larga nisbatan uzluksiz differensialanuvchi funksiya (9) dan

$$F_x^1 + F_y^1 \cdot y' = 0 \qquad (10)$$

hosilani olamiz. (9) va (10) dan parametr c ni yo'qotsak izlanayotgan $\phi(x, y, y') = 0$ differensial tenglamaga ega bo'lamiz.

Misol 2.Markazi absissa o'qida bo'lib, ordinata o'qiga urinuvchi aylanalar oilasining differensial tenglamasi tuzilsin.

u

x



Ma'lumki bunday aylanalar oilasining tenglamasi $(x-c)^2 + y^2 = c^2$ dan iboratdir, yoki ochib yozsak

$$F(x, y, c) \equiv x^2 - 2xc + y^2 - c^2 = 0 \qquad (11)$$

ga ega bo'lib, bundan

$$\begin{gathered} 2x - 2c + 2yy' = 0 \\ 2c = 2x + 2yy' \end{gathered} \qquad (12)$$

(11) va (12) dan

$$x^2 - x(2x + 2yy') + y^2 = 0$$

yoki $x^2 + 2xyy' - y^2 = 0$

Bu izlanayotgan differensial tenglamadir.Bu tenglamaning yechimi (11) dan iborat.

Masala3.Suyuqlikning idishdan oqib chiqishi uchun ketgan vaqtni aniqlash. Idishning ko'ndalang kesim yuzi S bo'lsin va u idishdagi suyuqlik balandligi h ning funksiya bo'lsin $S(h)$ Idish ichidagi suyuqlik idish ostida, ko'ndalang kesim yuzi ω bo'lgan jumrakdan oqib chiqadi. Bizga idish ichidagi suyuqlikning H dan h ga kelguncha ketgan vaqt $t$ni va suyuqlikning to'la



oqib chiqish uchun ketgan T vaqtni aniqlash talab etilsin.
Idishdagi suyuqlik miqdorning o'zgarish tezligi ϑ ham idishdagi suyuqlik balandiligi h-ning funksiya bo'lsin $\vartheta(h)$. dt vaqt ichida idishdan oqib chiqqan suyuqlik miqdori $d\vartheta$ silindir shaklida bo'lib, bu silindrning balandiligi $\vartheta(h)$ dt va asosi ω dan iborat bo'lgani uchun, oqib chiqqan suyuklik miqdori

$$d\vartheta = \vartheta(h)\cdot\omega dt \qquad (13)$$

dan iborat bo'ladi. Ikkinchi tomonidan bu oqib chiqqan suyuqlik miqdorini boshqacha ham hisoblash mumkin.



dtvaqt ichida idishdagi suyuklik satxi dh ga kamayadi.
U holda bu suyuqlik miqdori

$$d\vartheta = -S(h)dh \qquad (dh<0) \qquad (14)$$

dan iborat
(13) va (14) ga asosan

$$\omega\vartheta(h)dt = -S(h)dh$$

yoki

$$dt = -\frac{S(h)}{\omega\vartheta(h)}dh \qquad (15)$$

differensial tenglamaga ega bo'lamiz (15) ni integrallasak

$$t = -\int_H^h \frac{S(h)}{\omega\vartheta(h)}dh = \frac{1}{\omega}\int_h^H \frac{S(h)}{\vartheta(h)}dt$$

$$T = \frac{1}{\omega}\int_h^H \frac{S(h)}{\vartheta(h)}dh$$

Agar idish ostidagi jumrakning ko'ndalang kesim yuzi kichik bo'lsa, Torichelli qonuniga asosan, idishdan suyuqlikning oqib chiqish tezligi

$$\vartheta(h) = \mu\sqrt{2gh}$$

formula bilan aniqlanadi.
Bunda μ - suyuqlikning yopishqoqligiga, idish formasiga va boshqalarga bog'liq bo'lib suv uchun μ =0,6 ga teng.
U holda Yuqoridagi formulalar.

$$t = \frac{1}{\mu\omega\sqrt{2g}}\int_h^H \frac{S(h)}{\sqrt{h}}dh, \quad T = \frac{1}{\mu\omega\sqrt{2g}}\int_0^H \frac{S(h)}{\sqrt{h}}dh$$

ko'rinishga keladi.
Misol 4. Gorizontal holdagi silindrik bakning uzunligi 6 metr, diametri 4 metr. Bu bak ichidagi suyuklik radiusi $\frac{1}{12}$ metrli jumrakdan necha minutda oqib chikadi.

$AB = b$ bo'lsin

$$\left(\frac{b}{2}\right)^2 = 2^2 - (h-2)^2 \qquad \frac{b^2}{4} = 4 - h^2 + 4h - 4 = 4h - h^2$$

$$b = 2\sqrt{h}\sqrt{4-h} \qquad S(h) = 6\cdot b = 12\sqrt{h}\sqrt{4-h}$$

$$T = \frac{1}{0,6\cdot\left(\frac{1}{12}\right)^2\pi\sqrt{2g}}\int_0^4 \frac{12\sqrt{h}\sqrt{4-h}}{\sqrt{h}}dh = \frac{12^3}{0,6\pi\sqrt{2g}}\int_0^4\sqrt{4-h}dh = \frac{12^3}{0,6\pi\sqrt{2g}}\left[-\frac{2}{3}(4-h)^{3/2}\right]_0^4 =$$

$$= \frac{12^3\cdot 2\cdot 4^{3/2}}{3\cdot 0,6\pi\sqrt{2g}} \approx 1104\text{сек} \approx 18,4\text{мин}.$$

Masala 4.Matematik tebrangich (mayatnik) ning harakat tenglamasini keltirib chiqaring.
Vertikal tekislikda yotgan ℓ raduisli K aylana bo’ylab, og’irlik kuchi ta’siri ostida harakat qiluvchi m massaga ega bo’lgan P nuqta matematik tebrangichni tasvirlaydi.
Har bir momentda P nuqtaning o’rni $\varphi(t)$ burchak bilan to’la aniqlanadi.



Masalaning sharti bo’yicha P nuqta faqat og’irlik kuchi ta’siri ostida harakat qiladi. Ammo bu harakatda aylananing ro’li bor.

U R nuqtani aylana bo’ylab harakat qilishga majbur etadi. Ya’ni R nuqtaga aylananing ichki normali buyicha yo’nalgan F kuchi ta’sir etadi. Agar tortish kuchi mg ni ikkita tashkil etuvchiga ajratsak

$$F_1 = -mg\sin\varphi, \qquad F_2 = -mg\cos\varphi$$

u holda $F_1+F_2=0$ bo’ladi.

Shunday qilib, R ga ta’sir etayotgan kuchlarning teng ta’sir etuvchisi

$$F = F_1 + F_2 + F_3 = F_1 = -mg\sin\varphi$$

Demak Pnuqtaning harakat tenglamasi Nyutonning ikkinchi qonuniga asosan

$$ml\ddot{\varphi} = -mg\sin\varphi \quad \text{ёки} \quad l\ddot{\varphi} = -g\sin\varphi$$

ko’rinishda bo’ladi.Bu esa ikkinchi tartibli differensial tenglamadir.

Masala 5. Jism 10 minut ichida 100^0dan 60^0ga soviydi. Agar atrof muxitning temperaturasi 20^0 bo’lsa, qancha vaqtdan sung jismning temperaturasi 25^0ga tushadi.

Yechish.Nyuton qonuniga asosan jismning havoda sovish tezligi, havo bilan jism tempraturalari ayirmasiga proporsional.

$$\frac{dT}{dt} = -k(T-20) \qquad (16)$$

bunda

T –jism temperaturasi, $\frac{dT}{dt}$ - jismning sovish tezligi, k- proporsionallik koeffisiyenti

(16) dan

$$\frac{dT}{T-20} = -kdt$$

Buni integrallaymiz; $\ell n(T-20) = -kt + \ell nc$

yoki $T-20 = c\ell^{-kt}$

masaladagi shartlardan foydalanamiz;

$t=0$ bo’lganda T= 100^0

$$100^0\text{-}20^0\text{=s}\,\ell^{-л0} \qquad s=80^0 \qquad T\text{-}20^0=80^0\,\ell^{-ле}$$

t=10 bo’lganda T=60^0 60^0-20^0=$80^0\,\ell^{-10л}$ $\ell^{-10л} = \frac{1}{2}$

$$\ell^{-ле} = \ell^{(-10л)\frac{t}{10}} = \left(\frac{1}{2}\right)^{\frac{t}{10}}$$

T=25^0 25^0-20^0 =$80^0\left(\frac{1}{2}\right)^{\frac{t}{10}}$ 5=80 $\left(\frac{1}{2}\right)^{\frac{t}{10}}$ $\frac{1}{16} = \left(\frac{1}{2}\right)^{\frac{t}{10}}$

$\left(\frac{1}{2}\right)^4 = \left(\frac{1}{2}\right)^{\frac{t}{10}}$ $\frac{t}{10} = 4$ t=40 min.

J; 40 minut

1.3-ilova

Insert texnikasini qo‘llagan holda ish yuritish qoidalari

1. Matnni o‘qing.
2. Matn qatorlariga qalam bilan beligilar qo‘yib, olingan ma’lumotni tizimlashtiring:

V - ... haqida mavjud bo‘lgan bilimlar (ma’lumotlar) mos keladi

- (minus) - ... haqidagi mavjud bilimlarga e’tiroz bildiradi.

+ (plyus) - yangi ma’lumotlar hisoblanadi.

? - tushunarsiz / aniqlik / qo‘shimcha ma’lumot talab qiladi

B/Bx/Bo texnikasini qo‘llagan holda ish yuritish qoidalari

1. “Insert” texnikasidan foydalanib matnni o‘qing.
2. Olingan ma’lumotlarni tizimlashtiring – matnga qo‘yilgan belgilar asosida tablitsa qatorlarini to‘ldirib chiqing.

B/Bx/Bo (Bilaman / Bilishni xoxlayman / Bilib oldim)

№	Mavzu savollari	Bilaman (Q)	Bilishni xoxlayman (?)	Bilib oldim
1	Differensial tenglama deb qanday tenglamaga aytiladi?			
2	Differensial tenglama tartibi qanday aniqlanadi?			
3	Oddiy differensial tenglama bilan xususiy hosilali differensial tenglamaning farqi nimadan iborat?			
4	Differensial tenglamaning yechimi deb nimaga aytiladi, umumiy yechim bilan umumiy integralning farqini aytinig?			

5	Yo’nalishlar maydoni qanday aniqlanadi?			
6	Bitta parametrga bog’liq bo’lgan egri chiziqlar oilasining differensial tenglamasi qanday tuziladi?			
7	Izoklinalar oilasining tenglamasi qanday tuziladi?			

1.4-ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo‘lmog‘i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog‘i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo‘yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchra-masligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o‘qituvchi ularga yo‘riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo‘lganda ham muloqotda bo‘ling, o‘z fikringizni erkin namoyon eting.

2.5-ilova

“Kirish. Differensial tenglamalarga keltiriladigan masalalar. Hosilaga nisbatan yechilgan birinchi tartibli differensial tenglamalar, yechim tushunchasi, xususiy va umumiy yechim, integral chiziq, Koshi masalasi.Egri chiziqlar oilasining differensial tenglamasini tuzish” mavzusi bo‘yicha mustaqil ish uchun savollar

Mustaqi ish uchun savollar

Differensial tenglamalarni integrallang va integral chiziqlarni chizing.

$$1.\ y' = \frac{1}{\sqrt{x^2-1}}; \qquad 2.\ y' = ctgx; \qquad 3.\ y' = \frac{x}{\ln x};$$

$$4.\ y' = \sin 5x \cos 3x; \quad 5.\ y' = |y|^{\alpha}; \qquad 6.\ y' = 2e^x \cos 2x;$$

$$7.\ y' = x^2 e^x; \qquad 8.\ y' = 4e^x \cos 2x; \qquad 9.\ y' = shx.$$

Differensial tenglamalarni integrallang va $M(x_0, y_0)$ nuqtadan o’tuvchi integral chiziqni aniqlang.

$$10.\ y' = -2xe^{-x^2},\ M(0,3); \qquad 11.\ y' = \frac{1}{x^2},\ M(1,0);$$

$$12.\ y' = \frac{1}{2\sqrt{x}},\ M(1,0); \qquad 13.\ y' = tg\frac{x}{2},\ M(\frac{\pi}{2},1).$$

Egri chiziqlar oilasining differensial tenglamasini tuzing.

$$14.\ y = e^{cx}; \qquad 15.\ y = (x-3)^3 \qquad 16.\ y = cx^3; \qquad 17.\ y = \sin(x+c)$$

$$18.\ x^2 + cy^2 = 2y; \qquad 19.\ y^2 + cx = x^3; \qquad 20.\ y = \tilde{n} - x(\ )^2$$

$$21.\ \tilde{n}y = \sin cx; \qquad 22.\ y = ax^3 + e^x; \qquad 23.\ (x-1)^2 + by^2 = 1.$$

24. Markazi $y=2x$ to’g’ri chiziqda va radiusi 1 ga teng bo’lgan egri chiziqlar oilasining differensial tenglamasini tuzing.

25. $y=0$ va $y=x$ to’g’ri chiziqlarga bir vaqtda o’rinuvchi va simmetriya o’qi OY o’qiga parallel bo’lgan parabolalar oilasining differensial tenglamasini tuzing.

Асосий ва қўшимча ўқув адабиётлари ҳамда ахборот манбаалари

Асосий адабиётлар

1. Morris Tenebout, Harry Pollard. Ordinary Differential Equations. Birkhhauzer. Germany, 2010.
2. Robinson J.C. An Introduction to Ordinary Differential Equations. Cambridge University Press 2013.
3. Степанов В.В. Курс дифференциальных уравнений.М. КомКнига/ URSS 2006.-472c.
4. Эльсгольц Л.Е. Дифференциальные уравнения иварияционноеисчиление.М. КомКнига/ URSS 2006.-312c
5. Филиппов А.Ф. Сборник задач по дифференциальным уравнениям. М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Қўшимча адабиётлар

6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ, Тошкент, 2016. 56-б.
7. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилганмажлисидаги маъруза,2017 йил 14 январъ –Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 104-б.
8. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабрь- Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 48-б.
9. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Мазкур китобдан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 1 ноябрдан 24 ноябрга қадар Қорақалпоғистон Республикаси,вилоятлар ва Тошкент шахри сайловчилари вакиллари билан ўтказилган сайловолди учрашувларида сўзлаган нутқлари ўрин олган.-Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 488-б.
10. Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н. Оддий дифференциал тенгламалар. Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.
11. Бибиков Ю.Н. Курс обыкновенных дифференциальных уравнений. М., 1991. 314 с.
12. Петровский И.Г. Лекции по теории обыкновенных дифференциальных уравнений. М.: изд-во Моск. Ун-та. 1984.
13. Демидович Б.П. Лекции по математической теории устойчивости. М.: Наука, 1987.
14. Федорюк М.В. Обыкновенные дифференциальные уравнения. М.: Наука.1980.
15. Самойленко А.М. и др. дифференциальные уравнения. М., 1989. 384 с.
16. Амелькин В.В. Дифференциальное уравнение в приложениях. М.: Наука. 1987.
17. Қаландаров А.Д., Меражова Ш.Б. Дифференциал тенгламалардан масалалар тўплами. Бухоро. “Дурдона”, 2013

Интернет сайтлари

18. www.lib.homelinex.org/math
19. www.eknigu.com/lib/Mathematics/
20. www.eknigu.com/info/M_Mathematics/MC

2-Ma’ruza mashg’ulot.

1. “Hosilaga nisbatan yechilgan birinchi tartibli differensial tenglama yechimini mavjudlik va yagonalik teoremasi” ma’ruza mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi modeli

2-ma’ruza	**Hosilaga nisbatan yechilgan birinchi tartibli differensial tenglama yechimini mavjudlik va yagonalik teoremasi.**
Vaqt-2 soat	Talabalar soni: 50nafardan oshmasligi kerak
O'quv mashg'uloti shakli	ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o’rganish
Mashg'ulot rejasi	1.Koshi teoremasi. 2.Koshi-Pikar-Lindelef teoremasi. 3.Peano teoremasi.
Asosiy tushuncha va atamalar	Differensial tenglama, yechim, umumiy yechim, umumiy integral, integral chiziq izoklina. Koshi masalasi.
Amaliy mashg'ulotining maqsadi	O’quv fani to’g’risida umumiy ta’surotlar berish, Oddiy differensial tenglamalari va uni keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
1.O’rgatuvchi: Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik fikrlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; *2.Rivojlantiruvchi*: Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo’llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish; *3.Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o’rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.	1.Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; 2.Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini o’rganildi; talabalarning ijodiy mahoratini shakillandi; 3.*Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o’rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individualishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirishlar o’rganildi.

Ta'lim usuli va texnikasi	instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, “Insert” texnikasi;
Ta'lim shakli	frontal; jamoaviy;
Ta'lim vositalari	Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
	mashg'ulot bo'yicha o'quv materiallari, proektor, axborot texnologiylari vositalari.
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shaklda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Manitoring va baholash	Og'zaki so'rov, kuzatish.

2. "Hosilaga nisbatan yechilgan birinchi tartibli differensial tenglama yechimini mavjudlik va yagonalik teoremasi" ma’ruza texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzuning nomi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiriladi. 1.2. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi(2.1-ilova). 1.3.Talabalarning darsga tayyorgarlik darajasini aniqlash, bilimlarini faollashtirish maqsadida tezkor-savollar o'tkaziladi: 1)Koshi teoremasini ayting? 2)Koshi-Pikar-Lindelef teoremasini ayting? Mavzu, mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishi e'lon qilinadi.	Tinglaydilar. yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2- Asosiy bosqich.(55-daqiqa)	2.1.Talabalarni 4 ta o'quv guruhiga bo'linadi. Mavzu bo'yicha tarqatma material betriladi(2.2-ilova). Guruhlarda o'quv vazifasini bajarish bo'yicha ishni tashkil qiladi. Har bir guruh o'z vazifalarini oladi(2.3-ilova). O'quv faoliyati natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhlarda ish boshlanganligini ma’lum qiladi.Vazifani bajarishda o'quv materiallaridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Talabalarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar berish mumkin: 1. Hozirgi zamon talablari nimalardan iborat deb bilasiz? 2.Zamon talablarini bajarishda kadrlarning malakasi qanday bo'lishi kerak? 3. Axborot texnologiyalarini qo'llashni bilish, nimalarni taqoza etadi? 4.Koshi masalasini yechimi yagonami? 5.Peano teoremasini aytinig? 6. Koshi teoremasini isbotlang? 7 .Differensial tenglamaning integral chizig’i deb nimaga aytiladi? 2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Taqdimot vaqtida javoblarga izoh beradi, to'gri e'chimlarga e'tibor beradi, xatolarni ko'rsatadi. Talabalar bilan birgalikda javoblar	Tinglaydilar; Guruhlarda ishlaydilar, Savollarga javob izlaydilar. Tinglaydilar; o'qiydilar; guruhlarda ishlaydilar, asoaiylarni yozadilar. Tinglaydilar; savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar; misol va masalalarni daftarda echadilar. Guruh liderlari topshiriqlar javoblarini aytadilar.

	to'g'riligini baholaydi, savollarga javob beradi. 2.4. Guruhlar bajargan ishlari bo'yicha o'z-o'zini baholaydilar va tekshiradilar. 2.5. Javoblarni to'ldiradi va qisqacha xulosalar qiladi.	Liderlar o'z guruhlarida baholash o'tkazadilar. Tinglaydilar.
3- bosqich, yakuniy(15 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2.Mashg'ulotda maqsadga erishishdagi, talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi(2.3-2.4ilovalar). 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi(2.5-ilova) va uning baholash mezonlari aytiladi.	Savol beradilar. Tinglaydilar; muhokamada qatnashadilar. Topshiriqlarni yozadilar.

2.1-ilova

Har bir mashg'ulot 0,5 balldan 2 ballgacha baholanadi. Ekspert guruxlarning ish natijalarini baholovchi me'zonlari

Me'zonlar	**Ball**	**%**	**Gurux natijalari bahosi**			
			1	**2**	**3**	**4**
Axborotning to'liqligi	1,0	50				
Masala yechimining boshqacha usuli, illyustratsiyasi(grafik tarzda taqdim etish, ayrim hisoblashlarni aniq ko'rsatish va h.k.)	0,6	30				
Gurux faolligi (qo'shimcha, berilgan savol, javoblarning soni)	0,4	20				
JAMI	2	100				

86-100% / a'lo"
71-85% / - "yaxshi"
55-70% / - "qoniqarli"
0-54%-- "qoniqarsiz".

2.2.-ilova

“Hosilaga nisbatan yechilgan birinchi tartibli differensial tenglama yechimini mavjudlik va yagonalik teoremasi”_mavzusi bo‘yicha tarqatma material

Mavjudlik va yagonalik teoremalari.

Hosilaga nisbatan yechilgan

$$\frac{dy}{dx} = f(x,y)$$

oddiy differensial tenglama berilgan bo‘lsin, bu yerda *f (x, y)* funksiya *x0y* tekislikdagi *G* soxada aniqlangan bo‘lsin.

Qaralayotgan sohada tenglama yechimga egami yoki yo‘qmi va agar yechim mavjud bo‘lsa, yagonami ya’ni (1.2) differensial tenglama

$$y(x_0)=y_0$$

shartni qanoatlantiradimi degan savollarga javob berish kerak bo‘ladi.

Yuqoridagi savollarga javob beradigan teoremalar mavjudlik va yagonalik teoremalari deb yuritiladi.

Teorema (mavjudlik teoremasi). Agar $f(x,y)\in\subset(G)$ bo‘lsa, u holda G sohaning ixtiyoriy $(x_0,y_0)\in G$ nuqtasi uchun (1.2) tenglamaning (1.3) shartni qanoatlantiradigan kamida bitta yechimi mavjud.

G sohaga tegishli bo‘lgan yopiq R turtburchak $R=\{|x-x_0|\le a, |y-y_0|\le b\},\quad a>0,\quad b>0$ ni qaraymiz, $R\subset G$. Bu to‘rtburchakda *f (x, y)* funksiya chegaralangan, ya’ni

$$|f(x,y)|\le M$$

R dagi barcha nuqtalar uchun $M > 0$, chunki yopiq sohada uzluksiz funksiya o‘zining eng katta va eng kichik qiymatini qabul qiladi.

$h=\min\left\{a,\frac{b}{M}\right\}$ belgilanish kiritamiz,

$|x-x_0|\le h$ Peano kesmasi deyiladi.

Peano teoremasi. Agar $f(x,y)\in\subset R$ bo‘lsa, u holda R to‘rtburchakning ixtiyoriy $(x_0,y_0)\in R$ nuqtasi uchun, (1.2) tenglamaning (1.3) shartni qanoatlantiradigan Peano kesmasida aniqlangan kamida bitta yechimi mavjud.

Ta’rif. Agar $f(x,y)$ funksiya G sohada aniqlangan bo‘lib, shu funksiya uchun shunday $L\geq 0$ son mavjud bo‘lsaki, ixtiyoriy ikkita $(x,y_1)\in G$, $(x,y_2)\in G$ nuqtalar uchun ushbu

$$|f(x,y_1)-f(x,y_2)|\le L\cdot|y_1-y_2| \quad \text{(L)}$$

tengsizlik bajarilsa, u holda $f(x,y)$ funksiya G sohada y bo‘yicha Lipshis shartini qanoatlantiradi deyiladi, L esa Lipshis o‘zgarmasi deyiladi.

Teorema (mavjudlik va yagonalik teremasi). Agar $f(x,y)$ funksiya R tug‘ri to‘rtburchakda x, y lar buyicha uzluksiz bo‘lib, R da y bo’yicha Lipshis shartini qanoatlantirsa, u holda har bir $(x_0,y_0)\in R$ uchun $y'=f(x,y)$ tenglama x ning $|x-x_0|\le h$ qiymatlari uchun aniqlangan va uzluksiz

$$y_0=\varphi(x_0)$$

qiymatlarni qabul qiluvchi yagona $y=\varphi(x)$ yechimga egadir.

$$y'=f(x,y),\quad y(x_0)=y_0$$

Koshi masalasi, ushbu integral tenglamaga

$$y=y_0+\int_{x_0}^{x} f(t,y(t))dt \tag{1.5}$$

ekvivalent.

Haqiqatan, $y=y(x)$ (1.2) differensial tenglamaning $|x-x_0|\le h$ oraliqda aniqlangan biror yechimi bo‘lib, u $(x_0)=y_0$ boshlang‘ich shartni qanoatlantirsin.

Demak, biz ushbu

$$\frac{dy(x)}{dx}\equiv f(x,y(x))$$

ayniyatga egamiz. Bu holda $y(x)$ funksiya $|x-x_0|\le h$ oraliqda

$$y(x) \equiv y_0 + \int_{x_0}^{x} f(t, y(t))dt$$

integral ayniyat o‘rinli. Aksincha, agar biror uzluksiz *y(x)* funksiya uchun $|x - x_0| \le h$ oraliqda (1.4) ayniyat o‘rinli bo‘lsa, u holda *y=y(x)* funksiya differensiallanuvchi (1.2) differensial tenglamaning yechimi va $y(x_0)= y_0$ shartni qanoatlantiradi.

Birinchi tartibli oddiy differensial tenglamaning umumiy ko’rinishi

$$F(x,y,y')=0 \qquad (1^*)$$

Agar (1^*)tenglamaning y' ga nisbatan yechish mumkin bo’lsa

$$\frac{dy}{dx} = f(x,y) \;\; y' = f(x,y) \qquad (1)$$

tenglamaga ega bo’lamiz.(1) tenglamaga hosilaga nisbatan yechilgan tenglama deyiladi

Koshi masalasining qo’yilishi; (1) tenglama berilgan bo’lib**,** unda $f(x,y)$ funksiya R^2 tekislikning G sohasida aniqlangan uzluksiz va I interval x o’qidagi interval bo’lsin, x_0 ni o’z ichiga oladigan I intervalni va shu I intervalda aniqlangan uzluksiz differensiallanuvchi hamda ushbu

$$\left.\begin{aligned} &1^0 (x, q(x)) \in G (x \in I) \\ &2^0 \varphi'(x) \equiv f(x, \varphi(x)) (x \in I) \\ &3^0 \varphi(x_0) \equiv y_0, (x_0, y_0) \in G \end{aligned}\right\} \qquad (2)$$

Shartlarni qanoatlantiruvchi $y = q(x)$ funksiyani toppish talab etiladi.

Har bir (1) ko’rinishdagi differensial tenglama uchun Koshi masalasi (1) ning yechimi bormi ? Agar bunday yechim bor bo’lsa, yagonami?-degan savollarga javob berish kerak bo’ladi.

Yuqoridagi savollarga javob beradigan teoremalar *mavjudlik va yagonalik teoremalari* deb yuritiladi. Quyida ulardan asosiylarini keltiramiz.

1-Teorema (Koshi teoremasi). Agar $f(x,y)$ funksiya G sohada aniqlangan va uzluksiz bo’lib, uning y bo’icha xususiy hosilasi $\dfrac{\partial f(x,y)}{dy}$ biror $Q \subset G$ sohada aniqlangan va uzluksiz bo’lsa u holda

1. (1) tenglamaning x_0 ni o’z ichiga oladigan biror intervalda aniqlangan va har bir berilgan $(x_0, y_0) \in Q$ nuqta uchun $y(x_0) = y_0$ boshlang’ich shartni qanoatlantiruvchi yechimi mavjud.
2. (1) tenglamaning ikkita $y = \varphi(x)$ va $y = \psi(x)$ yechimlari x_0 da ustma-ust tushsa, ya’ni $\varphi(x_0) = \psi(x_0) = y_0$ bo’lsa u holda bu $y = \varphi(x)$ va $y = \psi(x)$ yechimlar aniqlanish sohalarining umumiy qismida ustma ust tushadi.

Ta’rif Agar $f(x,y)$ funksiya G sohada aniqlangan bo’lib, shu funksiya uchun shunday $L \ge 0$ son mavjud bo’lsaki, $(x, y_1) \in G, (x, y_2) \in G,$ nuqtalar uchun ushbu

$$|f(x, y_1) - f(x, y_2)| \le L|y_2 - y_1| \qquad (L)$$

Tengsizlik bajarilsa u holda $f(x,y)$ funksiya G sohada y bo’yicha Lipshis shartini qanoatlantiradi deyiladi. L esa Lipshis o’zgarmasi deyiladi.

2- Teorema (Koshi-Pikar-Lendelef teoremasi) Agar $f(x,y)$ funksiya G sohada aniqlangan va uzluksiz bo’lib, G sohada y bo’icha Lipshis shartini qanoatlantirsa, u holda har bir $(x_0, y_0) \in G$ uchun shunday o’zgarmas $h > 0$ son topiladiki, natijada (1) tenglamaning (2) boshlang’ich shartni qanoatlantiradigan va $I=\{x:|x-x_0|\le h\}$ oraliqda aniqlangan yagona yechimi mavjud bo'ladi.

3-Teorema(Peano teoremasi). Agar $f(x,y)$ funksiya G sohada aniqlangan va uzluksiz bo'lsa, u holda G sohaning berilgan $(x_0,y_0)\in G$ nuqtasi uchun (1) tenglamaning (2) shartni qanoatlantiradigan kamida bitta yechimi mavjud bo'ladi.

Mavjudlik va yagonalik teoremalarida $\varphi(x)$ va $\psi(x)$ yechimlar o'zlari aniqlangan intervallarning umumiy qismida bir xil bo'lishi haqida gap bordi. Jumladan agar $y=\varphi(x)$ funksiya $I_r=\{x:r_1<x<r_2\}$ da $y=\psi(x)$ funksiya $I_s=\{x:s_1<x<s_2\}$ da aniqlangan va $x_0\in I_r\cap I_s$ uchun $q(x_0)=\psi(x_0)$ bo'lsa u holda $q(x)=\psi(x), x\in I_r\cap I_s$

Lekin bu tasdiqdan zinhor $I_r=I_s$ ekani kelib chiqmaydi. Agar $I_r\supset I_s$ bo'lsa I_r da aniqlangan $y=\varphi(x)$ yechim $y=\psi(x)$ yechimning davomi deyiladi Bizni allbatta, davom ettirish mumkin bo'lmagan yechimlar qiziqtiradi. Bunday yechimlarni davomsiz yechimlar deyiladi.

Aniqrog'i, agar $y=\varphi(x)$ funksiya (1) tenglamaning I_r intervalda aniqlangan yechimi bo'lib, shu yechimning davomidan iborat bo'lgan hech qanday yechimi mavjud bo'lmasa, u holda $y=\varphi(x)$ yechim davomsiz yechim deyiladi.

2.3-ilova

Insert texnikasini qo‘llagan holda ish yuritish qoidalari

1. Matnni o‘qing.
2. Matn qatorlariga qalam bilan beligilar qo‘yib, olingan ma’lumotni tizimlashtiring:

V - ... haqida mavjud bo‘lgan bilimlar (ma’lumotlar) mos keladi
- (minus) - ... haqidagi mavjud bilimlarga e’tiroz bildiradi.
+ (plyus) - yangi ma’lumotlar hisoblanadi.
? - tushunarsiz / aniqlik / qo‘shimcha ma’lumot talab qiladi

B/Bx/Bo texnikasini qo‘llagan holda ish yuritish qoidalari

1. “Insert” texnikasidan foydalanib matnni o‘qing.
2. Olingan ma’lumotlarni tizimlashtiring – matnga qo‘yilgan belgilar asosida tablitsa qatorlarini to‘ldirib chiqing.

B/Bx/Bo (Bilaman / Bilishni xoxlayman / Bilib oldim)

№	Mavzu savollari	Bilaman (Q)	Bilishni xoxlayman (?)	Bilib oldim
1	Koshi masalasining qo’yilishini ayting?			
2	Lipshis shartini aytinig?			
3	Hosilaga nisbatan yechilgan birinchi tartibli differensial tenglamani ko’rinishini yozimg?			
4	Davomsiz yechimlar deb qanday yechimlarga aytiladi?			

2.4-ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo‘lmog‘i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog‘i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo‘yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.

4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchra-masligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o‘qituvchi ularga yo‘riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo‘lganda ham muloqotda bo‘ling, o‘z fikringizni erkin namoyon eting.

2.5-ilova

"Hosilaga nisbatan yechilgan birinchi tartibli differensial tenglama yechimini mavjudlik va yagonalik teoremasi" mavzusi bo‘yicha mustaqil ish uchun savollar

Mustaqi ish uchun savollar

1.Peano teoremasini ayting?
2.Koshi-Pikar-Lendelef teoremasini ayting?
3..Koshi teoremasini ayting?
4. Lipshis o’zgarmasini yozing?
5. Davomsiz yechimlar deb qanday yechimlarga aytiladi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

Асосий ва қўшимча ўқув адабиётлари ҳамда ахборот манбаалари

Асосий адабиётлар

1. **Morris Tenebout, Harry Pollard. Ordinary Differential Equations. Birkhhauzer. Germany, 2010.**
2. **Robinson J.C. An Introduction to Ordinary Differential Equations. Cambridge University Press 2013.**
3. **Степанов В.В. Курс дифференциальных уравнений.М. КомКнига/ URSS 2006.-472с.**
4. **Эльсгольц Л.Е. Дифференциальные уравнения ивариационноеисчиление.М. КомКнига/ URSS 2006.-312с**
5. Филиппов А.Ф. Сборник задач по дифференциальным уравнениям. М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Қўшимча адабиётлар

6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ, Тошкент, 2016. 56-б.
7. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилганмажлисидаги маъруза,2017 йил 14 январъ –Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 104-б.
8. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабрь- Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 48-б.
9. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Мазкур китобдан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 1 ноябрдан 24 ноябрга қадар Қорақалпоғистон Республикаси,вилоятлар ва Тошкент шахри сайловчилари вакиллари билан ўтказилган сайловолди учрашувларида сўзлаган нутқлари ўрин олган.-Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 488-б.
10. **Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н. Оддий дифференциал тенгламалар. Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.**
11. Бибиков Ю.Н. Курс обыкновенных дифференциальных уравнений. М., 1991. 314 с.
12. Петровский И.Г. Лекции по теории обыкновенных дифференциальных уравнений. М.: изд-во Моск. Ун-та. 1984.
13. Демидович Б.П. Лекции по математической теории устойчивости. М.: Наука, 1987.

14. Федорюк М.В. Обыкновенные дифференциальные уравнения. М.: Наука.1980.
15. Самойленко А.М. и др. дифференциальные уравнения. М., 1989. 384 с.
16. Амелькин В.В. Дифференциальное уравнение в приложениях. М.: Наука. 1987.
17.Қаландаров А.Д., Меражова Ш.Б. Дифференциал тенгламалардан масалалар тўплами. Бухоро. “Дурдона”, 2013

Интернет сайтлари

18. www.lib.homelinex.org/math
19. www.eknigu.com/lib/Mathematics/
20. www.eknigu.com/info/M_Mathematics/MC

3-Ma’ruza mashg’ulot.

1. “O`zgaruvchilari ajraladigan va unga keltriladigan birinchi tartibli differensial tenglamalar” ma’ruza mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi modeli

3-ma’ruza	**O`zgaruvchilari ajraladigan va unga keltriladigan birinchi tartibli differensial tenglamalar.**
Vaqt-2 soat	Talabalar soni: 50nafardan oshmasligi kerak
O'quv mashg'uloti shakli	ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o’rganish
Mashg'ulot rejasi	1. O’zgaruvchilarga ajralgan differensial tenglamalar. 2.O’zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglama. 3.O’zgaruvchilari ajraladigan tenglamaga keltiraladigan tenglamalar.
Asosiy tushuncha va atamalar	O’zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglama, O’zgaruvchilari ajraladigan tenglamaga keltiraladigan tenglamalar.
Amaliy mashg'ulotining maqsadi	O’quv fani to’g’risida umumiy ta’surotlar berish, Oddiy differensial tenglamalari va uni keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
1.O’rgatuvchi: Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik fikrlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; *2.Rivojlantiruvchi*: Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo’llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish; *3.Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga	1.Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; 2.Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini o’rganildi; talabalarning ijodiy mahoratini shakillandi; 3.*Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o’rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik

rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.	tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individualishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirishlar o'rganildi.
Ta'lim usuli va texnikasi	instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
Ta'lim shakli	frontal; jamoaviy;
Ta'lim vositalari	Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
	mashg'ulot bo'yicha o'quv materiallari, proektor, axborot texnologiylari vositalari.
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shaklda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Manitoring va baholash	Og'zaki so'rov, kuzatish.

2. "O`zgaruvchilari ajraladigan va unga keltriladigan birinchi tartibli differensial tenglamalar" ma'ruza texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzuning nomi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiriladi. 1.2.Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi(3.1-ilova). 1.3.Talabalarning darsga tayyorgarlik darajasini aniqlash, bilimlarini faollashtirish maqsadida tezkor-savollar o'tkaziladi: 1)O'zgaruvchilari ajralgan differensial tenglamaning sodda ko'rinishlari qanday ko'rinishda bo'ladi? 2)O'zgaruvchilari ajraladigan tenglamaga keltiriladigan differensial tenglamaning umumiy ko'rinishi qanday bo'ladi? Mavzu, mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishi e'lon qilinadi.	Tinglaydilar. yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2- Asosiy bosqich.(55-daqiqa)	2.1.Talabalarni4 ta o'quv guruhiga bo'linadi. Mavzu bo'yicha tarqatma material btriladi(3.2-ilova). Guruhlarda o'quv vazifasini bajarish bo'yicha ishni tashkil qiladi. Har bir guruh o'z vazifalarini oladi(3.3-ilova). O'quv faoliyti natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhlarda ish boshlanganligini malum qiladi.Vazifani bajarishda o'quv materiallaridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Talabalarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar berish mumkin: 1. Hozirgi zamon talablari nimalardan iborat deb bilasiz? 2.Zamon talablarini bajarishda kadrlarning malakasi qanday bo'lishi kerak? 3.Axborot texnologiyalarini qo'llashni bilish, nimalarni taqoza etadi?	Tinglaydilar; Guruhlarda ishlaydilar, Savollarga javob izlaydilar. Tinglaydilar; o'qiydilar; guruhlarda ishlaydilar, asoaiylarni yozadilar. Tinglaydilar; savollar beradilar. Talabalar berilgan

	4.Differensial tenglamalar fani va uning insoniyat tarixidagi roli hamda uning rivoji nimalardan iborat deb bilasiz? 5. O'zgaruvchilari ajraladigandifferensial tenglamaning sodda ko'rinishi qanday bo'ladi? 6.O'zgaruvchilari ajraladigan tenglamaga keltiriladigan tenglamaning umumiy ko'rinishi qanday bo'ladi? 7.O'zgaruvchilari ajraladigan tenglamaga keltirish uchun qanday almashtirishlar olinadi? 2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Taqdimot vaqtida javoblarga izoh beradi, to'gri e'chimlarga e'tibor beradi, xatolarni ko'rsatadi. Talabalar bilan birgalikda javoblar to'g'riligini baholaydi, savollarga javob beradi. 2.4. Guruhlar bajargan ishlari bo'yicha o'z-o'zini baholaydilar va tekshiradilar. 2.5. Javoblarni to'ldiradi va qisqacha xulosalar qiladi.	savollarga javob beradilar; misol va masalalarni daftarda echadilar. Guruh liderlari topshiriqlar javoblarini aytadilar. Liderlar o'z guruhlarida baholash o'tkazadilar. Tinglaydilar.
3- bosqich, yakuniy(15 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2.Mashg'ulotda maqsadga erishishdagi, talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi(3.3-3.4ilovalar). 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi(3.5-ilova) va uning baholash mezonlari aytiladi.	Savol beradilar. Tinglaydilar; muhokamada qatnashadilar. Topshiriqlarni yozadilar.

3.1-ilova

Har bir mashg'ulot 0,5 balldan 2 ballgacha baholanadi. Ekspert guruxlarning ish natijalarini baholovchi me'zonlari

Me'zonlar	Ball	%	Gurux natijalari bahosi			
			1	2	3	4
Axborotning to'liqligi	1,0	50				
Masala yechimining boshqacha usuli, illyustratsiyasi(grafik tarzda taqdim etish, ayrim hisoblashlarni aniq ko'rsatish va h.k.)	0,6	30				
Gurux faolligi (qo'shimcha, berilgan savol, javoblarning soni)	0,4	20				
JAMI	2	100				

86-100% / a'lo"
71-85% / - "yaxshi"
55-70% / - "qoniqarli"
0-54%-- "qoniqarsiz"

3.2.-ilova

"O`zgaruvchilari ajraladigan va unga keltriladigan birinchi tartibli differensial tenglamalar"_mavzusi bo'yicha tarqatma material

O'zgaruvchilarga ajralgan tenglamaning oddiy ko'rinishidan biri

$$\frac{dy}{dx} = f(x) \qquad dy = f(x)dx \qquad (1)$$

Bunda $f(x)$ $[a,b]$ da aniqlangan bo'lib, $a < x < b$ ichki nuqtalarida uzluksizdir.
Aniqmas integrallar nazariyasidan ma'lumki

$$y = \int f(x)dx + c \qquad (2)$$

ya'ni (1) tenglamaning umumiy yechimi topiladi. (2) formulani boshqacha ham yozish mumkin.

$$y = \int_{x0}^{x} f(t)dt + c \qquad a < x_0 < b$$

$x = x_0$ desak $y(x_0) = c$, $c = y_0$ bo'lsa

$$y = y_0 + \int_{x0}^{x} f(t)dt \qquad (3)$$

Ko'rilayotgan sohaning har-bir (x_0, y_0) nuqtasidan faqat bitta integral chizig'i o'tadi.
c nuqta (a,b) oralig'ida bo'lib, $x \to c$ da $f(x) \to +\infty$ intilsin.
Yo'nalish maydoni $x = c$ to'g'ri chiziqqa yaqinlashgan sari u tobora tik bo'la boshlaydi.

$x \to c - 0$ bo'lganda $\int_{x0}^{x} f(t)dt$ integral yaqinlashuvchi bo'lsin. U holda x simiz $c - 0$ga intilganda integral chiziq $x = c$ da aniq bir qiymatini oladi.

$$\lim_{x \to c-0} y = y_0 + \lim_{x \to c-0} \int_{x0}^{x} fl(t)dt = y_0 + N = M$$

endi $\int_{x0}^{x} f(t)dt \qquad a < x < c \qquad (4)$

va

$\int_{x0}^{x} f(t)dt \qquad c < x < b \qquad (5)$

integrallarini qaraymiz.
(4) va (5) integrallar yaqinlashuvchi bo'lsa, boshqacha aytganda $x \to c - 0$ da (4) integral yaqinlashuvchi bo'lsa, u holda $x \to c + 0$ da (5) integral ham yaqinlashuvchi bo'ladi. $(x \to c \quad f \to +\infty)$ x=c to'g'ri chiziq ham integral chiziq bo'ladi. Agar (4) va (5) integrallar uzoqlashuvchi bo'lsa $(x \to c, f(x) \to +\infty)$



Integral chiziqlar $x = c$to'gri chizig'iga asimptotik ravishda yaqinlashadi.
Bu holda $a < x < c$ va $c < x < b$ polosalarning har-bir nuqtasidan bitta faqat bitta integral chiziqo'tadi.

Agar (4) va (5) integrallar $x \to c \pm 0$ da yaqinlashuvchibo'lib,

$f(x) \to +\infty,$ $\qquad$ $f(x) \to -\infty$

$x \to c + o$ $\qquad$ $x \to c - 0$

bo'lsa, integral chiziqlarni joylanishi (sxematikik tasviri) quyidagicha bo'ladi. $x = c$to'gri chiziqning ixtiyoriy A nuqtasidan cheksiz ko'p integral chiziqlar o'tadi. $a < x < c$ va $c < x < b$ polosalalarning har-bir ichki nuqtasidan faqat bitta integral chiziqo'tadi. Qolgan hollarni ham tekshirib ko'rish mumkin.
O'zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglamalardan biri

$$\frac{dy}{dx} = f(y) \qquad (6)$$

ko'rinishda bo'lib, bunda $f(y)$, kurilayotgan oraliqda uzluksiz bo'lib, $f(y) \neq 0$ (6) dan

$$\frac{dy}{f(y)} = dx \Rightarrow \quad x + c = \int \frac{dy}{f(y)}$$ bu (6) tenglamaning

umumiy integralidir.

1-Misol $\frac{dy}{dx} = y\ell ny \qquad y \neq 0 \qquad \frac{dy}{y\ell ny} = dx$

$$\frac{d\ell ny}{\ell ny} = dx \qquad x + c = \ell n\ell ny$$

$\frac{dy}{dx} = f(x,y)$ tenglamani

$$M(x,y)dx + N(x,y)dy = 0 \qquad (7)$$

Ko'rinishga keltirish mumkin. Faraz etaylik

$M(x,y) = M_1(x)N_1(y)$ va $N(x,y) = M_2(x)N_2(y)$

ko'rinishda bo'lsin.

U holda O'zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglamaning umumiy ko'rinishi

$$M_1(x)N_1(y)dx + M_2(x)N_2(y)dy = 0 \qquad (8)$$

bo'ladi. Bunda $M_1(x)N_1(y) \neq 0$ u holda $\frac{M_1(x)}{M_2(x)}dx + \frac{N_2(y)}{N_1(y)}dy = 0$

ga ega bo'lamiz.Bundan

$$\int \frac{M_1(x)}{M_2(x)}dx + \int \frac{N_2(y)}{N_1(y)}dy = c$$

(8) tenglamaning umumiy integraliga ega bo'lamiz.

2-Misol $(x^2-1)y'+2xy^2=0 \qquad (x^2-1)dy+2xy^2dx=0$

$$\frac{dy}{y^2}+\frac{2x}{x^2-1}dx=0 \qquad -\frac{1}{y}+\ell n\left|x^2-1\right|+c=0 \qquad y(\ell n\left|x^2-1\right|+c)=1 \qquad y=0$$

$$y'=f(ax+bx+y) \qquad \textbf{(9)}$$

ko'rinishdagi differensial tenglamalarni ham almashtirish yordamida O'zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglamaga keltirish mumkin.Buning uchun

$$ax+by+c=z \qquad (10)$$

almashtirishni olamiz.

U holda $\quad a+by'=z' \qquad y'=\frac{1}{6}(z'-a) \qquad \frac{1}{b}(z'-0)=f(z)$

yoki $z'=bf(z)+a$

bu esa o'zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglamadir.

$$\frac{dz}{bf(z)+a}=dx \qquad x+c=\int\frac{dr}{bf(z)+a}$$

3-Misol $y'=\sqrt[3]{2x-y}+2$ tenglamaning yeching

$$2x-y=z^3$$

$$2-y'=3z^2z' \qquad y'=2-3z^2z' \qquad 2-3z^2z'=z+2 \qquad z+3z^2z'=0 \qquad z(1+3zz')=0$$

$$z=0 \qquad y=2x \qquad 1+3zz'=0 \qquad 3zz'=-1 \qquad \frac{3}{2}z^2=\frac{c}{2}-x \qquad 3z^2=c-2x$$

kubga ko'tarsak

$$27+z^6=(c-2x)^3 \qquad 27(2x-y)^2=(c-2x)^3$$

3.3-ilova

Insert texnikasini qo'llagan holda ish yuritish qoidalari

1. Matnni o'qing.
2. Matn qatorlariga qalam bilan beligilar qo'yib, olingan ma'lumotni tizimlashtiring:

V - ... haqida mavjud bo'lgan bilimlar (ma'lumotlar) mos keladi
- (minus) - ... haqidagi mavjud bilimlarga e'tiroz bildiradi.
+ (plyus) - yangi ma'lumotlar hisoblanadi.
? - tushunarsiz / aniqlik / qo'shimcha ma'lumot talab qiladi

B/Bx/Bo texnikasini qo'llagan holda ish yuritish qoidalari

1. "Insert" texnikasidan foydalanib matnni o'qing.
2. Olingan ma'lumotlarni tizimlashtiring – matnga qo'yilgan belgilar asosida tablitsa qatorlarini to'ldirib chiqing.

B/Bx/Bo (Bilaman / Bilishni xoxlayman / Bilib oldim)

№	Mavzu savollari	Bilaman (Q)	Bilishni xoxlayman (?)	Bilib oldim
1	O'zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglamaning sodda ko'rinishlari qanday ko'rinishda bo'ladi?			
2	O'zgaruvchilari ajraladigan tenglamaning umumiy integralini yozing?			

3	O’zgaruvchilari ajraladigan tenglamaga keltiriladigan tenglama-ning umumiy ko’rinishiqanday bo’ladi?			
4	O’zgaruvchilari ajraladigan tenglamaga misollar keltiring?			

3.4-ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo‘lmog‘i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog‘i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo‘yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4.Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchra-masligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o‘qituvchi ularga yo‘riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo‘lganda ham muloqotda bo‘ling, o‘z fikringizni erkin namoyon eting.

3.5-ilova

"O`zgaruvchilari ajraladigan va unga keltriladigan birinchi tartibli differensial tenglamalar" mavzusi bo‘yicha mustaqil ish uchun savollar

Mustaqi ish uchun savollar

Differensial tenglamalarni yeching

1. $\cos^2 y dx - \left(x^2+1\right)dy = 0$
2. $\left(1+x^3\right)y' = 3x^2 y, \quad y\left(0\right)=2$
3. $y' = \sqrt[3]{2x-y}+2$
4. $dx - xdy = 2ydy, \quad y\left(0\right) = -1$
5. $x\sqrt{1+y^2} + yy'\sqrt{1+x^2} = 0$
6. $tg\, x \sin^2 y\, dx + \cos^2 x\, ctg\, y\, dy = 0$
7. $4xdx - 3ydy = 3x^2 ydy - 2xy^2 dx$
8. $y' = \sin^2 x$
9. $\dfrac{dy}{dx} = \dfrac{e^{-y^2}}{y} x$ сон $x,\ y > 0$
10. $z' = 2^{x+z}, \quad z\left(0\right) = -1$
11. $y' + 1 = \sqrt{x+y}$
12. $y' = \cos\left(y-x\right)$

Tavsiya etilgan adabiyotlar

Асосий ва қўшимча ўқув адабиётлари ҳамда ахборот манбаалари

Асосий адабиётлар

1. **Morris Tenebout, Harry Pollard. Ordinary Differential Equations. Birkhhauzer. Germany, 2010.**
2. **Robinson J.C. An Introduction to Ordinary Differential Equations. Cambridge University Press 2013.**
3. **Степанов В.В. Курс дифференциальных уравнений.М. КомКнига/ URSS 2006.-472с.**
4. **Эльсгольц Л.Е. Дифференциальные уравнения ивариационноеисчиление.М. КомКнига/ URSS 2006.-312с**
5. Филиппов А.Ф. Сборник задач по дифференциальным уравнениям. М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Қўшимча адабиётлар

6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ, Тошкент, 2016. 56-б.

7. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилганмажлисидаги маъруза,2017 йил 14 январъ –Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 104-б.
8. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабрь- Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 48-б.
9. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Мазкур китобдан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 1 ноябрдан 24 ноябрга қадар Қорақалпоғистон Республикаси,вилоятлар ва Тошкент шахри сайловчилари вакиллари билан ўтказилган сайловолди учрашувларида сўзлаган нутқлари ўрин олган.-Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 488-б.
10. **Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н. Оддий дифференциал тенгламалар. Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.**
11. Бибиков Ю.Н. Курс обыкновенных дифференциальных уравнений. М., 1991. 314 с.
12. Петровский И.Г. Лекции по теории обыкновенных дифференциальных уравнений. М.: изд-во Моск. Ун-та. 1984.
13. Демидович Б.П. Лекции по математической теории устойчивости. М.: Наука, 1987.
14. Федорюк М.В. Обыкновенные дифференциальные уравнения. М.: Наука.1980.
15. Самойленко А.М. и др. дифференциальные уравнения. М., 1989. 384 с.
16. Амелькин В.В. Дифференциальное уравнение в приложениях. М.: Наука. 1987.
17. Қаландаров А.Д., Меражова Ш.Б. Дифференциал тенгламалардан масалалар тўплами. Бухоро. “Дурдона”, 2013

Интернет сайтлари

18. www.lib.homelinex.org/math
19. www.eknigu.com/lib/Mathematics/
20. www.eknigu.com/info/M_Mathematics/MC

4-Ma’ruza mashg’ulot.

1. “Bir jinsli va bir jinsliga keltriladigan birinchi tartibli differensial tenglamalar” ma’ruza mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi modeli

4- ma’ruza	**Bir jinsli va bir jinsliga keltriladigan birinchi tartibli differensial tenglamalar.**
Vaqt-2 soat	Talabalar soni: 50nafardan oshmasligi kerak
O'quv mashg'uloti shakli	ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o’rganish
Mashg'ulot rejasi	1.Bir jinsli differensial tenglamalar. 2.Bir jinsliga keltiraladigan differensial tenglamalar.
Asosiy tushuncha va atamalar	Bir jinsli tenglama; bir jinsliga keltiraladigan tenglamalar.
Amaliy mashg'ulotining maqsadi	O’quv fani to’g’risida umumiy ta’surotlar berish, Oddiy differensial tenglamalari va uni keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
1.O’rgatuvchi: Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik fikrlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish;	1.Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning

matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning husQusiyatlari bilan tanishtirish; *2.Rivojlantiruvchi*: Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo’llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish; *3.Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o’rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.	hususiyatlari bilan tanishtirish; 2.Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini o’rganildi; talabalarning ijodiy mahoratini shakillandi; 3.*Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o’rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individualishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirishlar o’rganildi.
Ta'lim usuli va texnikasi	instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, “Insert” texnikasi;
Ta'lim shakli	frontal; jamoaviy;
Ta'lim vositalari	Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
	mashg'ulot bo'yicha o'quv materiallari, proektor, axborot texnologiylari vositalari.
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shaklda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Manitoring va baholash	Og'zaki so'rov, kuzatish.

2. " Bir jinsli va bir jinsliga keltriladigan birinchi tartibli differensial tenglamalar" ma’ruza texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. Mavzuning nomi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiriladi. 1.2. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi(4.1-ilova). 1.3. Talabalarning darsga tayyorgarlik darajasini aniqlash, bilimlarini faollashtirish maqsadida tezkor-savollar o'tkaziladi: 1)Bir jinsli tenglama deb qanday tenglamaga aytiladi? 2) m o’lchovli bir jinsli tenglama deb, qanday tenglamaga aytiladi? Mavzu, mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishi e'lon qilinadi.	Tinglaydilar. yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2- Asosiy bosqich.(55-daqiqa)	2.1.Talabalarni 4 ta o'quv guruhiga bo'linadi. Mavzu bo'yicha tarqatma material btriladi(4.2-ilova). Guruhlarda o'quv vazifasini bajarish bo'yicha ishni	Tinglaydilar; Guruhlarda ishlaydilar,

	tashkil qiladi. Har bir guruh o'z vazifalarini oladi(4.3-ilova). O'quv faoliyti natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhlarda ish boshlanganligini malum qiladi.Vazifani bajarishda o'quv materiallaridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Talabalarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar berish mumkin: 1. Hozirgi zamon talablari nimalardan iborat deb bilasiz? 2.Zamon talablarini bajarishda kadrlarning malakasi qanday bo'lishi kerak? 3.Axborot texnologiyalarini qo'llashni bilish, nimalarni taqoza etadi? 4.Bir jinsli tenglamani yechimini topishda qanday almashtirish olinadi? 5. Bir jinsli tenglamani yechimini topishda qanday turdagi tenglamaga keltiriladi? 6. Bir jinsli tenglamaga keltiriladigan tenglamani O’zgaruvchilari ajraladigan tenglamaga keltirish uchun qanday almashtirishlar olinadi? 2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Taqdimot vaqtida javoblarga izoh beradi, to'gri e'chimlarga e'tibor beradi, xatolarni ko'rsatadi. Talabalar bilan birgalikda javoblar to'g'riligini baholaydi, savollarga javob beradi. 2.4. Guruhlar bajargan ishlari bo'yicha o'z-o'zini baholaydilar va tekshiradilar. 2.5. Javoblarni to'ldiradi va qisqacha xulosalar qiladi.	Savollarga javob izlaydilar. Tinglaydilar; o'qiydilar; guruhlarda ishlaydilar, asoaiylarni yozadilar. Tinglaydilar; savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar; misol va masalalarni daftarda echadilar. Guruh liderlari topshiriqlar javoblarini aytadilar. Liderlar o'z guruhlarida baholash o'tkazadilar. Tinglaydilar.
3- bosqich, yakuniy(15 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2.Mashg'ulotda maqsadga erishishdagi, talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi(4.3-4.4ilovalar). 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi(4.5-ilova) va uning baholash mezonlari aytiladi.	Savol beradilar. Tinglaydilar; muhokamada qatnashadilar. Topshiriqlarni yozadilar.

4.1-ilova

Har bir mashg'ulot 0,5 balldan 2 ballgacha baholanadi. Ekspert guruxlarning ish natijalarini baholovchi me'zonlari

Me'zonlar	Ball	%	Gurux natijalari bahosi			
			1	2	3	4
Axborotning to'liqligi	1,0	50				
Masala yechimining boshqacha usuli, illyustratsiyasi(grafik tarzda taqdim etish, ayrim hisoblashlarni aniq ko'rsatish va h.k.)	0,6	30				
Gurux faolligi (qo'shimcha, berilgan	0,4	20				

savol, javoblarning soni)						
JAMI	2	100				

86-100% / a'lo"
71-85% / - "yaxshi"
55-70% / - "qoniqarli"
0-54%-- "qoniqarsiz".

4.2.-ilova

“Bir jinsli va bir jinsliga keltriladigan birinchi tartibli differensial tenglamalar” mavzusi bo‘yicha tarqatma material

Birinchi tartibli bir jinsli differensial tenglamalar

Ta’rif. $t>0$ ning har qanday qiymatida $f(tx,ty)\equiv t^m f(x,y)$ ayniyat bajarilsa, $f(x,y)$ funksiya, x, y o’zgaruvchilarga nisbatan m- o’lchovli bir jinsli funksiya deyiladi.

Masalan $f(x,y)=\frac{x^2+y^2}{2xy}$ funksiya 0 o’lchovli bir jinsli funksiyadir.

Haqiqatan ham $f(tx,ty)=\frac{(tx)^2+(ty)^2}{2(tx)(ty)}=\frac{t^2(x^2+y^2)}{2t^2xy}=\frac{x^2+y^2}{2xy}=f(x,y)$

Faraz etaylik hosilaga nisbatan yechilgan birinchi tartibli differensial tenglama

$$\frac{dy}{dx}=f(x,y) \qquad (1)$$

berilgan bo’lib, bunda $f(x,y)$, x, y o’zgaruvchilarga nisbatan 0 o’lchovli bir jinsli funkiya bo’lsa, bunday tenglamaga bir jinsli tenglama deyiladi.

Farazimiz bo’yicha. $f(tx,ty)\equiv f(x,y)$ bunda $t=\frac{1}{x}$ deb olsak

$$f(tx,ty)=f\left(\frac{1}{x}x,\frac{1}{x}y\right)=f\left(1,\frac{y}{x}\right)=\varphi\left(\frac{z}{x}\right)$$

bo’ladi. U holda (1) tenglamani

$$\frac{dy}{dx}=\varphi\left(\frac{y}{x}\right) \qquad (2)$$

ko’rinishda yozish mumkin. (2) tenglamada

$$\frac{y}{x}=z \qquad y=xz \qquad (3)$$

almashtirishni olsak, u O’zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglamaga aylanadi. (3) dan $y'=z+xz'$ bunga asosan (2) tenglamani quyidagicha yozish mumkin. $z+xz'=\varphi(z)$ bundan

$$xz'=(\varphi(z)-z) \qquad (4)$$

Bu esa o’zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglamadir.
Bunda 2 xol bo’lishi mumkin.
1 xol $\varphi(z)-z\neq 0$

bu holda (4) dan $\frac{dz}{\varphi(z)-z}=\frac{dx}{x}$ $\ell nx+\ell nc=\int\frac{dz}{\varphi(z)-z}$

integrallab bo’lgach (3) dan z qiymatini keltirib qo’ysak, (1) tenglamaning umumiy integraliga ega bo’lamiz.

2 xol $\varphi(z)-z=0$ $\varphi(z)=z$ $\varphi\left(\frac{y}{x}\right)=\frac{y}{x}$

Bunga asosan (2) tenglama $\frac{dy}{dx}=\frac{y}{x}$ ko'rinishga keladi.

Bundan $\ell n|y|=\ell n|x|+\ell nc$ $y=cx$

bu holda tenglamaning umumiy yechimi koordinata boshidan o'tuvchi tug'ri chiziqlar oilasidan iborat bo'ladi.

Eslatma $\varphi(z)-z=0$ tenglama $z=z_s$ $(s=1,2,....,n)$ yechimlarga ega bo'lishi mumkin bu xol $y=z_s x$ ning har-biri tenglamaning integral chizig'i bo'ladi.

1-Misol $(y^2-2xy)dx+x^2dy=0$

$y=xz;\quad dy=xdz+zdx$

$(x^2z^2-2x\cdot xz)dx+x^2(xdz+zdx)=0$

$(z^2-z)dx+xdz=0$ $\frac{dx}{x}+\frac{dz}{z(z-1)}=0$

$\frac{dx}{x}+\left(\frac{1}{z-1}-\frac{1}{z}\right)dz=0$ $\ell n|x|+\ell n|z-1|-\ell n|z|=\ell nc$

$\frac{x(z-1)}{z}=c$ $x(z-1)=cz$ $x\left(\frac{y}{x}-1\right)=c\frac{y}{x}$ $x|y-x|=cy$

$z(z-1)=0$ $z=0$ $y=0$

$z=1$ $y=x$

Bular ham tenglamaning yechimlari bo'ladi.

Bir jinsli tenglamaga keltiriladigan differensial tenglamalar

Bunday tenglamalarning umumiy ko'rinishi

$$\frac{dy}{dx}=f\left(\frac{ax+by+c}{a_1x+b_1y+c_1}\right) \qquad (1)$$

dan iborat. Bunda a,b,c,a_1,b_1,c_1 o'zgarmas sonlar bo'lib f ko'rilayotgan sohada uzluksiz funksiya. Bunda quyidagi xollarni qaraymiz.

1 xol. Agar $c=0, c_1$=0 bo'lsa, (1) tenglama bir jinsli tenglamaga aylanadi.

2 xol. Faraz etamiz c va c_1 lardan hech bo'lmaganda biri nolga teng bo'lmasin va

$$\Delta=\begin{vmatrix} a & b \\ a_1 & b_1 \end{vmatrix}\neq 0$$

bu holda
$$\begin{cases} x=u+\gamma \\ y=\vartheta+\beta \end{cases} \qquad (2)$$

almashtirishni olib (1) tenglamani bir jinsli tenglamaga keltirish mumkin. Bunda γ va β lar ixtiyoriy o'zgarmas sonlar bo'lib, u va ϑ yangi uzgaruvchilar (2) ga asosan (1) tenglama

$$\frac{d\vartheta}{du}=f\left(\frac{a(u+\gamma)+b(\vartheta+\beta)+c}{a_1(u+\gamma)+b_1(\vartheta+\beta)+c_1}\right)=f\left(\frac{au+b\vartheta+a\gamma+b\beta+c}{a_1u+b_1\vartheta+a_1\gamma+b_1\beta+c_1}\right) \qquad (3)$$

γ *ва* β ixtiyoriy o'zgarmas sonlar bo'lgani uchun, ularni shunday tanlab olamizki.

$$\begin{cases} a\gamma+b\beta+c=0 \\ a_1\gamma+b_1\beta+c_1=0 \end{cases} \qquad (4)$$

bajarilsin. Shartga asosan bu sisitemaning asos determinati $\Delta \neq 0$ bo'lgani uchun (4) sistemadan γ *ва* β lar bir qiymatli aniqlanadi (4) ga asosan (3) tenglamani

$$\frac{d\vartheta}{du} = f\left(\frac{au + b\vartheta}{a_1 u + b_1\vartheta}\right)$$

ko'rinishda yozish mumkin. Bu esa bir jinsli tenglamadir. Tenglama $\vartheta = uz$ almashtirish yordamida O'zgaruvchilari ajraladigan tenglamaga keladi.

3 xol $\Delta = \begin{vmatrix} a & b \\ a_1 & b_1 \end{vmatrix} = 0$ bo'lsin, Bundan $ab_1 - a_1 b = 0$ $\frac{a_1}{a} = \frac{b_1}{b} = \lambda$

$a_1 = a\lambda$ $b_1 = b\lambda$ (1) tenglama $\frac{dy}{dx} = f\left(\frac{ax + by + c}{\lambda(ax + by) + c_1}\right)$ ko'rinishga keladi.

Bu tenglama $z = ax + by$ almashtirish yordamida, O'zgaruvchilari ajraladigan tenglamaga keltiriladi. Haqiatdan ham

$z = ax + by$ $z' = a + by'$ $y' = \frac{1}{b}(z' - a)$ $\frac{1}{b}(z' - a) = f\left(\frac{z + c}{\lambda z + c_1}\right)$ bundan

$$\frac{dz}{bf\left(\frac{z + c}{\lambda z + c_1}\right) + a} = dx$$

2-Misol

$(y + 2)dx = (2x + y - 4)dy$ $\frac{dy}{dx} = \frac{y + 2}{2x + y - y}$ $\Delta = \begin{vmatrix} 0 & 1 \\ 2 & 1 \end{vmatrix} = -2 \neq 0$ $x = u + \alpha$

$y = \vartheta + \beta$

$\frac{d\vartheta}{du} = \frac{\vartheta + \beta + 2}{2u + \vartheta + 2\alpha + \beta - 4}$ $\begin{cases} \beta + 2 = 0 \\ 2\alpha + \beta - 4 = 0 \end{cases}$ $\begin{matrix} \beta = -2 \\ \alpha = 3 \end{matrix}$ $\frac{d\vartheta}{du} = \frac{\vartheta}{2u + \vartheta}$

$\vartheta = uz$ $\vartheta' = uz' + z$ $u\frac{dz}{du} + z = \frac{z}{2 + z}$ $u\frac{dz}{du} = \frac{z}{2 + z} - z = \frac{-z - z^2}{2 + z}$

$\frac{2 + z}{z(1 + z)dz} = -\frac{du}{u}$ $\left(\frac{2}{z} - \frac{1}{z + 1}\right)dz = -\frac{du}{u}$ $2\ell n|z| - \ell n|z + 1| = -\ell n|u| + \ell nc$

$\frac{z^2}{z + 1} = \frac{c}{u}$ $z = \frac{\vartheta}{u} = \frac{y + 2}{x - 3}$ $(y + 2)^2 = c(x + y - 1)$

Ba'zi hollarda berilgan differensial tenglamani $y = z^m$ almashtirish yordamida, tenglamani bir jinsli tenglama keltirish mumkin.

3 -Misol $2x^2 y' = y^3 + xy$ $y = z^m$ $y' = mz^{m-1}z'$ $2x^2 mz^{m-1}z' = z^{3m} + xz^m$

$2 + m - 1 = 3m = 1 + m$ $2m = 1$ $m = 1/2$

$x^2 z^1 = z^2 + xz$ bu bir jinsli tenglamadir.

$z = ux$ $xu' = u^2$ $cx = \ell^{-\frac{x}{y^2}}$

4.3-ilova

Insert texnikasini qo'llagan holda ish yuritish qoidalari

1. Matnni o'qing.

2. Matn qatorlariga qalam bilan beligilar qo‘yib, olingan ma’lumotni tizimlashtiring:
V - ... haqida mavjud bo‘lgan bilimlar (ma’lumotlar) mos keladi
- (minus) - ... haqidagi mavjud bilimlarga e’tiroz bildiradi.
+ (plyus) - yangi ma’lumotlar hisoblanadi.
? - tushunarsiz / aniqlik / qo‘shimcha ma’lumot talab qiladi

B/Bx/Bo texnikasini qo‘llagan holda ish yuritish qoidalari

1. “Insert” texnikasidan foydalanib matnni o‘qing.
2. Olingan ma’lumotlarni tizimlashtiring – matnga qo‘yilgan belgilar asosida tablitsa qatorlarini to‘ldirib chiqing.

B/Bx/Bo (Bilaman / Bilishni xoxlayman / Bilib oldim)

№	Mavzu savollari	Bilaman (Q)	Bilishni xoxlayman (?)	Bilib oldim
1	Bir jinsli tenglama deb, qanday tenglamaga aytiladi?			
2	Bir jinsli tenglamani yechish uchun qanday almashtirish olinadi?			
3	Bir jinsli tenglamaga keltiriladigan tenglamani umumiy ko’rinishi yozing?			
4	Bir jinsli tenglamaga keltiriladigan tenglamani O’zgaruvchilari ajraladigan tenglamaga keltirish uchun qanday almashtirishlar olinadi?			

4.4-ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo‘lmog‘i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog‘i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo‘yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4.Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchra-masligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o‘qituvchi ularga yo‘riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo‘lganda ham muloqotda bo‘ling, o‘z fikringizni erkin namoyon eting.

4.5-ilova

“Bir jinsli va bir jinsliga keltriladigan birinchi tartibli differensial tenglamalar” mavzusi bo‘yicha mustaqil ish uchun savollar

Mustaqi ish uchun savollar

Differensial tenglamalarni yeching

1. $y' = y^2/x^2 + 4y/x + 2$
2. $xy'\cos(y/x) = y\cos(y/x) - 1$
3. $y' = (x+y)/(x-y)$
4. $xy' = y(1+\ln(y/x))$
5. $xy' = \sqrt{x^2 - y^2} + y$
6. $(xy' - y)\ln(y/x) = y$
7. $2y' = y^2/x^2 + 6y/x + 3$
8. $xy' = y\ln(y/x)$

9. $xy' = \dfrac{3y^3 + 4yx^2}{2y^2 + 2x^2}$

10. $\left(x - y\cos\left(y/x\right)\right)dx + x\cos\left(y/x\right)dy = 0$

11. $y' = \dfrac{4y - 2x - 6}{x + y - 3}$

12. $y' = \dfrac{5y + 5}{4x + 3y - 1}$

13. $y' = \dfrac{x + y + 2}{x + 1}$

14. $y' = \dfrac{2x + y - 3}{2x - 2}$

1.3.6. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Асосий ва қўшимча ўқув адабиётлари ҳамда ахборот манбаалари

Асосий адабиётлар

1. **Morris Tenebout, Harry Pollard. Ordinary Differential Equations. Birkhhauzer. Germany, 2010.**
2. **Robinson J.C. An Introduction to Ordinary Differential Equations. Cambridge University Press 2013.**
3. **Степанов В.В. Курс дифференциальных уравнений.М. КомКнига/ URSS 2006.-472с.**
4. **Эльсгольц Л.Е. Дифференциальные уравнения ивариационноеисчиление.М. КомКнига/ URSS 2006.-312с**
5. Филиппов А.Ф. Сборник задач по дифференциальным уравнениям. М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Қўшимча адабиётлар

6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ, Тошкент, 2016. 56-б.
7. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилганмажлисидаги маъруза,2017 йил 14 январъ –Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 104-б.
8. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабрь- Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 48-б.
9. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Мазкур китобдан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 1 ноябрдан 24 ноябрга қадар Қорақалпоғистон Республикаси,вилоятлар ва Тошкент шахри сайловчилари вакиллари билан ўтказилган сайловолди учрашувларида сўзлаган нутқлари ўрин олган.-Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 488-б.
10. **Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н. Оддий дифференциал тенгламалар. Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.**
11. Бибиков Ю.Н. Курс обыкновенных дифференциальных уравнений. М., 1991. 314 с.
12. Петровский И.Г. Лекции по теории обыкновенных дифференциальных уравнений. М.: изд-во Моск. Ун-та. 1984.
13. Демидович Б.П. Лекции по математической теории устойчивости. М.: Наука, 1987.
14. Федорюк М.В. Обыкновенные дифференциальные уравнения. М.: Наука.1980.
15. Самойленко А.М. и др. дифференциальные уравнения. М., 1989. 384 с.
16. Амелькин В.В. Дифференциальное уравнение в приложениях. М.: Наука. 1987.

17. Қаландаров А.Д., Меражова Ш.Б. Дифференциал тенгламалардан масалалар тўплами. Бухоро. “Дурдона”, 2013

18. Интернет сайтлари

19. www.lib.homelinex.org/math
20. www.eknigu.com/lib/Mathematics/
21. www.eknigu.com/info/M_Mathematics/MC

5-Ma’ruza mashg’ulot.

1. “Birinchi tartibli chiziqli differensial tenglamalar va ularning xossalari” ma’ruza mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi modeli

5-ma’ruza	**Birinchi tartibli chiziqli differensial tenglamalar va ularning xossalari.**
Vaqt-2 soat	Talabalar soni: 50nafardan oshmasligi kerak
O'quv mashg'uloti shakli	ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o’rganish
Mashg'ulot rejasi	1. Birinchi tartibli chiziqli differensial tenglama. 2. Tenglamaning xossalari 3.Variasiyalash usuli. 4. Umumiy yechim formulasi.
Asosiy tushuncha va atamalar	Chiziqli tenglama, bir jinsli bo’lmagan tenglama, bir jinsli tenglama, variasiyasilash usuli, umumiy yechim, Eyler- Bernulli usuli
Amaliy mashg'ulotining maqsadi	O’quv fani to’g’risida umumiy ta’surotlar berish, Oddiy differensial tenglamalari va uni keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
1.O’rgatuvchi: Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik fikrlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; *2.Rivojlantiruvchi*: Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo’llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish; *3.Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o’rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik	1.Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; 2.Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini o’rganildi; talabalarning ijodiy mahoratini shakillandi; 3.*Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o’rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individualishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirishlar o’rganildi.

tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.	
Ta'lim usuli va texnikasi	instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, “Insert” texnikasi;
Ta'lim shakli	frontal; jamoaviy;
Ta'lim vositalari	Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
	mashg'ulot bo'yicha o'quv materiallari, proektor, axborot texnologiylari vositalari.
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shaklda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Manitoring va baholash	Og'zaki so'rov, kuzatish.

2. " Birinchi tartibli chiziqli differensial tenglamalar va ularning xossalari" ma’ruza texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. Mavzuning nomi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiriladi. 1.2. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi(5.1-ilova). 1.3. Talabalarning darsga tayyorgarlik darajasini aniqlash, bilimlarini faollashtirish maqsadida tezkor-savollar o'tkaziladi: 1)Birinchi tartibli chiziqli tenglama deb qanday tenglamaga aytiladi? 2) Birinchi tartibli chiziqli tenglamaning umumiy yechimi qanday topiladi? Mavzu, mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishi e'lon qilinadi.	Tinglaydilar. yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2- Asosiy bosqich.(55-daqiqa)	2.1.Talabalarni 4 ta o'quv guruhiga bo'linadi. Mavzu bo'yicha tarqatma material btriladi(5.2-ilova). Guruhlarda o'quv vazifasini bajarish bo'yicha ishni tashkil qiladi. Har bir guruh o'z vazifalarini oladi(5.3-ilova). O'quv faoliyti natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhlarda ish boshlanganligini malum qiladi.Vazifani bajarishda o'quv materiallaridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Talabalarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar berish mumkin: 1. Hozirgi zamon talablari nimalardan iborat deb bilasiz? 2.Zamon talablarini bajarishda kadrlarning malakasi qanday bo'lishi kerak? 3.Axborot texnologiyalarini qo'llashni bilish, nimalarni taqoza etadi? 4.Birinchi tartibli chiziqli tenglama deb qanday tenglamaga aytiladi? 5.Birinchi tartibli chiziqli tenglamaning umumiy yechimi qanday topiladi? 6.Tenglamaning bitta, ikkita xususiy yechimlari berilgan	Tinglaydilar; Guruhlarda ishlaydilar, Savollarga javob izlaydilar. Tinglaydilar; o'qiydilar; guruhlarda ishlaydilar, asoaiylarni yozadilar. Tinglaydilar; savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar; misol va masalalarni daftarda echadilar.

	bo’lsa, uning umumiy yechimi qanday topiladi? 7.Tenglamani yechish uchun Eyler-Bernulli usulida qanday almashtirish olinadi? 2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Taqdimot vaqtida javoblarga izoh beradi, to'gri e'chimlarga e'tibor beradi, xatolarni ko'rsatadi. Talabalar bilan birgalikda javoblar to'g'riligini baholaydi, savollarga javob beradi. 2.4. Guruhlar bajargan ishlari bo'yicha o'z-o'zini baholaydilar va tekshiradilar. 2.5. Javoblarni to'ldiradi va qisqacha xulosalar qiladi.	Guruh liderlari topshiriqlar javoblarini aytadilar. Liderlar o'z guruhlarida baholash o'tkazadilar. Tinglaydilar.
3- bosqich, yakuniy(15 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2.Mashg'ulotda maqsadga erishishdagi, talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi(5.3-5.4ilovalar). 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi(5.5-ilova) va uning baholash mezonlari aytiladi.	Savol beradilar. Tinglaydilar; muhokamada qatnashadilar. Topshiriqlarni yozadilar.

5.1-ilova

Har bir mashg'ulot 0,5 balldan 2 ballgacha baholanadi. Ekspert guruxlarning ish natijalarini baholovchi me'zonlari

Me'zonlar	**Ball**	**%**	**Gurux natijalari bahosi**			
			1	**2**	**3**	**4**
Axborotning to'liqligi	1,0	50				
Masala yechimining boshqacha usuli, illyustratsiyasi(grafik tarzda taqdim etish, ayrim hisoblashlarni aniq ko'rsatish va h.k.)	0,6	30				
Gurux faolligi (qo'shimcha, berilgan savol, javoblarning soni)	0,4	20				
JAMI	2	100				

86-100% / a'lo"
71-85% / - "yaxshi"
55-70% / - "qoniqarli"
0-54%-- "qoniqarsiz".

5.2.-ilova

" Birinchi tartibli chiziqli differensial tenglamalar va ularning xossalari" mavzusi bo‘yicha tarqatma material

Ta’rif. No’malum funksiya va uning hosilasi birinchi darajada bo’lgan birinchi tartibli differensial tenglamaga chiziqli differensial tenglama deyiladi.
Bunday tenglamaning umumiy ko’rinishi

$$A(x)y'+B(x)y+C(x)=0 \qquad (1)$$

dan iborat. Bunda $A(x)$, $B(x)$, $C(x)$ ko'rilayotgan oraliqda uzluksiz funksiyalardir. Agar ko'rilayotgan oraliqda x ning hamma qiymatlarida
$A(x) \neq 0$ bo'lmasa, (1) tenglamani

$$y' + p(x)y = Q(x) \qquad (2)$$

Ko'rinishga keltirish mumkin.

Bunda $$p(x) = \frac{B(x)}{A(x)}, \qquad Q(x) = -\frac{C(x)}{A(x)}$$

(2) tenglamaga bir jinsli bo'lamagan chiziqli differensial tenglama deyiladi.

Agar (2) da $Q(x) = 0$ bo'lsa

$$y' + p(x)y = 0 \qquad (3)$$

tenglamaga bir jinsli chiziqli differensial tenglama deyiladi. ((2) tenglamaga mos bo'lgan).

(3) tenglama O'zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglamadir.

$$\frac{dy}{y} = -p(x)dx \qquad \ell n|y| = -\int p(x)dx + \ell nc \qquad y = c\ell^{-\int p(x)dx} \qquad (4)$$

c ning o'zgarmas qiymatlarida (4), (3) tenglamani qanoatlantiradi. Ya'ni (3) tenglamaning umumiy yechimi bo'ladi. (2) tenglamaning ham umumiy yechimini c ni x ning funksiyasi deb, (4) ko'rinishda izlaymiz.

U holda (4) dan

$$y' = c'(x)\ell^{-\int p(x)dx} - c(x)p(x)\ell^{-\int p(x)dx} \qquad (5)$$

(4) va (5) ga asosan (2) tenglama

$$c'(x)\ell^{-\int p(x)dx} - c(x)p(x)\ell^{-\int p(x)dx} + c(x)p(x)\ell^{-\int p(x)dx} = Q(x)$$

$$c'(x)\ell^{-\int p(x)dx} = Q(x) \qquad c'(x) = \ell^{\int p(x)dx}Q(x)$$

Bundan

$$c(x) = \int \ell^{\int p(x)dx}Q(x)dx + c_1 \qquad (6)$$

U holda (4) va (6) ga asosan (2) ning umumiy yechimi

$$y = \ell^{-\int p(x)dx}\left[\int \ell^{\int p(x)dx}Q(x)dx + c_1\right] \qquad (7)$$

bo'ladi.

Bu bir jinsli bo'lmagan chiziqli tenglamaning umumiy yechimini topish formulasi.

(7) dan ko'rinadikim chiziqli differensial tenglamaning umumiy yechimi, ikkita kvadratura bilan aniqlanadi.

Chiziqli differensial tenglamaning umumiy yechimini bunday usul bilan topishga, o'zgarmaslarni variasiyalash usuli yoki Lagranj usuli deyiladi.

Bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamaning umumiy yechimini ikkita yechimlar yig'indisidan iboratdir.

Ulardan biri $c_1\ell^{-\int p(x)dx}$, bir jinsli (3) tenglamaning umumiy yechimidan, ikkinchisi esa, (2) tenglamaning xususiy

$$\ell^{-\int з(ч)вч}\left[\int \ell^{\int p(x)dx}Q(x)dx\right]$$

yechimdan iboratdir.

(7) ni integrallab bo'lgach u quyidagi ko'rinishga keladi.

$$y = c\varphi(x) + \psi(x) \qquad c = const$$

Bundan ko'rinadikim chiziqli differensial tenglamaning umumiy yechimi ixtiyoriy o'zgarmasga nisbatan chiziqli funksiyadan iboratdir.

(2) tenglamaning umumiy yechimini Eyler-Bernulli usulidan foydalanib topish ham mumkin.

(2) tenglamada

$$y = u\vartheta \qquad (8)$$

almashtirishni olamiz. Bunda u va ϑ lar ixtiyoriy uzluksiz differensiallanuvchi funksiyalardir.

$$y' = u'\vartheta + u\vartheta'$$

$$u'\vartheta + u\vartheta' + p(x)u\vartheta = Q(x) \qquad (9)$$

$$u\vartheta' + (u' + p(x)u)\vartheta = Q(x) \qquad (10)$$

$u(x)$ funksiya ixtiyoriy bo'lgani uchun, uni shunday tanlab olamizkim

$$u' + p(x)u = 0$$

sharti bajarilsin.

Bundan $$\frac{du}{u} = -p(x)dx$$

$$\ell n|u| = -\int p(x)dx \qquad u = \ell^{-\int p(x)dx} \qquad (11)$$

(11) ni (10) ga olib borib qo'ysak

$$\ell^{-\int p(x)dx}\vartheta' = Q(x) \qquad \vartheta' = \ell^{\int p(x)dx}Q(x) \qquad \vartheta = \int \ell^{\int p(x)dx}Q(x)dx + c \qquad (12)$$

ga ega bo'lamiz

(8),(11),(12) ga asosan bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamaning umumiy yechimi.

$$y = \ell^{-\int p(x)dx}\left[\int \ell^{\int p(x)dx}Q(x)dx + c\right]$$

Chiziqli differensial tenglama quyidagi xossalarga ega.

1 xossa. Agar bir jinsli bo'lmagan chiziqli differensial tenglamaning bitta xususiy y_1 yechimi berilgan bo'lsa, uning umumiy yechimi bitta kvadratura bilan aniqlanadi.

Isbot. y_1 (2) tenglamaning yechimi bo'lsin

Ya'ni $$y_1' + p(x)y_1 \equiv Q(x) \qquad (13)$$

$$y = z + y_1 \qquad (14)$$

almashtirishini olamiz. Bunda z yangi no'malum funksiyadir.

(14) dan $$y' = y_1' + z' \qquad (15)$$

(14) va (15) ga asosan (2) tenglama

$y_1' + z' + p(x)(y_1 + z) = Q(x)$ yoki $z' + p(x)z + (y_1^1 + p(x_1) - Q(x)) = 0$ bundan

$z' + p(x)z = 0$

bu esa bir jinsli chiziqli differensial tenglama bo'lib, uning umumiy yechimi bitta kvadratura yordamida aniqlanadi. Bu topilgan $z$qiymatini (14) ga qo'ysak (2) tenglamaning umumiy yechimiga ega bo'lamiz.

$$w(x) = \begin{vmatrix} y_1 & y_2 \\ y_1^{!} & y_2^{!} \end{vmatrix} \equiv 0 \qquad -1 \le x \le 1$$

chunki $-1 \le x \le 1$ oraliqda ikkinchi ustun elementlari nolga teng. $0 < x \le 1$ oralig'ida esa birinchi ustun elementlari nolga teng. Lekin $y_1(x), y_2(x)$ funksiyalari $-1 \le x \le 1$ oraliqda chiziqli bog'lanmagandirlar. Chunki

$\alpha_1 y_1 + \alpha_2 y_2 \equiv 0$ ayniyatdan $-1 \le x \le 0$ oraliqda $\alpha_1 = 0,\ 0 < x \le 1$ oraliqda $\alpha_2 = 0$ ekanligi kelib chiqadi.

Bu ko'rsatadikim $y_1(x)$ va $y_2(x)$ funksiyalar $[-1,1]$ oralig'ida chiziqli bog'lanmagandirlar.

Teorema 4. Agar $y_1, y_2, ..., y_n$ (1) tenglamaning $[a,b]$ da chiziqli bog'liq bo'lmagan yechimlari bo'lsa, u holda uning Vronskiy determinanti ko'rilayotgan oraliqning xech bir nuqtasida nolga teng bo'lmaydi ya'ni

$$w(x) \ne 0$$

Isbot. Teskarisincha faraz etaylik $x = x_0\ \alpha < x_0 < b$ nuqtasida $w(x_0) = 0$ bo'lsin.

Quyidagi tenglamalar sistemasini tuzamiz.

$$\begin{cases} c_1 y_{10} + c_2 y_{20} + ... + c_n y_{n0} = 0 \\ c_1 y'_{10} + c_2 y'_{20} + ... + c_n y'_{20} = 0 \\ .... \\ c_1 y_{10}^{(n-1)} + c_2 y_{20}^{(n-1)} + ... + c_n y_{n0}^{(n-1)} = 0 \end{cases} \qquad (7)$$

Bunda $x = x_0$ bo'lganda $y_i^{(K)}(x_0) = y_{i0}^{(K)} \quad (i = \overline{1,n}, k = \overline{0, n-1})$.

Agar (7) sistemada $c_1, c_2, ...c_n$ larni no'malum deb qarasak, $c_1, c_2, ...c_n$ larga nisbatan n no'molumli n ta bir jinsli chiziqli algebraik tenglamalar sistemaga ega bo'lamiz. Bu sistemani asos determinanti Vronskiy determinatidan iborat bo'lib farazimizga asosan $w(x_0) = 0$ bo'lgani uchun (7) sistemadan trivial bo'lmagan

$c_1^{(0)}, c_2^{(0)}, ...c_n^{(0)}$ yechimlarga ega bo'lamiz.

U holda (7) dan

$$\begin{matrix} c_1^{(0)} y_{10} + c_2^{(0)} y_{20} + ... + c_n^{(0)} y_{n0} \equiv 0 \\ c_1^{(0)} y'_{10} + c_2^{(0)} y'_{20} + ... + c_n^{(0)} y'_{n0} \equiv 0 \\ .... \\ c_1^{(0)} y_{10}^{cn-!!} + c_2^{(0)} y_{20}^{cn-!!} + ... + c_n^{(0)} y_{n0}^{cn-!!} \equiv 0 \end{matrix} \qquad (8)$$

ega bo'lamiz.

Quyidagi funksiyani tuzamiz

$$y(x)=c_1^{(0)}y_1+c_2^{(0)}y_2+\ldots+c_n^{(0)}y_n \qquad (9)$$

Teorema1 2 va uning natijasiga asosan (9), (1) tenglamaning yechimi bo'ladi. (9) dan $n-1$ marta hosila olib, so'ngra unda $x=x_0$ desak (8)ga asosan

$$y(x_0)=0,\ y'(x_0)=0,\ldots,y^{(n-1)}(x_0)=0 \qquad (10)$$

ga ega bo'lamiz. (10) boshlang'ich qiymatlar mavjudlik teoremasiga asosan, (1) tenglama faqat $y\equiv 0$ yechimga ega bo'lishligini ko'rsatadi. U holda (9) dan, x ning $a<x<b$ oralig'idagi hamma qiymatlari uchun

$$c_1^{(0)}y_1+c_2^{(0)}y_2+\ldots+c_n^{(0)}y_n\equiv 0$$

ayniyatga ega bo'lamiz ya'ni $y_1,y_2,\ldots,y_n$ lar chiziqli bog'langan.Bu qarama-qarshilik teoremani to'g'riligini isbot etadi.

Ta'rif. n –chi tartibli bir jinsli chiziqli differensial tenglamaning n ta chiziqli bog'lanmagan $y_1,y_2,\ldots,y_n$ yechimlariga, tenglamaning fundamental yechimlar sistemasi deyiladi.

Teorema 5. Koeffisiyentlari uzluksiz bo'lgan har qanday n-chi tartibli bir jinsli chiziqli differensial tenglamalar, fundamental yechimlar sistemasiga ega.

Isbot.n^2 ta a_{ik}(i,k=$\overline{1,n}$) sonlaridan nolga teng bo'lmagan determinant tuzamiz.

$$\begin{vmatrix} a_{11},a_{12}\ldots\ldots a_{1n}\\ a_{21},a_{22}\ldots\ldots a_{2n}\\ \ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\\ a_{n1},a_{n2}\ldots\ldots a_{nn}\end{vmatrix}\neq 0 \qquad (11)$$

(1) tenglamaning $y_1,y_2,\ldots,y_n$ xususiy yechimlarini $x=x_0$ bo'lganda $y_i(x_0)=a_{1i},\ y_i^{(k)}(x_0)=a_{k+1,i}\quad (i=\overline{1,n};k=\overline{1,n-1})$ boshlang'ich shartlar yordamida aniqlaymiz. U holda (11) ga asosan ulardan tuzilgan Vronskiy determinanti nolga teng bo'lmaydi.4 teoremaga asosan ,ko'rilayotgan oraliqda x ning hamma qiymatlarida ham Vronskiy determinanti nolga teng bo'lmaydi. Demak bu ko'rilayotgan oraliqda funksiyalar chiziqli bog'lanmagan bo'ladilar,ya'ni ular tenglamaningfundamental yechimlar sistemasini tashkil etadi.

Misol: $y_1=1+x,\qquad y_2=\ell^x \qquad (x\neq 0)$

$\begin{vmatrix}1+x & \ell^x\\ 1 & \ell^x\end{vmatrix}=\ell^x+x\ell^x-\ell^x=x\ell^x\ \ x\neq 0$ da ular fundamental yechimlar sistemasi tashkil etadi.

TEOREMA 6. Agar $y_1,y_2,\ldots.y_n$ (1) tenglamaning fundamental yechimlar sistemasi bo'lsa, u holda tenglamaning umumiy yechimi.

$$y=c_1y_1+c_2y_2+\ldots\ldots+c_ny_n \qquad (12)$$

dan iborat. $c_i(i=\overline{1,n})$ o'zgarmas sonlar.

Isbot. Ma'lumki ixtiyoriy n ta o'zgarmas sonlarga bog'liq bo'lgan ifodadan ixtiyoriy o'zgarmaslarni ma'lum bir qiymatlarida tenglamaning hamma xususiy yechimlari kelib chiqsa bunday ifoda tenglamaning umumiy yechimi bo'lar edi.

Ma'lumki xususiy yechimlar boshlang'ich shartlar yordamida bir qiymatli aniqlanadi. (mavjudlik va yagonalik teoremasiga asosan) $x=x_0$ bo'lganda

$$y(x_0)=y_0 \qquad y'=y_0' \qquad y_0',\ldots\ldots,y_0^{(n-1)}=y^{(n-1)} \qquad (13)$$

$y_0,y_1',\ldots..y_0^{(n-1)}$ ixtiyoriy sonlar, $a<x_0<b$

(12) ning umumiy yechim ekanligini isbotlash uchun undagi $c_1, c_2, ...c_n$ larni shunday aniqlash mumkin bo'lsakim, (13) boshlang'ich shartlar bajarilsin. (12) dan ketma-ket $n-1$ marta hosila olib, ularning x=x$_0$ dagi šiymatlarni aniklaymiz.

$$\begin{aligned}
&c_1 y_{10} + c_2 y_{20} + ... + c_n y_{n0} = y_0 \\
&c_1 y_{10}^! + c_2 y_{20}^! + ... + c_n y_{n0}^! = y_0^1 \\
&.. \\
&c_1 y_{10}^{(n-1)} + c_2 y_{20}^{(n-1)} + ... + c_n y_{n0}^{(n-1)} = y_0^{(n-1)}
\end{aligned} \qquad (14)$$

Agar (14) sistemada $c_i (i = \overline{1, n})$ larni noma'lum deb šarasak, (15) bir jinsli bulmagan algebraik tenglamalar sisitemasini tashkil etadi. Bu sisitemaning asos determinanti Vronskiy determinatida x urniga x$_0$ š¢yilgan determinatidan ya'ni $w(x_0)$ iborat bulib, u 4 teoremaga asosan nolga teng emas; $w(x_0) \neq 0$

Shuning uchun (14) sisitemadan c_i lar bir šiymatli aniklanadi.

c_i ning bu topilgan šiymatlarida (12), boshlanђich (13) shartni kanoatlantiradi.

Demak (12) ifoda (1) tenglamaning umumuiy yechimidir.

TEOREMA 7. Agar n- nchi tartibli bir jinsli chiziqli differensial tenglamalar $y_1, y_2, ..., y_n, y_{n+1}$ xususiy yechimlarga ega bo'lsa, bu yechimlar chiziqli bog'langan bo'ladilar. Boshqacha aytganda n-chi tartibli bir jinslichiziqli differensial tenglamalar n tadan ortiqchiziqli bog'lanmagan yechimga ega emas.

Isbot. Faraz etaylik $y_1, y_2, ..., y_n$ lar chiziqli bog'langan bo'lsinlar. U holda n ta chiziqli bog'langan funksiyalar $(n+1)$ ta chiziqli bog'langan funksiyalarning xususiy xolidir.

Xaqiqatan ham, x ning hamma qiymatlarida

$$\alpha_1 y_1 + \alpha_2 y_2 + ... + \alpha_n y_n + 0 \cdot y_{n+1} \equiv 0$$

ayniyat bajariladi.

2 xol. $y_1, y_2, ..., y_n$ funksiyalarchiziqlibog'lanmaganbo'lsin.

Uholdaularfundamentalyechimlarsistemanitashkiletadi.

Ma'lumkitenglamaningixtiyoriyxususiyyechimibularorqalikoeffisentlario'zgarmasbo'lganchiziqliravishdaifodalanadi, shujumladan y_{n+1} yechimham

$$y_{n+1} = \alpha_1 y_1 + \alpha_2 y_2 + ... + \alpha_n y_n$$

ya'ni ular chiziqli bog'langandir.

17.3-ilova

Insert texnikasini qo'llagan holda ish yuritish qoidalari

1. Matnni o'qing.
2. Matn qatorlariga qalam bilan beligilar qo'yib, olingan ma'lumotni tizimlashtiring:

V - ... haqida mavjud bo'lgan bilimlar (ma'lumotlar) mos keladi
- (minus) - ... haqidagi mavjud bilimlarga e'tiroz bildiradi.
+ (plyus) - yangi ma'lumotlar hisoblanadi.
? - tushunarsiz / aniqlik / qo'shimcha ma'lumot talab qiladi

B/Bx/Bo texnikasini qo'llagan holda ish yuritish qoidalari

1. "Insert" texnikasidan foydalanib matnni o'qing.
2. Olingan ma'lumotlarni tizimlashtiring – matnga qo'yilgan belgilar asosida tablitsa qatorlarini to'ldirib chiqing.

B/Bx/Bo (Bilaman / Bilishni xoxlayman / Bilib oldim)

№	Mavzu savollari	Bilaman (Q)	Bilishni xoxlayman (?)	Bilib oldim
1	Funksiyalarning chiziqli bog’liq shartini ayting?			
2	Chiziqli tenglama yechimlarining xossasini ayting?			
3	Vronskiy determinantining moxiyati nimadan iborat?			
4	Tenglamaning fundamental yechimlar sistemasi deb nimaga aytiladi?			
5	Qaysi vaqtda chiziqli tenglamaning fundamental yechimlar sistemasi mavjud?			
6	Bir jinsli tenglamaning tartibini qanday qilib pasaytirish mumkin ?			

17.4-ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo‘lmog‘i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog‘i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo‘yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4.Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchra-masligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o‘qituvchi ularga yo‘riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo‘lganda ham muloqotda bo‘ling, o‘z fikringizni erkin namoyon eting.

17.5-ilova

"n- tartibli bir jinsli chiziqli differensial tenglama. Yechimning xossalari. Vronskiy determinant va uning xossalari" mavzusi bo‘yicha mustaqil ish uchun savollar

Funksiyalarni chiziqli bog’liq yoki erkli ekanligini tekshiring.

1. $e^x,\ xe^x,\ x^2e^x$

2. $\sin x,\ \cos x,\ \cos 2x$

3. $1,\ \sin x,\ \cos 2x$

4. $5,\ \cos^2 x,\ \sin^2 x$

5. $\cos x,\ \cos(x+1),\ \cos(x-2)$

6. $1,\ \sin 2x,\ (\cos x-\sin x)^2$

7. $x,\ a^{\log_a x}\ \ (x>0)$

8. $\log_a x,\ \log_a x^2\ \ (x>0)$

9. $1,\ arc\sin x,\ arc\cos 2x$

10. $5,\ arc\,tg\,x,\ arcctg\,x$

O’zgaruvchi koeffisiyentli chiziqli bir jinsli tenglamaning umumiy yechimini toping.

11. $y''+\dfrac{2}{x}y'+y=0,\quad y_1=\dfrac{\sin x}{x}$

12. $(\sin x-\cos x)y''-2\sin xy'+(\cos x+\sin x)y=0,\quad y_1=e^x$

13. $(\cos x+\sin x)y''-2\cos xy'+(\cos x-\sin x)y=0,\quad y_1=\cos x$

14. $\left(1-x^2\right)y''-xy'+1/4\,y=0,\quad y_1=\sqrt{1+x}$

Tavsiya etilgan adabiyotlar

Асосий ва қўшимча ўқув адабиётлари ҳамда ахборот манбаалари

Асосий адабиётлар

1. Morris Tenebout, Harry Pollard. Ordinary Differential Equations. Birkhhauzer. Germany, 2010.
2. Robinson J.C. An Introduction to Ordinary Differential Equations. Cambridge University Press 2013.
3. Степанов В.В. Курс дифференциальных уравнений.М. КомКнига/ URSS 2006.-472с.
4. Эльсгольц Л.Е. Дифференциальные уравнения ивариационноеисчиление.М. КомКнига/ URSS 2006.-312с
5. Филиппов А.Ф. Сборник задач по дифференциальным уравнениям. М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Қўшимча адабиётлар

6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ, Тошкент, 2016. 56-б
7. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилганмажлисидаги маъруза,2017 йил 14 январъ –Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 104-б.
8. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабрь- Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 48-б.
9. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Мазкур китобдан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 1 ноябрдан 24 ноябрга қадар Қорақалпоғистон Республикаси,вилоятлар ва Тошкент шахри сайловчилари вакиллари билан ўтказилган сайловолди учрашувларида сўзлаган нутқлари ўрин олган.-Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 488-б.
10. Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н. Оддий дифференциал тенгламалар. Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.
11. Бибиков Ю.Н. Курс обыкновенных дифференциальных уравнений. М., 1991. 314 с.
12. Петровский И.Г. Лекции по теории обыкновенных дифференциальных уравнений. М.: изд-во Моск. Ун-та. 1984.
13. Демидович Б.П. Лекции по математической теории устойчивости. М.: Наука, 1987.
14. Федорюк М.В. Обыкновенные дифференциальные уравнения. М.: Наука.1980.
15. Самойленко А.М. и др. дифференциальные уравнения. М., 1989. 384 с.
16. Амелькин В.В. Дифференциальное уравнение в приложениях. М.: Наука. 1987.
17. Қаландаров А.Д., Меражова Ш.Б. Дифференциал тенгламалардан масалалар тўплами. Бухоро. “Дурдона”, 2013

Интернет сайтлари

18. www.lib.homelinex.org/math
19. www.eknigu.com/lib/Mathematics/
20. www.eknigu.com/info/M_Mathematics/MC

18-Ma’ruza mashg’ulot.

1. “Yechimning fundamental sistemasi. Ostrogradskiy –liuvill formulasi” ma’ruza mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi modeli

18-ma’ruza	**Yechimning xossalari. Ostrogradskiy formulasi.**
Vaqt-2 soat	Talabalar soni: 50 nafardan oshmasligi kerak
O'quv mashg'uloti shakli	ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o’rganish
Mashg'ulot rejasi	1.n-chi tartibli bir jinsli differensial tenglamaning yechimining xossalari. 2.Ostrogradskiy-Liuvill formulasi. 3.Bir jinsli chiziqli differensial tenglamaning tartibini pasaytirish
Asosiy tushuncha va atamalar	Yechim, xususiy yechim, umumiy yechim, bir jinsli va bir jinsli bo’lmagan chiziqli differensial tenglamalar.
Amaliy mashg'ulotining maqsadi	O’quv fani to’g’risida umumiy ta’surotlar berish, Oddiy differensial tenglamalari va uni keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
1.O’rgatuvchi: Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik fikrlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; *2.Rivojlantiruvchi*: Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo’llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish; *3.Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o’rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.	1.Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; 2.Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini o’rganildi; talabalarning ijodiy mahoratini shakillandi; 3.*Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o’rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individualishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirishlar o’rganildi.
Ta'lim usuli va texnikasi	instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, “Insert” texnikasi;
Ta'lim shakli	frontal; jamoaviy;
Ta'lim vositalari	Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
	mashg'ulot bo'yicha o'quv materiallari, proektor, axborot texnologiylari vositalari.
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shaklda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Manitoring va baholash	Og'zaki so'rov, kuzatish.

2. "Yechimning fundamental sistemasi. Ostrogradskiy –liuvill formulasi" ma’ruza texnologik xaritasi.

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzuning nomi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiriladi. 1.2. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi(18.1-ilova). 1.3.Talabalarning darsga tayyorgarlik darajasini aniqlash, bilimlarini faollashtirish maqsadida tezkor-savollar o'tkaziladi: 1)Chiziqli tenglamaning umumiy yechimini yozing? 2)Bir jinsli tenglamaning tartibini qanday qilib pasaytirish mumkin? Mavzu, mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishi e'lon qilinadi.	Tinglaydilar. yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2- Asosiy bosqich.(55-daqiqa)	2.1.Talabalarni4 ta o'quv guruhiga bo'linadi. Mavzu bo'yicha tarqatma material betriladi(18.2-ilova). Guruhlarda o'quv vazifasini bajarish bo'yicha ishni tashkil qiladi. Har bir guruh o'z vazifalarini oladi(18.3-ilova). O'quv faoliyati natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhlarda ish boshlanganligini ma’lum qiladi.Vazifani bajarishda o'quv materiallaridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Talabalarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar berish mumkin: 1. Hozirgi zamon talablari nimalardan iborat deb bilasiz? 2.Zamon talablarini bajarishda kadrlarning malakasi qanday bo'lishi kerak? 3. Axborot texnologiyalarini qo'llashni bilish, nimalarni taqoza etadi? 4.Yuqori tartibli Chiziqli tenglamada argumentni yoki funksiyani almashtirsak qanday tenglama xosil bo’ladi? 5.Funksiyalarning Chiziqli bog’liq shartini ayting? 6. Vronskiy determinantining moxiyati nimadan iborat? 7. Bir jinsli tenglamaning tartibini qandayqilib pasaytirish mumkin? 2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Taqdimot vaqtida javoblarga izoh beradi, to'gri e'chimlarga e'tibor beradi, xatolarni ko'rsatadi. Talabalar bilan birgalikda javoblar to'g'riligini baholaydi, savollarga javob beradi. 2.4. Guruhlar bajargan ishlari bo'yicha o'z-o'zini baholaydilar va tekshiradilar. 2.5. Javoblarni to'ldiradi va qisqacha xulosalar qiladi.	Tinglaydilar; Guruhlarda ishlaydilar, Savollarga javob izlaydilar. Tinglaydilar; o'qiydilar; guruhlarda ishlaydilar, asoaiylarni yozadilar. Tinglaydilar; savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar; misol va masalalarni daftarda echadilar. Guruh liderlari topshiriqlar javoblarini aytadilar. Liderlar o'z guruhlarida baholash o'tkazadilar. Tinglaydilar.
3- bosqich,	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga	Savol beradilar.

yakuniy(15 daqiqa)	kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2.Mashg'ulotda maqsadga erishishdagi, talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi(18.3-18.4 ilovalar). 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi(18.5-ilova) va uning baholash mezonlari aytiladi.	Tinglaydilar; muhokamada qatnashadilar. Topshiriqlarni yozadilar.

18.1-ilova

Har bir mashg'ulot 0,5 balldan 2 ballgacha baholanadi. Ekspert guruxlarning ish natijalarini baholovchi me'zonlari

Me'zonlar	Ball	%	Gurux natijalari bahosi			
			1	2	3	4
Axborotning to'liqligi	1,0	50				
Masala yechimining boshqacha usuli, illyustratsiyasi(grafik tarzda taqdim etish, ayrim hisoblashlarni aniq ko'rsatish va h.k.)	0,6	30				
Gurux faolligi (qo'shimcha, berilgan savol, javoblarning soni)	0,4	20				
JAMI	2	100				

86-100% / a'lo"
71-85% / - "yaxshi"
55-70% / - "qoniqarli"
0-54%-- "qoniqarsiz".

18.2-ilova

"Yechimning fundamental sistemasi. Ostrogradskiy –liuvill formulasi" mavzusi bo‘yicha tarqatma material

TEOREMA Agar ikkita bir jinsli chiziqli differensial tenglamalar

$$y^{(n)} + p_1(x)y^{(n-1)} + p_2(x)y^{(n-2)} + ... + p_{n-1}(x)y^1 + p_n(x)y = 0$$
$$y^{(n)} + q_1(x)y_1^{(n-1)} + q_2(x)y^{(n-2)} + ... + q_{n-1}(x)y' + q_n(x)y = 0 \qquad (15)$$

bir xil fundamental yechimlar sistemasiga ega bo’lsa ,u holda ular aynan o’zaro tengdir ya’ni $q_i(x) \equiv p_i(x) \quad (i = \overline{1,n})$

Isbot. (15) tenglamalarning birinchisidan ikkinchisini hadlab ayiramiz:

$$(p_1 - q_1)y^{(n-1)} + (p_2 - q_2)y^{(n-2)} + \ldots + (p_n - q_n)y = 0 \qquad (16)$$

tenglamaga ega bo’lamiz.

Faraz etaylik $p_1 \neq q_1$ bo’lmasinlar u holda $p_i(x)$ *ва* $q_i(x)$ uzluksiz funksiyalar bo’lgani sababli shunday $\alpha < x < \beta$ oraliq topiladikim bu oraliqda ayirma nolga teng bo’lmaydi:

$$p_i(x) - q_i(x) \neq 0.$$

shuning uchun (16) ni har ikkala tomonini $p_i(x) - q_i(x)$ bo’lib ,uni

$$y^{(n-1)} + \frac{p_2 - q_2}{p_1 - q_1}y^{(n-2)} + \ldots + \frac{p_n - q_n}{p_1 - q_1}y = 0$$

bu tenglama (15) tenglamalarning natijasi bo’lgani uchun $y_1, y_2,....., y_n$ lar bu tenglamaning fundamental yechimlar sistemasini tashkil etadi.

Lekin bu tenglama $(n-1)$ tartibli bo’lgani uchun u n ta chiziqli bog’liq bo’lmagan $y_1, y_2,....., y_n$ yechimlarga ega bo’lolmaydi (7 teorema).Bu qarama-qarshilik ko’rsatadikim

$$p_i(x) - q_i(x) \equiv 0.$$

Xuddi shunday davom ettirsak natijada

$P_i(x) \equiv q_i(x) \qquad (i = \overline{1,n})$

ga ega bo'lamiz. Demak (15) tenglamalar bitta tenglamadan iboratdir.

Masala. Agar n- chi tartibli bir jinsli chiziqli differensial tenglamaning fundamental yechimlari $y_1, y_2, ..., y_n$ berilgan bo'lsa, tenglamani tuzing.

Yechish. Faraz etaylik izlangan bir jinsli chiziqli differensial tenglama

$$y^{(n)} + p_1(x)y^{(n-1)} + p_2(x)y^{(y-2)} + ... + p_n(x)y = 0 \qquad (17)$$

bo'lsin.Bunda $p_i(x)$ koeffisentlar xozircha aniqlanmagan funksiyalardir.

Shartga ko'ra $y_1, y_2, ..., y_n$ lar (17) tenglamaning yechimlari bo'lgani uchun:

$$\begin{array}{l} y_1^{(n)} + p_1(x)y_1^{(n-1)} + p_2(x)y_1^{(n-2)} + ...p_n(x)y_1 \equiv 0 \\ y_2^{(n)} + p_1(x)y_2^{(n-1)} + p_2(x)y_2^{(n-2)} + ...p_n(x)y_{21} \equiv 0 \\ .... \\ y_{n1}^{(n)} + p_1(x)y_{n1}^{(n-1)} + p_2(x)y_n^{(n-2)} + ...p_n(x)y_n \equiv 0 \end{array} \qquad (18)$$

(18) $p_i(x)$ larga nisbatan bir jinsli bo'lmagan algebraik tenglamalar sistemasidan iborat. Uning asos determinati Vronskiy determinatidan iboratbo'lgani uchun u nolga teng emas (chunki $y_i \quad i = \overline{1,n}$ tenglamaning fundamental yechimlar sistemasidir) shuning uchun (18) sistemadan $p_i(x)$ lar bir qiymatli aniqlanadi. Bu topilgan $p_i(x)$ qiymatlarni (17) tenglamaga qo'ysak, izlangan bir jinsli tenglamaga ega bo'lamiz.

Topilgan tenglamani determinat shaklida yozish mumkin:

$$\begin{vmatrix} y^{(n)} \; y^{(n-1)}.....y' \; y \\ y_1^{(n)} y_1^{(n-1)}......y_1' \quad y_1 \\ y_2^{(n)} y_2^{(n-1)}.......y_2' \quad y_2 \\ .... \\ y_n^{(n)} \quad y_n^{(n-1)}....y_n' \quad y_n \end{vmatrix} = 0 \quad \text{ёки} \begin{vmatrix} y_1 \quad y_{2.}........y_n \quad y \\ y_1' \quad y_2'........y_n' \quad y' \\ y_1'' \quad y_2''.......y_n'' \quad y'' \\ .... \\ y_1^{(n-1)} y_2^{(n)}......y_n^{(n)} \quad y^{(n)} \end{vmatrix} = 0 \qquad (19)$$

haqiqatdan ham oxirgi ustun elementlari urniga $y_1, y_2, ..., y_n$ larni qo'ysak ikki ustun elementlari teng bo'lgani uchun determinat qiymati nolga teng bo'ladi. (19) topilishi kerak bo'lgan bir jinsli chiziqli differensial tenglamadir.

Misol. Xusuiy yechimlari e^x, e^{2x}, e^{3x} bo'lgan bir jinsli tenglamani tuzing

Isbot etish mumkinki bu funksiyalar chizili bog'lanmagan.

$$\begin{vmatrix} e^x \; e^{2x}.....e^{3x} \; y \\ e^x \; 2e^{2x} \quad 3e^{3x} \; y' \\ e^x \; 4e^{2x} \quad 9e^{3x} \quad y'' \\ e^x \; 8e^{2x} \quad 27e^{3x} \; y''' \\ n \end{vmatrix} = 0 \quad e^{x+2x+3x} \begin{vmatrix} 1 & 1 & 1 & y \\ 1 & 2 & 3 & y^1 \\ 1 & 4 & 9 & y'' \\ 1 & 8 & 27 & y''' \end{vmatrix} = 0$$

determinatni ochib chiqib, ixchamlasak $y''' - 6y'' + 11y' - 6y = 0$ ga ega bo'lamiz.

(19) determinatni oxirgi ustun elementlari bo'yicha ochib chiqamiz

$$y^{(n)}\begin{vmatrix} y_1 & y_2. & \ldots\ldots\ldots & y_n \\ y_1' & y_2' & \ldots\ldots\ldots & y_n' \\ \ldots & \ldots & \ldots & \ldots \\ y_2^{(n-1)} & y_2^{(n-1)} & \ldots\ldots & y_2^{(n-1)} \\ . \end{vmatrix} - y^{(n-1)}\begin{vmatrix} y_1 & y_2. & \ldots\ldots y_n \\ y_1' & y_2'. & \ldots\ldots y_n' \\ \ldots & \ldots & \ldots \\ y_1^{(n-2)} & y_2^{(n-2)} & \ldots\ldots y_n^{(n-2)} \\ y_1^{(n)} & y_2^{(n)} & y_n^{(n)} \end{vmatrix} + \ldots + (-1)^n \begin{vmatrix} y_1' & y_2' \ldots\ldots y_n' \\ y_1'' & y_2'' \ldots\ldots y_n'' \\ \ldots & \ldots \\ y_1^{(n)} & y_2^{(n)} \ldots\ldots y_n^{(n)} \end{vmatrix} = 0$$

(20)

$y^{(n)}$ oldidagi koeffisiyent Vronskiy determinatidan iborat bo'lgani uchun u nolga teng emas. Shuning uchun (20) xar ikkala tomonini $w(x)$ ga bulish mumkin.

So'ngra xosil bo'lgan tenglama bilan (17) ni solishtirib qarasak

$$p_1(x) = -\frac{\begin{vmatrix} y_1 \ y_2 \ldots\ldots y_n \\ y_1' \ y_2' \ldots\ldots y_n' \\ \ldots\ldots\ldots\ldots \\ y_1^{(n)} \ y_2^{(n)} \ldots\ldots y_n^{(n)} \end{vmatrix}}{w(x)} \qquad (21)$$

ga ega bo'lamiz.

(21) ning surati, maxrajining hosilasidan iboratdir.

Haqiqatan ham oliy, algebradan ma'lumki elementlari x ning funksiyasidan iborat bo'lgan n-chi tartibli determinatning hosilasi, n ta n-chi tartibli determinatlar yig'indisiga teng bo'lib, ularning birinchisida birinchi satr elementlaring hosilasi olinib qolgan elementlar o'zgartirilmay qoladi. Ikkinchi determinatda ikkinchi satr elementlarning hosilasi olinib qolgan elementlar o'z xolicha qoladi va xokazo shunday davom ettirsak n-chi determinatning n-chi satr elemantlari, ularning hosilasi bilan almashtirib qolgan elementlaro'z xolicha qoldiriladi. Shunday qilib, $n-1$ ta n-chi tartibli determinatlarda ikki satr elementlari o'zaro teng bo'lgani uchun ular nolga teng.oxirgi n-chi determinat esa (21) determinatning suratidan iborat bo'ladi. ya'ni

$$p_1(x) = -\frac{w'(x)}{w(x)}$$

Bu O'zgaruvchilari ajraladigan differensial tenglamalardir

$$\frac{dw(x)}{w(x)} = -p_1(x)dx$$

$$\ell nw(x) = -\int_{x_0}^{x} p_1(x)dx + \ell nw(x_0)$$

(22)

$$w(x) = w(x_0)\ell^{-\int_{x0}^{x} p_1(x)dx}$$

Agar $w(x_0) = c$ desak $\qquad w(x) = c\ell^{-\int_{x}^{x} p(x)dx} \qquad$ (23)

(22) ga Ostorgradskiy – Liuvill formulasi deyiladi.

Ostrogradskiy-Liuvill formulasini, ikkinchi tartibli differensial tenglamalarning umumiy yechimini topishga tadbiq etamiz.

Faraz etaylik y_1

$$y'' + p_1(x)y' + p_2(x)y = 0$$

tenglamaning xususiy yechimi bo'lsin. y esa uning y_1 dan farq qiluvchi ixtiyoriy yechimi (23) ga asosan

$$\begin{vmatrix} y & y_1 \\ y' & y_1^1 \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} y_1 & y \\ y_1^1 & y' \end{vmatrix} = c_1 \ell^{-\int p_1(x)dx}$$

$$y' y_1 - y y_1^1 = C_1 \ell^{-\int p_1(x)dx}$$

Bu tenglamaning har ikkala tomonini y_1^2 ga bo'lamiz:

$$\frac{y' y_1 - y y_1^1}{y_1^2} = \frac{c_1}{y_1^2} \ell^{-\int p_1(x)dx}$$

$$d\left(\frac{y}{y_1}\right) = \frac{c_1}{y_1^2} \ell^{-\int p_1(x)dx} \qquad \frac{y}{y_1} = c_1 \int \frac{\ell^{-\int p_1(x)dx}}{y_1^2} dx + C_2$$

$$y = y_1 \left\{ c_1 \int \frac{\ell^{-\int p_1(x)dx}}{y_1^2} dx + c_2 \right\}$$

ga ega bo'lamiz. Bu formulada ikkita ixtiyoriy o'zgarmas son qatnashayotir.
Bu ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglamaning umumiy yechimidir.

Xulosa. Agar bir jinsli ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglamaning bitta xususiy yechimi berilgan bo'lsa uning umumiy yechimi kvadratura yordamida aniqlanadi.

Bir jinsli chiziqli differensial tenglamaning tartibini pasaytirish

n-chi tartibli bir jinsli Chiziqli differensial tenglama berilgan bo'lsin.

$$y^{(n)} + p_1(x) y^{(n-1)} + p_2(x) y^{(n-2)} + ... + p_{n-1}(x) y' + p_n(x) y = 0 \qquad (1)$$

Agar bu tenglamaning nolga teng bulmagan y_1 xususiy yechimi berilgan bo'lsa
$y = y_1 z$
almashtirish yordamida (1) tenglamaning tartibini bittaga pasaytirish mumkin. Haqiqatan ham, (2) dan

$$y' = y_1 z' + y_1' z$$

$$y'' = y_1 z'' + 2 y_1' z' + y_1'' z$$

$$y''' = y_1 z''' + 3 y_1' z'' + 3 y_1'' z' + y_1''' z$$

....

$$y^{(n-1)} = y, z^{(n-1)} + c_{n-1} y_1' z^{(n-2)} + c_{n-1}^2 y_1'' z^{(n-3)} + ... + y_1^{(n-1)} z$$

$$y^{(n)} = y, z^{(n)} + c'_n y_1' z^{(n-1)} + c_n^2 y_1'' z^{(n-2)} + ... + y_1^{(n)} z$$

Bu topilgan qiymatlarni (1) tenglamaga qo'yib ixchamlasak

$$y_1 z^{(n)} + (p_1(x) y_1 + c_n' y_1') z^{(n-1)} + ... + (y_1^{(n)} + p_1(x) y_1^{(n-1)} + p_2(x) y_1^{(n-2)} + .. + P_{n-1}(x) y_1' + p_n(x) y_1) z = 0$$

ga ega bo'lamiz.shartga asosan $y_1 \neq 0$ (1) tenglamaning yechimi ya'ni

$L[y_1] \equiv 0$ shuning uchun keyingi tenglamadagi z oldidagi koeffisiyent nolga teng bo'ladi.

(3) tenglamaning xar ikkiala tomonini y_1 ga bo'lsak.

$$z^{(n)} + Q_1(x) z^{(n-1} + Q_2(x) z^{(n-2)} + ... + Q_1(x) z' = 0$$

tenglamaga ega bo'lamiz.

Bu tenglamada $z' = u$ almashtirishni olib uni

$$u^{(n-1)} + Q_1(x) u^{(n-2)} + ... + Q_1(x) u = 0 \qquad (4)$$

Ko'rinishga keltiramiz.

Agar (4) tenglamaning fundamental yechimlar sistemasi u_1, $u_2, ..., u_{n-1}$ bo'lsa, u holda (1) tenglamaning xusuiy yechimlari

$$y_1; \quad y_2 = y_1 \int u_1 dx; \quad y_3 = y_1 \int u_2 dx, ..., y_n = y_1 \int u_{n-1} dx \qquad (5)$$

bo'ladi.Isbot etamizki bu yechimlar Chiziqli bog'lanmagandirlar.ya'ni ular (1) tenglamaning fundamental yechimlar sistemasini tashkil etadi.

Teskarincha faraz etaylik bular Chiziqli bog'langan bo'lsinlar.U holda birdaniga hammasi nolga teng bo'lmagan shunday $c_1, c_2, ... c_n$ sonlari topiladikim, x –ning ko'rilayotgan oraliqdagi hamma qiymatlari uchun

$$c_1 y_1 + c_2 y_2 + ... + c_n y_n \equiv 0 \qquad (6)$$

ayniyat bajariladi.

Bundan y_1 nolga teng bo'lmaganli sababli (6) dan

$$c_1 + c_2\left(\frac{y_2}{y_1}\right) + c_3\left(\frac{y_3}{y_1}\right) + .. + c_n\left(\frac{y_n}{y_1}\right) = 0 \qquad (7)$$

(5) va (7) ga asosan

$$c_2 u_1 + c_3 u_2 + ... + c_n u_{n-1} = 0$$

gaegabo'lamiz.

Lekin $u_1, u_2, ... u_{n-1}$ larChiziqlibog'liqbo'lmaganligisababli ,keyingitenglikdan

$$c_2 = c_3 = ... = c_n = 0$$

kelib chiqadi. U holda (6) dan $c_1 = 0$ kelib chiqadi.

Bu qarama-qarshilik ko'rsatadikim $y_1, y_2, ... y_n$ larChiziqli bog'liq emas.

Demak ular (1) tenglamaning fundamental yechimlar sistemasini tashkil etadi.

Faraz etaylik (1) tenglamaning k ta $y_1, y_2, ... y_л$ xususiy yechimlari berilgan bo'lsin.

$u = \left(\frac{y}{y_1}\right)'$ almashtirish yordamida (1) tenglama (4) ko'rinishga keladi.

Lekin (4) tenglamaning

$$u_1 = \left(\frac{y_2}{y_1}\right)', \quad u_2 = \left(\frac{y_3}{y_1}\right)', \quad ....., \quad u_{k-1} = \left(\frac{y_k}{y_1}\right)' \qquad (8)$$

yechimlari mavjud bo'ladi.

Isbot etamizkim, (8) yechimlar sistemasi o'zaro Chiziqli bog'liq emas.Aksincha faraz etaylik bular Chiziqli bog'liq bo'lsinlar. U holda hammasi birdaniga nolga teng bo'lmagan shunday $\gamma_1, \gamma_2, ..., \gamma_k$ sonlarni topish mumkinkim

$$\gamma_2 u_1 + \gamma_3 u_2 + ... + \gamma_k u_{k-1} \equiv 0 \qquad (9)$$

(9) nihar ikkala tomonini integrallaymiz

$$\gamma_2 \int u_1 dx + \gamma_3 \int u_2 dx + ... + \gamma_k \int u_{k-1} dx = -\gamma_1$$

(γ_1 - integrallash doimiyligi)

bu keyingi tenglikdan

$$\gamma_2\left(\frac{y_2}{y_1}\right) + \gamma_3\left(\frac{y_3}{y_1}\right) + ... + \gamma_k\left(\frac{y_k}{\gamma_1}\right) = -\gamma_1$$

$$\gamma_1 y_1 + \gamma_2 y_2 + \gamma_3 y_3 + ... + \gamma_k y_k = 0$$

shartga asosan $y_1, y_2, ..., y_k$ lar Chiziqli bog'lanmagan, shuning uchun keyingi tenglikdan

$$\gamma_1 = \lambda_2 = ... = \gamma_k = 0$$

Bu qarma- qarshilik ko'rsatadikim

$u_1, u_2, ..., u_k$

larChiziqli bog'lanmagandirlar

Ya'ni ular (4) tenglamaning fundamental yechimlar sistemasini tashkil etadi.

(4) tenglamada $\vartheta=\left(\dfrac{u}{u_1}\right)'$ almashtirishni olsak tenglamaning tartibi bittaga pasayadi (1) tenglamaning tartibi esa ikki birlikka pasayadi.
Bundan shunday xulosaga kelamiz.
Agar bir jinsli Chiziqli differensial tenglamaning k ta Chiziqli bog'liq bo'lmagan xususiy yechimlari berilgan bo'lsa, u holda uning tartibi k birlikka kamayadi ya'ni (1) tenglamani integrallash $n-k$ chi tartibli tenglamani integrallashga keltiriladi.

Ikkinchi tartibli bir jinsli differensial tenglamaning bitta $y_1 \neq 0$ xususiy yechimi berilgan bo'lsin. $y''+p_1(x)y'+p_2(x)y=0$ (10)

$y=y_1\int udx$ almashtirishni olamiz. $y^1=y_1u+y_1'\int udx$ $y''=2y_1\ u+y_1u'+y_1^{11}\int udx$.

Bularga asosan (10) tenglamani

$$y_1u'+(2y_1'+p_1(x)y_1)u+(y_1''+p_1(x)y_1'+p_2(x)y_1=0$$

$$u'+\frac{2y_1'+p_1(x)y_1}{y_1}u=0 \quad \frac{u'}{u}=-\left(\frac{2y_1'}{y_1}+p_1(x)\right)$$

$$\ln u=-2\ln y_1-\int p_1(x)dx+\ln c_1 \quad u=\frac{c_1e^{-\int p_1(x)dx}}{y_1^2}$$

Bu qiymatni $y=y_1\int udx+c_2$ ga qo'ysak

$$y=y_1\left[\int\frac{c_1e^{-\int p_1(x)dx}}{y_1^2}dx+c_2\right]$$

ga ega bo'lamiz. Bu esa (10) tenglamaning umumiy yechimidir.

$$u=\left(\frac{u}{u_1}\right)' \quad \frac{y}{y_1}=\int udx+c$$

Misol

$$x^3y'''-3x^2y''+6xy'-6y=0$$

tenglamaning 2 ta xususiy yechimi $y_1=x,\ y_2=x^2$ berilgan bo'lsa, tenglamaning umumiy yechimini toping.

$y=x\int udx$ almashtirshini olamiz.

$$y'=\int udx+xu \quad y''=2u+xu' \quad y'''=3u'+xu''$$

$$x^3(3u'+xu'')-3(2u+xu')x^2+6x(\int udx+xu)-6x\int udx=0$$

$$x^2u''=0\ u''=0$$

$$u_1=\left(\frac{y_2}{y_1}\right)'=\left(\frac{x^2}{x}\right)'=(x)'=1 \qquad u_1=1$$

$$v=\left(\frac{u}{u_1}\right)' \qquad u=u_1\int vdv=\int vdv$$

$$u'=v, \qquad u''=v' \qquad v'=0 \qquad v=2$$

$$u_2 = u_1 \int v dx = 2\int dx = 2x$$

$$u_1 = \left(\frac{y_2}{y_1}\right)' \qquad u_2 = \left(\frac{y_3}{y_1}\right)' \qquad y_3 = y_1 \int u_2 dx = x \int 2x dx = x^3$$

$$y = c_1 x + c_2 x^2 + c_3 x^3.$$

18.3-ilova

Insert texnikasini qo‘llagan holda ish yuritish qoidalari

1. Matnni o‘qing.
2. Matn qatorlariga qalam bilan beligilar qo‘yib, olingan ma’lumotni tizimlashtiring:

V - ... haqida mavjud bo‘lgan bilimlar (ma’lumotlar) mos keladi
- (minus) - ... haqidagi mavjud bilimlarga e’tiroz bildiradi.
+ (plyus) - yangi ma’lumotlar hisoblanadi.
? - tushunarsiz / aniqlik / qo‘shimcha ma’lumot talab qiladi

B/Bx/Bo texnikasini qo‘llagan holda ish yuritish qoidalari

1. “Insert” texnikasidan foydalanib matnni o‘qing.
2. Olingan ma’lumotlarni tizimlashtiring – matnga qo‘yilgan belgilar asosida tablitsa qatorlarini to‘ldirib chiqing.

B/Bx/Bo (Bilaman / Bilishni xoxlayman / Bilib oldim)

№	Mavzu savollari	Bilaman (Q)	Bilishni xoxlayman (?)	Bilib oldim
1	Yuqori tartibli Chiziqli tenglamada argumentni yoki funksiyani almashtirsak qanday tenglama xosil bo’ladi?			
2	Yuqori tartibli differensial tenglama yechimining mavjudlik va yagonalik teoremasini ayting?			
3	Funksiyalarning Chiziqli bog’liq shartini ayting?			
4	Chiziqli tenglama yechimlarining xossasini ayting?			
5	Vronskiy determinantining moxiyati nimadan iborat?			
6	Tenglamaning fundamental yechimlar sistemasi deb nimaga aytiladi?			
7	Ostrogradskiy-Liuvill formulasini yozing?			

18.4-ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo‘lmog‘i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog‘i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo‘yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchra-masligi haqida ogohlantirilishi zarur.

5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o‘qituvchi ularga yo‘riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo‘lganda ham muloqotda bo‘ling, o‘z fikringizni erkin namoyon eting.

18.5-ilova

"Yechimning fundamental sistemasi. Ostrogradskiy –liuvill formulasi" mavzusi bo‘yicha mustaqil ish uchun savollar

Berilgan fundamental yechimlar sistemasiga ko’ra differensial tenglama tuzing.

1. $y_1 = x, y_2 = cosx, y_3 = sinx;$ 2. $y_1= 2x, y_2 = x - 2 , y_3 = ye^x;$
3. $y_1 = x, y_2 = x^2, y_3 = x^3;$ 4. $y_1=cos^2x, y_2=sin^2x;$
5. $y_1 = ye^x, y_2 = xe^{x;}$ 6. $y_1 = ye^x, y_2 = ye^x sinx, y_3 = ye^x cosx.$

Berilgan chiziqli birjinslimas tenglamaga mos bo’lgan birjinsli tenglamaning fundamental yechimlar sistemasini bilgan holda uning umumiy yechimini toping.

7. $y'' + y = 5,\ \ y_1 = Cosx,\ \ y_2 = Sinx;$

8. $y'' - \dfrac{y'}{x} = x,\ \ (x > 0)\ \ y_1 = 1,\ \ y_2 = x^2;$

9. $y'' + y = tg^2 x,\ \ x \in (-\dfrac{\pi}{2};\dfrac{\pi}{2})\ \ y_1 = Cosx,\ \ y_2 = Sinx;$

10. $y'' - y' = \dfrac{1}{e^{x-1}},\ \ y_1 = 1,\ \ y_2 = e^x;$

Tavsiyaetilganadabiyotlar

Асосий ва қўшимча ўқув адабиётлари ҳамда ахборот манбаалари

Асосий адабиётлар

1. Morris Tenebout, Harry Pollard. Ordinary Differential Equations. Birkhhauzer. Germany, 2010.
2. Robinson J.C. An Introduction to Ordinary Differential Equations. Cambridge University Press 2013.
3. Степанов В.В. Курс дифференциальных уравнений.М. КомКнига/ URSS 2006.-472с.
4. Эльсгольц Л.Е. Дифференциальные уравнения ивариационноеисчиление.М. КомКнига/ URSS 2006.-312с
5. Филиппов А.Ф. Сборник задач по дифференциальным уравнениям. М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Қўшимча адабиётлар

6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ, Тошкент, 2016. 56-б
7. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилганмажлисидаги маъруза,2017 йил 14 январъ –Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 104-б.
8. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабрь- Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 48-б.
9. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Мазкур китобдан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 1 ноябрдан 24 ноябрга қадар Қорақалпоғистон Республикаси,вилоятлар ва Тошкент шахри сайловчилари вакиллари билан ўтказилган сайловолди учрашувларида сўзлаган нутқлари ўрин олган.-Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 488-б.
10. Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н. Оддий дифференциал тенгламалар. Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.

11. Бибиков Ю.Н. Курс обыкновенных дифференциальных уравнений. М., 1991. 314 с.
12. Петровский И.Г. Лекции по теории обыкновенных дифференциальных уравнений. М.: изд-во Моск. Ун-та. 1984.
13. Демидович Б.П. Лекции по математической теории устойчивости. М.: Наука, 1987.
14. Федорюк М.В. Обыкновенные дифференциальные уравнения. М.: Наука.1980.
15. Самойленко А.М. и др. дифференциальные уравнения. М., 1989. 384 с.
16. Амелькин В.В. Дифференциальное уравнение в приложениях. М.: Наука. 1987.
17. Қаландаров А.Д., Меражова Ш.Б. Дифференциал тенгламалардан масалалар тўплами. Бухоро. "Дурдона", 2013

Интернет сайтлари

18. www.lib.homelinex.org/math
19. www.eknigu.com/lib/Mathematics/
20. www.eknigu.com/info/M_Mathematics/MC

19-Ma'ruza mashg'ulot.

1. "Bir jinsli bo'lmagan *n* - tartibli chiziqli differensial tenglama va ularning umumiy va xususiy echimlarini topish. O'garmaslarni variatsiyalash usuli. Koshi formulasi" ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi modeli

19-ma'ruza	**Bir jinsli bo'lmagan *n* - tartibli chiziqli differensial tenglama va ularning umumiy va xususiy echimlarini toppish. O'garmaslarni variatsiyalash usuli. Koshi formulasi.**
Vaqt-2 soat	Talabalar soni: 50nafardan oshmasligi kerak
O'quv mashg'uloti shakli	ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o'rganish
Mashg'ulot rejasi	1. Bir jinsli bo'lmagan n- chi tartibli chiziqli differensial tenglama. 2. O'garmaslarni,variatsiyalash usuli.
Asosiy tushuncha va atamalar	Bir jinsli bo'lmagan *n* - chi tartibli chiziqli differensial tenglama, xususiy va umumiy yechim, o'zgarmas koeffisiyentli bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamalar, variasiyalash metodi.
Amaliy mashg'ulotining maqsadi	O'quv fani to'g'risida umumiy ta'surotlar berish, Oddiy differensial tenglamalari va uni keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
1.O'rgatuvchi: Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik fikrlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; *2.Rivojlantiruvchi*: Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga	1.Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; 2.Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-

o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo’llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish; *3.Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o’rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.	sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini o’rganildi; talabalarning ijodiy mahoratini shakillandi; 3.*Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o’rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individualishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirishlar o’rganildi.
Ta'lim usuli va texnikasi	instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, “Insert” texnikasi;
Ta'lim shakli	frontal; jamoaviy;
Ta'lim vositalari	Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
	mashg'ulot bo'yicha o'quv materiallari, proektor, axborot texnologiylari vositalari.
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shaklda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Manitoring va baholash	Og'zaki so'rov, kuzatish.

2. "Bir jinsli bo’lmagan *n* - tartibli chiziqli differensial tenglama va ularning umumiy va xususiy echimlarini topish. O’garmaslarni variatsiyalash usuli. Koshi formulasi" ma’ruza texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. Mavzuning nomi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiriladi. 1.2. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi(19.1-ilova). 1.3.Talabalarning darsga tayyorgarlik darajasini aniqlash, bilimlarini faollashtirish maqsadida tezkor-savollar o'tkaziladi: 1)Bir jinsli bo’lmagan n - chi tartibli chiziqli tenglamaning yechimi qanday topiladi? 2)Variasiyalash usuli nimadan iborat? Mavzu, mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishi e'lon qilinadi.	Tinglaydilar. yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2- Asosiy bosqich.(55-daqiqa)	2.1.Talabalarni 4 ta o'quv guruhiga bo'linadi. Mavzu bo'yicha tarqatma material betriladi(19.2-ilova). Guruhlarda o'quv vazifasini bajarish bo'yicha ishni tashkil qiladi. Har bir guruh o'z vazifalarini oladi(18.3-ilova). O'quv faoliyati natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhlarda ish boshlanganligini ma’lum qiladi.Vazifani bajarishda o'quv materiallaridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Talabalarni faollashtirish va bilimlarini	Tinglaydilar; Guruhlarda ishlaydilar, Savollarga javob izlaydilar. Tinglaydilar; o'qiydilar; guruhlarda ishlaydilar,

	mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar berish mumkin: 1. Hozirgi zamon talablari nimalardan iborat deb bilasiz? 2.Zamon talablarini bajarishda kadrlarning malakasi qanday bo'lishi kerak? 3. Axborot texnologiyalarini qo'llashni bilish, nimalarni taqoza etadi? 4.Fundamental yechimlar sistemasi ma’lum bo’lsa, bir jinsli bulmagan tenglamaning umumiy yechimi qanday topiladi? 5. Bir jinsli bulmagan n-nchi tartibli chizikli tenglamaning yechimi qanday topiladi? 6. Variasiyalash usuli nimadan iborat? 7 . Xrakteristik tenglama qanday tuziladi? 2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Taqdimot vaqtida javoblarga izoh beradi, to'gri e'chimlarga e'tibor beradi, xatolarni ko'rsatadi. Talabalar bilan birgalikda javoblar to'g'riligini baholaydi, savollarga javob beradi. 2.4. Guruhlar bajargan ishlari bo'yicha o'z-o'zini baholaydilar va tekshiradilar. 2.5. Javoblarni to'ldiradi va qisqacha xulosalar qiladi.	asoaiylarni yozadilar. Tinglaydilar; savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar; misol va masalalarni daftarda echadilar. Guruh liderlari topshiriqlar javoblarini aytadilar. Liderlar o'z guruhlarida baholash o'tkazadilar. Tinglaydilar.
3- bosqich, yakuniy(15 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2.Mashg'ulotda maqsadga erishishdagi, talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi(19.3-19.4 ilovalar). 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi(19.5 -ilova) va uning baholash mezonlari aytiladi.	Savol beradilar. Tinglaydilar; muhokamada qatnashadilar. Topshiriqlarni yozadilar.

19.1-ilova

Har bir mashg'ulot 0,5 balldan 2 ballgacha baholanadi. Ekspert guruxlarning ish natijalarini baholovchi me'zonlari

Me'zonlar	Ball	%	Gurux natijalari bahosi			
			1	2	3	4
Axborotning to'liqligi	1,0	50				
Masala yechimining boshqacha usuli, illyustratsiyasi(grafik tarzda taqdim etish, ayrim hisoblashlarni aniq ko'rsatish va h.k.)	0,6	30				
Gurux faolligi (qo'shimcha, berilgan savol, javoblarning soni)	0,4	20				
JAMI	2	100				

86-100% / a'lo"
71-85% / - "yaxshi"
55-70% / - "qoniqarli"
0-54%-- "qoniqarsiz".

19.2-ilova

"Bir jinsli bo'lmagan *n* - tartibli chiziqli differensial tenglama va ularning umumiy va xususiy echimlarini topish. O'garmaslarni variatsiyalash usuli. Koshi formulasi" mavzusi bo'yicha tarqatma material

n (n>1)- chi tartibli bir jinsli bo'lmagan chiziqli differensial tenglamaning umumiy ko'rinishi
$y^{(n)}+p_1(x)y^{(n-1)}+p_2(x)y^{(n-2)}+...+p_{n-1}(x)y'+p_n(x)y=f(x)$ (1)
dan iboratdir.

Bunda $p_1(x)$ $i=\overline{1,n}$ funksiyalar ko'rilayotgan oraliqda aniqlangan va uzluksiz funksiyalardir. $f(x)$ funksiya ham uzluksizdir.

(1) tenglamaning koeffisiyentlaridan tuzilgan
$y^{(n)}+p_1(x)y^{(n-1)}+p_2(x)y^{(n-2)}+...+p_{n-1}(x)y'+p_n(x)y=0$ (2)
tenglamaga, (1) tenglamaga mos bo'lgan bir jinsli tenglama deyiladi.

TEOREMA-1. (1) tenglamaning umumiy yechimi, uning biror Y_1 xususiy yechimi bilan (1) tenglamaga mos bo'lgan (2) bir jinsli tenglama umumiy yechimining yig'indisiga tengdir.

$$y=Y_1+\sum_{i=1}^{n}c_iy_i$$

Bunda y_i, $i=\overline{1,n}$ (2) tenglamaning fundamental yechimlar sistemasidir.

Isbot. Y_1 (1) tenglamaning xususiy yechimi bo'lsin.

$$y=Y_1+z \quad (3)$$

almashtirishni olamiz.

(3) ni (1) tenglamaga qo'yamiz.

$$L[Y_1+z]=f(x)$$

$L[Y_1]+L[z]=f(x)$

Lekin $L[Y_1]=f(x)$ bo'lgani uchun keyingi tenglikdan

$L[z]=0$ $L[z]=f(x)$

Bu esa bir jinsli tenglamadir. Agar bu tenglamaning fundamental yechimlar sistemasi $y_1, y_2, ..., y_n$ bo'lsa, uning umumiy yechimi

$$z=\sum_{i=1}^{n}c_iy_i \qquad \text{bo'ladi.}$$

(3) ga asosan (1) tenglamaning umumiy yechimi

$$y=Y_1+\sum_{i=1}^{n}c_iy_i$$

dan iborat bo'ladi.

O'zgarmaslarni variasiyalash metodi (Lagranj metodi).

n- chi tartibli bir jinsli bo'lmagan chiziqli
$y^{(n)}+p_1(x)y^{(n-1)}+p_2(x)y^{(n-2)}+...+p_{n-1}(x)y'+p_n(x)y=f(x)$ (1)
differensial tenglama berilgan bo'lsin va unga mos bir jinsli
$y^{(n)}+p_1(x)y^{(n-1)}+p_2(x)y^{(n-2)}+...+p_{n-1}(x)y'+p_n(x)y=0$ (2)
chiziqli differensial tenglamaning umumiy yechimi

$$y=\sum_{i=1}^{n}c_iy_i \qquad (3)$$

berilgan bo'lsin.

$$\sum_{i=1}^{n} c'_i(x)y_i^{(n-1)}=f(x) \qquad (7)$$

Bo'ladi.

Shunday qilib $c_i(x)$ larni aniqlash uchun

$$\sum_{i=1}^{n} c'_i(x)y_i=0$$

$$\sum_{i=1}^{n} c'_i(x)y'_i=0$$

$$\sum_{i=1}^{n} c'_i(x)y''_i=0 \qquad (8)$$

$$-\,-\,-\,-\,-\,-\,-\,-\,-$$

$$\sum_{i=1}^{n} c'_i(x)y_i^{(n-1)}=f(x)$$

tenglamalar sistemasiga ega bo'lamiz.Bu sistema $c'_i(x)$ larga nisbatan n noma'lumli n ta bir jinsli bo'lmagan algebraik tenglamalar sistemasi bo'lib. Uning asos determinanti Vronskiy determinantidan iborat bo'lgani uchun *u* nolga teng emas: $W(x)\neq 0$

Shuning uchun (8) sistemasidan $c'_i(x)$ lar bir qiymatli aniqlanadi:

$$c'_i(x) = \frac{W_{ni}(x) f(x)}{W(x)} \qquad (9)$$

bunda $W_{ni}(x)$ Vronskiy determinantidagi *W(x)*-ning n -chi satr, *i*-chi ustun elementining algebraik to'ldiruvchisidir

$\frac{W_{ni}(x) f(x)}{W(x)}$ funksiya uzluksiz bo'lgani uchun (9) dan

$$c_i(x) = \int_{x_0}^{x} \frac{W_{ni}(x) f(x)}{W(x)} dx + \gamma_i$$

bu qiymatlarni (3) ga qo'ysak

$$y = \sum_{i=1}^{n} y_i \left[\int_{x0}^{x} \frac{W_{ni}(x) f(x)}{w(x)} dx + \gamma_i \right] = \sum_{i=1}^{n} y_i \int_{x0}^{x} \frac{W_{ni}(x) f(x)}{w(x)} dx + \sum_{i=1}^{n} y_i \gamma_i \quad (10)$$

Bu bir jinsli bo'lmagan (1) tenglamaning umumiy yechimidir.
Bunda birinchi summa (1) tenglamaning xususiy yechimi bulib, ikkinchi summa esa (1) tenglamaga mos bo'lgan bir jinsli tenglamaning umumiy yechimidir.
Misol

$$y'' + y = tgx \qquad \lambda^2 + 1 = 0 \quad \lambda_{1,2} = \pm i \qquad (11)$$

$$y_1 = \cos x, \quad y_3 = \sin x \quad \overline{y} = \ell^{ix} = \cos x + i \sin x, \quad y = c_1 \cos x + c_2 \sin x$$

$$\begin{cases} c_1^1(x) \cos x + c_2^1(x) \sin x = 0 \\ c_1^1(x) \sin x + c_2^1(x) \cos x = tgx \end{cases}$$

$$W(x) = \begin{vmatrix} \cos x & \sin x \\ \sin x & \cos x \end{vmatrix} = \cos^2 x + \sin^2 x = 1$$

$$c_1^1(x) = -\sin x \cdot tgx = -\frac{\sin^2 x}{\cos^2 x}$$

$$c_1^1(x) = \cos x \, tgx = \sin x$$

$$c_1(x) = -\int \frac{\sin^2 x}{\cos x} dx + \gamma_1 = -\int \frac{1 - \cos^2 x}{\cos x} dx +_{11} = -\ell_n \left| tg\left(\frac{x}{2} + \frac{\pi}{4}\right) \right| + \sin x + \gamma_1$$

$$c_2(x) = \int \sin x dx + \gamma_2 = -\cos x + \gamma_2$$

Bu kiymatlarni (11) ga kuyib

$$y = \left[-\ell n \left| tg\left(\frac{x}{2} + \frac{\pi}{4}\right) \right| + \sin x + \gamma_1 \right] \cos x + (-\cos x + \gamma_2) \sin x =$$

$$= \gamma_1 \cos x + \gamma_2 \sin x - \cos x \ell n \left| tg\left(\frac{x}{2} + \frac{\pi}{4}\right) \right|$$

Berilgan tenglamaning umumiy yechimiga ega bo'lamiz

21.3-ilova

Insert texnikasini qo'llagan holda ish yuritish qoidalari

1. Matnni o‘qing.
2. Matn qatorlariga qalam bilan beligilar qo‘yib, olingan ma’lumotni tizimlashtiring:
V - ... haqida mavjud bo‘lgan bilimlar (ma’lumotlar) mos keladi
- (minus) - ... haqidagi mavjud bilimlarga e’tiroz bildiradi.
+ (plyus) - yangi ma’lumotlar hisoblanadi.
? - tushunarsiz / aniqlik / qo‘shimcha ma’lumot talab qiladi

B/Bx/Bo texnikasini qo‘llagan holda ish yuritish qoidalari

1. “Insert” texnikasidan foydalanib matnni o‘qing.
2. Olingan ma’lumotlarni tizimlashtiring – matnga qo‘yilgan belgilar asosida tablitsa qatorlarini to‘ldirib chiqing.

B/Bx/Bo (Bilaman / Bilishni xoxlayman / Bilib oldim)

№	Mavzu savollari	Bilaman (Q)	Bilishni xoxlayman (?)	Bilib oldim
1	Bir jinsli bo’lmagan n-nchi tartibli chiziqli tenglamaning yechimi qanday topiladi?			
2	Variasiyalash usuli nimadan iborat?			
3	Fundamental yechimlar sistemasi ma’lum bo’lsa, bir jinsli bo’lmagan tenglamaning umumiy yechimi qanday topiladi?			

21.4-ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo‘lmog‘i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog‘i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo‘yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4.Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchra-masligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o‘qituvchi ularga yo‘riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo‘lganda ham muloqotda bo‘ling, o‘z fikringizni erkin namoyon eting.

21.5-ilova

" *n* - chi tartibli o’garmas koeffitsientli bir jinsli bo’lmagan chiziqli differenstial tenglamalar" mavzusi bo‘yicha mustaqil ish uchun savollar

Tenglamani o’zgarmaslarni variasiyalash metodi bilan yeching.

1. $y'' + 4y = \dfrac{1}{\cos 2x}$ **2.** $y'' + y = tg\ x$

3. $y'' - y = \dfrac{1}{x}$

4. $y''' + y' = \dfrac{\sin x}{\cos^2 x}$

5. $y'' - 2y' + y = \dfrac{x^2 + 2x + 2}{x^3}$

6. $y'' - y' = \dfrac{2 - x}{x^3} e^x$

7. $y'' - y = 4\sqrt{x} + \dfrac{1}{x\sqrt{x}}$

8. $y'' + y = \dfrac{1}{\sin 2x \sqrt{\cos 2x}}$

9. $y'' + y = \dfrac{1}{\sin x}$

10. $y'' - y = \dfrac{1}{e^x + 1}$

Tavsiya etilgan adabiyotlar

Асосий ва қўшимча ўқув адабиётлари ҳамда ахборот манбаалари

Асосий адабиётлар

41. Morris Tenebout, Harry Pollard. Ordinary Differential Equations. Birkhhauzer. Germany, 2010.
42. Robinson J.C. An Introduction to Ordinary Differential Equations. Cambridge University Press 2013.
43. Степанов В.В. Курс дифференциальных уравнений.М. КомКнига/ URSS 2006.-472с.
44. Эльсгольц Л.Е. Дифференциальные уравнения ивариационноеисчиление.М. КомКнига/ URSS 2006.-312с
45. Филиппов А.Ф. Сборник задач по дифференциальным уравнениям. М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Қўшимча адабиётлар

46. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ, Тошкент, 2016. 56-б.
47. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилганмажлисидаги маъруза,2017 йил 14 январъ –Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 104-б.
48. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабрь- Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 48-б.
49. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Мазкур китобдан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 1 ноябрдан 24 ноябрга қадар Қорақалпоғистон Республикаси,вилоятлар ва Тошкент шахри сайловчилари вакиллари билан ўтказилган сайловолди учрашувларида сўзлаган нутқлари ўрин олган.-Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 488-б.
50. Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н. Оддий дифференциал тенгламалар. Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.
51. Бибиков Ю.Н. Курс обыкновенных дифференциальных уравнений. М., 1991. 314 с.
52. Петровский И.Г. Лекции по теории обыкновенных дифференциальных уравнений. М.: изд-во Моск. Ун-та. 1984.
53. Демидович Б.П. Лекции по математической теории устойчивости. М.: Наука, 1987.
54. Федорюк М.В. Обыкновенные дифференциальные уравнения. М.: Наука.1980.
55. Самойленко А.М. и др. дифференциальные уравнения. М., 1989. 384 с.
56. Амелькин В.В. Дифференциальное уравнение в приложениях. М.: Наука. 1987.
57. Қаландаров А.Д., Меражова Ш.Б. Дифференциал тенгламалардан масалалар тўплами. Бухоро. “Дурдона”, 2013

Интернет сайтлари

58. www.lib.homelinex.org/math
59. www.eknigu.com/lib/Mathematics/
60. www.eknigu.com/info/M_Mathematics/MC

22-Ma’ruza mashg’ulot.

1. “ n −chi tartibli bir jinsli bo’lmagan o’zgarmas koffitsientli chiziqli differenstial tenglamalarning xususiy yechimlarini topish usullari” ma’ruza mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi modeli

22-ma’ruza	**n-chi tartibli bir jinsli bo’lmagan o’zgarmas koffitsientli chiziqli differenstial tenglamalarning xususiy yechimlarini topish usullari.**
Vaqt-2 soat	Talabalar soni: 50nafardan oshmasligi kerak
O'quv mashg'uloti shakli	ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o’rganish
Mashg'ulot rejasi	1.O’zgarmas koeffisiyentli bir jinsli bo’lmagan chiziqli differensial tenglamalar. 2.Xususiy yechimlarni topish qoidalari.
Asosiy tushuncha va atamalar	O’zgarmas koeffisiyentli chiziqli tenglama, xarakteristik tenglama, xususiy yechim, karrali ildiz, kompleks ildiz, xususiy yechim
Amaliy mashg'ulotining maqsadi	O’quv fani to’g’risida umumiy ta’surotlar berish, Oddiy differensial tenglamalari va uni keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
1.O’rgatuvchi: Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik fikrlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; *2.Rivojlantiruvchi*: Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo’llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish; *3.Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o’rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik	1.Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; 2.Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o’tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini o’rganildi; talabalarning ijodiy mahoratini shakillandi; 3.*Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o’rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg’ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individualishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirishlar o’rganildi.

tyug'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.	
Ta'lim usuli va texnikasi	instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
Ta'lim shakli	frontal; jamoaviy;
Ta'lim vositalari	Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
	mashg'ulot bo'yicha o'quv materiallari, proektor, axborot texnologiylari vositalari.
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shaklda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Manitoring va baholash	Og'zaki so'rov, kuzatish.

2. " n-chi tartibli bir jinsli bo'lmagan o'zgarmas koffitsientli chiziqli differenstial tenglamalarning xususiy yechimlarini topish usullari" ma'ruza texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzuning nomi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiriladi. 1.2. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi(22.1-ilova). 1.3.Talabalarning darsga tayyorgarlik darajasini aniqlash, bilimlarini faollashtirish maqsadida tezkor-savollar o'tkaziladi: 1) O'zgarmas koeffisiyentli chiziqli tenglama deb, qanday tenglamaga aytiladi? 2) Xarakteristik tenglama qanday tuziladi? Mavzu, mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishi e'lon qilinadi.	Tinglaydilar. yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2- Asosiy bosqich.(55-daqiqa)	2.1.Talabalarni4 ta o'quv guruhiga bo'linadi. Mavzu bo'yicha tarqatma material betriladi(22.2-ilova). Guruhlarda o'quv vazifasini bajarish bo'yicha ishni tashkil qiladi. Har bir guruh o'z vazifalarini oladi(22.3-ilova). O'quv faoliyati natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi.Vazifani bajarishda o'quv materiallaridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Talabalarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar berish mumkin: 1. Hozirgi zamon talablari nimalardan iborat deb bilasiz? 2.Zamon talablarini bajarishda kadrlarning malakasi qanday bo'lishi kerak? 3. Axborot texnologiyalarini qo'llashni bilish, nimalarni taqoza etadi? 4.Differensial tenglamalar fani va uning insoniyat tarixidagi ro'li hamda uning rivoji nimalardan iborat deb bilasiz? 5. $f(x)$ning ko'rinishi$P_m(x)$ko'rinishda bo'lsa xususiy	Tinglaydilar; Guruhlarda ishlaydilar, Savollarga javob izlaydilar. Tinglaydilar; o'qiydilar; guruhlarda ishlaydilar, asoaiylarni yozadilar. Tinglaydilar; savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar; misol va masalalarni daftarda

	yechim qanday topiladi? 6. $f(x)$ning ko'rinishi$P_n(x)cos\beta x+R_m(x)sin\beta x$ ko'rinishda bo'lsa xususiy yechim qanday topiladi? 7.$f(x)$ning ko'rinishi$E^{\alpha x}P_m(x)$(α-haqiqiy son) ko'rinishda bo'lsa xususiy yechim qanday topiladi? 2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Taqdimot vaqtida javoblarga izoh beradi, to'gri e'chimlarga e'tibor beradi, xatolarni ko'rsatadi. Talabalar bilan birgalikda javoblar to'g'riligini baholaydi, savollarga javob beradi. 2.4. Guruhlar bajargan ishlari bo'yicha o'z-o'zini baholaydilar va tekshiradilar. 2.5. Javoblarni to'ldiradi va qisqacha xulosalar qiladi.	echadilar. Guruh liderlari topshiriqlar javoblarini aytadilar. Liderlar o'z guruhlarida baholash o'tkazadilar. Tinglaydilar.
3- bosqich, yakuniy(15 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2.Mashg'ulotda maqsadga erishishdagi, talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi(22.3-22.4 ilovalar). 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi(22.5-ilova) va uning baholash mezonlari aytiladi.	Savol beradilar. Tinglaydilar; muhokamada qatnashadilar. Topshiriqlarni yozadilar.

22.1-ilova

Har bir mashg'ulot 0,5 balldan 2 ballgacha baholanadi. Ekspert guruxlarning ish natijalarini baholovchi me'zonlari

Me'zonlar	Ball	%	Gurux natijalari bahosi			
			1	2	3	4
Axborotning to'liqligi	1,0	50				
Masala yechimining boshqacha usuli, illyustratsiyasi(grafik tarzda taqdim etish, ayrim hisoblashlarni aniq ko'rsatish va h.k.)	0,6	30				
Gurux faolligi (qo'shimcha, berilgan savol, javoblarning soni)	0,4	20				
JAMI	2	100				

86-100% / a'lo"
71-85% / - "yaxshi"
55-70% / - "qoniqarli"
0-54%-- "qoniqarsiz".

22.2-ilova

" *n* - chi tartibli o'garmas koeffitsientli bir jinsli bo'lmagan chiziqli differenstial tenglamalar" mavzusi bo'yicha tarqatma material

Bunday tenglamaning umumiy ko'rinishi

$$L[y] \equiv y^{(n)} + a_1 y^{(n-1)} + a_2 y^{(y-2)} + ...+ a_{n-1} y^1 + a_n y = f(x) \qquad (1)$$

yoki $L[y] = f(x)$

dan iborat

Bunda $a_i\,(i=\overline{1,n})$ o'zgarmas sonlar bo'lib, $f(x)$ ko'rilayotgan oraliqda aniqlangan va uzluksizdir.

(1) Tenglamaning o'ng tomoni bir necha funksiyalarning yig'indisidan iborat bo'lishi mumkin.

Masalan $f(x)=f_1(x)+f_2(x)$ bo'lsin u xolda

$$L[y]=f_1(x)+f_2(x) \qquad (2)$$

bo'ladi.

LEMMA. Agar y_1 $L[y]=f_1(x)$ tenglamaning yechimi, y_2 *эса* $L[y]=f_2(x)$ tenglamaning yechimi bo'lsa, u xolda y_1+y_2 xam (2) tenglamaning yechimi bo'ladi.

Haqiqatdan xam operator xossasiga ko'ra

$$L[y_1+y_2]=L[y_1]+L[y_2]$$

Lekin shart asosi $L[y_1]\equiv f_1(x), \quad L[y_2]\equiv f_2(x)$

bo'lgan uchun

$$L[y_1+y_2]\equiv f_1(x)+f_2(x)$$

ga ega bo'lamiz.

Bundan y_1+y_2 (2) tenglamaning yechimi ekanligi kelib chiqadi.

Ma'lumki bir jinsli bo'lmagan tenglamaning umumiy yechimi, uning biror xususiy yechimi bilan unga mos bo'lgan bir jinsli tenglama umumiy yechimining yig'indisiga teng.Shuning uchun biz dastavval (1) tenglamaning xususiy yechimini topish yo'llarini qaraymiz.

$f(x)$ ning ba'zi bir xusuiy ko'rinishlarida berilgan tenglamaning xususiy yechimini kvadraturasiz topish mumkin.

1 xol.

$$f(x)=P_m(x)e^{\alpha x}$$

Ko'rinishda bo'lsin.

Bunda $$P_m(x)=p_0x^m+p_1x^{m-1}+\ldots..+p_{m-1}x+p_m \qquad (3)$$

$p_i\,(i=\overline{0,m})$ - lar o'zgarmas sonlar

ya'ni $P_m(x), x$ ga nisbatan m-chi darajali ko'pxadli.

Bu xolda (1) tenglamaning xususiy yechimini

$$Y=Q_m(x)e^{\alpha x} \qquad (4)$$

ko'rinishda izlaymiz.

Bunda xam $Q(x), x$ - ga nisbatan m - nchi darajali kupxadli

$$Q_m(x)=q_0x^m+q_1x^{m-1}+\ldots..+q_{m-1}x+q_m \qquad (5)$$

$q_i\,(i=\overline{0,m})$ o'zgarmas sonlar

Bu o'zgarmas sonlarni shunday aniqlaymizki (4) , (1) tenglamaning yechimi bo'lsin.

$$L[Q_m(x)e^{\alpha x}]\equiv P_m(x)e^{\alpha x} \qquad (6)$$

1) α xarakteristik tenglamaning ildizi bo'lmasin.

(5) ga ko'ra (6) ni quyidagicha yozib olamiz.

$$L[(q_0x^m+q_1x^{m-1}+q_2x^{m-2}+\ldots+q_{m-1}x+q_m)e^{\alpha x}]=P_m(x)e^{\alpha x}$$

yoki $$L[Q_m(x)e^{\alpha x}]=L[\sum_{j=0}^{m}q_jx^{m-j}e^{\alpha x}]=\sum_{j=0}^{m}q_jL[x^{m-j}e^{\alpha x}]=$$

$$=\sum_{j=0}^{m}q_j\sum_{i=0}^{m-j}C_{m-j}^{i}F^{(i)}(\alpha)x^{m-j-i}e^{\alpha x}$$

$$\sum_{j=0}^{m} q_j (F(\alpha)x^{m-j} + C_{m-j}^1 F'(\alpha)x^{m-j-1} C_{m-j}^2 F''(\alpha)x^{m-j-2} +$$
$$+ C_{m-j}^3 F'''(\alpha)x^{m-j-3} + ...+ C_{m-j}^{m-j-1} F^{(m-j-1)}(\alpha)x +$$
$$+ C_{m-j}^{m-j} F^{(m-j)}(\alpha)e^{\alpha x} = P_m(x)e^{\alpha x}$$

$e^{\alpha x} \neq 0$ bo'lmagani uchun, keyingi tenglamaning xar ikkala tomonini $\ell^{\alpha x}$ ga bo'lsak

$$\sum_{j=0}^{m} q_j (F(\alpha)x^{m-j} + C_{m-j}^1 F'(\alpha)x^{m-j-1} + C_{m-j}^2 F''(\alpha)x^{m-j-2} + ...+ \qquad (7)$$
$$+ C_{m-j}^{m-j-1} F^{(m-j-1)}(\alpha)x + F^{(m-j)}(\alpha)) = P_m(x)$$

Bu tenglikning bajarilishi uchun o'ng va chap tomondagi x- ning bir xil darajali xad oldidagi koeffisiyentlar teng bo'lishi kerak .x ning bir xil darajali xadlar oldidagi koeffisentlarini tenglashtiramiz.

$$\left|\begin{array}{l} q_o F(\alpha) = p_0 \\ q_1 F(\alpha) + q_0 C_m^1 F'(\alpha) = p_1 \\ q_2 F(\alpha) + q_1 C_{m-1}^1 F'(\alpha) + q_0 C_m^2 F''(\alpha) = p_2 \\ . \\ q_m F(\alpha) + q_{m-1} F^1(\alpha) + ... + q_0 F^{(m)}(\alpha) = p_m \end{array}\right. \qquad (8)$$

α xarakteristik tenglamaning ildizi bo'lmagani uchun $F(\alpha) \neq 0$ emas.Shuning uchun (8) sistemadan ketma-ket $q_0, q_1, ..q_m$ koeffisiyentlarni $p_0, p_1, ..., p_m$ lar orqalianiqlaymiz.

Boshqacha aytganda (8) sistemadan, uning asos determinanti $[F(\alpha)]^{m+1} \neq 0$ bo'lmagani sababli

undan $q_i\ (i = \overline{1, n})$ lar bir qiymati aniqlanadi bu topgan qiymatlarni (4) ga qo'ysak, (1) tenglamaning xususiy yechimi aniqlanadi. U xolda (1) tenglamaga mos bo'lgan bir jinsli tenglamaning umumiy yechimini topsak, (1) tenglamaning umumiy yechimi aniqlanadi.

Misol-1.

$y'' - 3y' + 2y = (x^2 + x)e^{3x} \qquad \alpha = 3$

$y'' - 3y' + 2y = 0 \qquad \lambda^2 - 3\lambda + 2 = 0 \qquad \lambda_{1,2} = \dfrac{3 \pm 1}{2}$

$\lambda_1 = 1, \qquad \lambda_2 = 2.$

$\alpha = 3$ xarakteristik tenglamaning ildizi emas

$P_2(x)e^{3x} = (x^2 + x)e^{3x}$ bo'lgani uchun

$Y = Q_2(x)e^{3x} = (Ax^2 + Bx + C)e^{3x}$

$Y' = [3Ax^2 + (2A + 3B)x(B + 3C)]e^{3x}$

$Y'' = [6Ax^2 + 2A + 3B]e^{3x} 3[3Ax^2 + (2A + 3B)x + (B + 3C)]e^{3x} =$

$= [9Ax^2 + (12A + 9B)x + (6B + C]e^{3x}$

y, y', y'' qiymatlarniberilgantenglamagaqo'yib, so'ngra$x$ ningbirxildarajalarioladidagikoeffisiyentlarnitenglashtirsak

$$\begin{cases} 2A = 1 \\ 6A + 2B = 1 \\ 3B + 2c = 0 \end{cases}$$

tenglamalarga ega bo'lamiz.

Bundan $A=\frac{1}{2}, \quad B=-1; \quad C=1$

U xolda berilgan tenglamaning xususiy yechimi

$$Y=\left(\frac{1}{2}x^2-x+1\right)e^{3x}$$

Uning umumiy yechimi esa

$$y=c_1e+c_2e^{2x}+\left(\frac{1}{2}x-x+1\right)e^{3x}$$

dan iborat bo'ladi.

2) α - xarkteristik tenglamaning k –karrali ildizi bo'lsin

$$F(\alpha)=0 \quad F'(\alpha)=0,\ldots.., \quad F^{(k-1)}(\alpha)=0 \qquad F^{(k)}(\alpha)\neq 0$$

U xolda (1) tenglamaning xususiy yechimini

$$Y=x^kQ_m(x)e^{\alpha x} \tag{9}$$

ko'rinishda izlaymiz.

Bunda xam $Q_m(x)$ x ga nisbatan m –chi darajali kupxadli.

$$Q_m(x)=\sum_{j=0}^{m}q_jx^{m-j} \tag{10}$$

$q_j\,(j=\overline{0,m})$ o'zgarmas sonlar. Ularni shunday tanlab olamizki, (9), (1) tenglamaning qanoatlantirsin.

q_j larnianiqlash uchun (9) ni (1) tenglamaga qo'yamiz.

$$L[x^kQ_m(k)e^{\alpha x}]\equiv P_m(x)e^{\alpha x} \qquad \text{yoki}$$

$$L[\sum_{j=0}^{m}q_jx^{m-j+k}e^{\alpha x}]\equiv P_m(x)e^{\alpha x}$$

Operator xossasiga asosan, o'zgarmas soni operetor ishorasidan tashqari chiqarish mumkin

$$\sum_{j=0}^{m}q_jL[x^{m+k-j}e^{\alpha x}]=P_m(x)e^{\alpha x}$$

$$\sum_{j=0}^{m}q_j\sum_{i=0}^{m+k-j}C_{m+k-j}^{i}F^{(i)}(\alpha)x^{m+k-j-i}ee^{\alpha x}=P_m(x)e^{\alpha x} \tag{11}$$

$$\sum_{j=0}^{m}q_j\sum_{i=0}^{m+k-j}C_{m+k-j}^{i}F^{(i)}(\alpha)x^{m+k-j-i}=P_m(x)$$

Shartga asosan α xarakteristik tenglamaning k karrali ildizi. Shuning uchun (11) tenglikni

$$\sum_{j=0}^{m}q_j\sum_{i=k}^{m+k-j}C_{m+k-j}^{i}F^{(i)}(\alpha)x^{m+k-j-i}\equiv P_m(x) \tag{12}$$

ko'rinishda yozish mumkin.

Ichki summani ochib chiqamiz.

$$\sum_{j=0}^{m}q_j[C_{m+r-j}^{k}F^{(k)}(\alpha)x^{m-j}+C_{m+k-j}^{k+1}F^{(k+i)}(\alpha)x^{m-j-1}+$$

$$+C_{m+k-j}^{k+2}F^{(k+2)}(\alpha)x^{m-j-2}+\ldots+C_{m+k-j}^{m+k-j-1}F^{m+k-j-1)}(\alpha)x+$$

$$+C_{m+k-j}^{m+k-j}F^{(m+k+i)}(\alpha)]\equiv p_0x^m+p_1x^{m-1}+p_2x^{m-2}+\ldots.+P_m$$

Aniqmas koeffisiyentlar metodidan foydalanib keyingi tenglikdan q_j larni aniqlaymiz.

$$q_0C_{m+k}^{k}F^{(k)}(\alpha)=p_0$$

$$q_1C_{m+k-1}^{k}F^{(k)}(\alpha)+q_0C_{m+k}^{k+1}F^{(k)}(\alpha)=p_1$$

$$q_2C_{m+k-2}^{k}F^{(k)}(\alpha)+q_1C_{m+k}^{k+1}F^{(k+1)}(\alpha)+q_0C_{m+k}^{k+2}F^{(k+2)}(\alpha)=p_2$$

$$-----------------------------------$$

$$q_mF^{(k)}(\alpha)+q_{m-1}F^{(k+1)}(\alpha)+q_{m-1}+....+q_0F^{(k+k)}(\alpha)=p_m$$

α, xarakteristik tenglamaning k-karrali yechimi ildizi bo'lgan uchun $F^{(k)}(\alpha)\neq 0$

Shuning uchun yuqoridagi sisitemadan $q_0,q_1,q_2,..q_m$ lar bir qiymatli aniqlanadi.q_j-ning topilgan bu qiymatlarini (9) ga qo'ysak (1) tenglamaning xususiy yechimi topiladi. Bu xolda uning umumiy yechimi xam aniqlanadi.

Misol-2.

$$y''-2y'+y=e^x \qquad \alpha=1$$

$$y''-2y'+y=0 \qquad \lambda^2-2\lambda+1=0 \qquad (\lambda-1)^2=0 \qquad \lambda_{1,2}=1$$

1, xarkteristik tenglamaning ikki karrali ildizi.Bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi

$$u=(c_1+c_2x)e^x$$

$$Y=Ax^2e^x \qquad A=\frac{1}{2} \qquad Y=\frac{1}{2}x^2e^x$$

$$y=u+Y=(c_1+c_2x)e^x+\frac{1}{2}x^2e^x$$

3-xol

$$f(x)=e^{\alpha x}[P_n(x)\cos\beta x+R_m(x)\sin\beta x]$$

ko'rinishda bo'lsin.

Bu xolda xususiy yechimni quyidagicha topamiz.

$$\cos\beta x=\frac{e^{i\beta x}+e^{-i\beta x}}{2} \qquad \sin\beta x=\frac{e^{i\beta x}-e^{-i\beta x}}{2i}=-\frac{e^{i\beta x}-e^{-i\beta x}}{2}i$$

$$f(x)=e^{\alpha x}\left[\frac{e^{i\beta x}+e^{-i\beta x}}{2}\cdot P_n(x)-R_m(x)\frac{e^{i\beta x}-e^{-i\beta x}}{2}i\right]=$$

$$=\frac{1}{2}[P_n(x)-iR_m(x)]e^{(\alpha+i\beta)x}+\frac{1}{2}[P_n(x)+iR_m(x)]e^{(\alpha-i\beta)x}=$$

$$=\tilde{P}_\tau(x)e^{(\alpha+i\beta)x}+\tilde{R}_\tau(x)e^{(\alpha-i\beta)x} \qquad \tau=\max(n,m)$$

$$Y = \tilde{Q}_\tau(x)e^{(\alpha+i\beta)x} + \tilde{F}_\tau(x)e^{(\alpha-i\beta)x}$$

$$\tilde{Q}_\tau(x) = \frac{1}{2}(Q_\tau(x) - iF_\tau(x)) \qquad \tilde{F}_\tau(x) = \frac{1}{2}(Q_\tau(x) + iF_\tau(x))$$

$$Y = \frac{1}{2}(Q_\tau(x) - iF_\tau(x))e^{(\alpha+i\beta)x} + \frac{1}{2}(Q_\tau(x) + iF_\tau(x))e^{(\alpha-i\beta)x} =$$

$$= \frac{1}{2}(Q_\tau(x) - iF_\tau(x))e^{\alpha x}(\cos\beta x + i\sin\beta x) + \frac{1}{2}(Q_\tau(x) + iF_\tau(x))e^{\alpha x}(\cos\beta x - i\sin\beta x) =$$

$$= \frac{1}{2}e^{\alpha x}[Q_\tau(x)\cos\beta x - iF_\tau(x)\cos\beta x + iQ_\tau(x)\sin\beta x + F_\tau(x)\sin\beta x +$$

$$+ Q_\tau(x)\cos\beta x + iF_\tau(x)\cos\beta x - iQ_\tau(x)\sin\beta x + F_\tau(x)\sin\beta x] =$$

$$= e^{\alpha x}[Q_\tau(x)\cos\beta x + F_\tau(x)\sin\beta x]$$

Demak bu xolda xususiy yechimni

$$Y = e^{\alpha x}[Q_\tau(x)\cos\beta x + F_\tau(x)\sin\beta x] \qquad (13)$$

ko'rinishda izlash kerak.

Bunda $\tau = \max(n,m)$.

Agar $\alpha \pm i\beta$ xarakteristik tenglamaning ildizi bo'lmasa, (1) tenglamaning xususiy yechimini (13) ko'rinishda izlaymiz.

Agar $\alpha \pm i\beta$ xarakteristik tenglamaning k karrali ildizi bo'lsa, xususiy yechimni

$$Y = x^k e^{\alpha x}[Q_\tau(x)\cos\beta x + F_\tau(x)\sin\beta x]$$

ko'rinishda izlaymiz.

Misol-3

$$y'' - 8y' + 20y = 5xe^{4x}\sin 2x \qquad \alpha = 4 \pm 2i$$

$$y'' - 8y' + 20y = 0 \qquad \lambda^2 - 8\lambda + 20 = 0 \qquad \lambda_{1,2} = 4 \pm 2i$$

F(α)=0 ya'ni α= $4 \pm 2i$ xarakteristik tenglamaning ildizi

$$Y = xe^{4x}[(Ax+B)\cos 2x + (Cx+D)\sin 2x]$$

ko'rinishda izlaymiz.

Y-xususiy yechimni topish jadvali.

	f(x) ning ko'rinishi	F(λ)=0 xarakteristik teng. ildizi	Y xususiy yechimning ko'rinishi
1.	$P_m(x)$	0 soni xarak. teng.ildizi emas	$Q_m(x)$
		0 soni xarak.teng.k karrali ildizi	$x^k Q_m(x)$
2.	$E^{\alpha x}P_m(x)$ (α-haqiqiy son)	α soni xarak. teng.ildizi emas	$e^{\alpha x}Q_m(x)$
		α soni xarak.teng.k karrali ildizi	$x^k e^{\alpha x}Q_m(x)$
3.	$P_n(x)\cos\beta x + R_m(x)\sin\beta x$	$\pm i\beta$ soni xarak. teng.ildizi emas	$Q_\tau(x)\cos\beta x + F_\tau(x)\sin\beta x$ $\tau=\max(n,m)$
		$\pm i\beta$ soni xarak.teng.k karrali ildizi	$x^k(Q_\tau(x)\cos\beta x + F_\tau(x)\sin\beta x)$ $\tau=\max(n,m)$
4.	$e^{\alpha x}(P_n(x)\cos\beta x + R_m(x)\sin\beta x)$	A$\pm i\beta$ soni xarak. teng.ildizi emas	$e^{\alpha x}(Q_\tau(x)\cos\beta x + F_\tau(x)\sin\beta x)$ $\tau=\max(n,m)$
		α$\pm i\beta$ soni xarak.teng.k karrali ildizi	$x^k e^{\alpha x}(Q_\tau(x)\cos\beta x + F_\tau(x)\sin\beta x)$ $\tau=\max(n,m)$

22.3-ilova

Insert texnikasini qo‘llagan holda ish yuritish qoidalari

1. Matnni o‘qing.
2. Matn qatorlariga qalam bilan beligilar qo‘yib, olingan ma’lumotni tizimlashtiring:

V - ... haqida mavjud bo‘lgan bilimlar (ma’lumotlar) mos keladi
- (minus) - ... haqidagi mavjud bilimlarga e’tiroz bildiradi.
+ (plyus) - yangi ma’lumotlar hisoblanadi.
? - tushunarsiz / aniqlik / qo‘shimcha ma’lumot talab qiladi

B/Bx/Bo texnikasini qo‘llagan holda ish yuritish qoidalari

1. “Insert” texnikasidan foydalanib matnni o‘qing.
2. Olingan ma’lumotlarni tizimlashtiring – matnga qo‘yilgan belgilar asosida tablitsa qatorlarini to‘ldirib chiqing.

B/Bx/Bo (Bilaman / Bilishni xoxlayman / Bilib oldim)

№	Mavzu savollari	Bilaman (Q)	Bilishni xoxlayman (?)	Bilib oldim
1	Tenglamani, o’zgarmas koeffisiyentli tenglamaga keltirish uchun qanday almashtirish olinadi?			
2	Bir jinsli bo’lmagan Eyler tenglamasi qanday yechiladi?			
3	O’zgarmas koeffisiyentli chiziqli tenglama deb, qanday tenglamaga aytiladi?			
4	Xrakteristik tenglama qanday tuziladi?			
5	$f(x)$ ning ko’rinishi $P_m(x)$ ko’rinishda bo’lsa xususiy yechim qanday topiladi?			
6	$f(x)$ ning ko’rinishi $E^{\alpha x}P_m(x)$ (α-haqiqiy son) ko’rinishda bo’lsa xususiy yechim qanday topiladi?			
7	$f(x)$ ning ko’rinishi $P_n(x)\cos\beta x+R_m(x)\sin\beta x$ ko’rinishda bo’lsa xususiy yechim qanday topiladi?			

22.4-ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo‘lmog‘i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog‘i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo‘yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchra-masligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o‘qituvchi ularga yo‘riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo‘lganda ham muloqotda bo‘ling, o‘z fikringizni erkin namoyon eting.

22.5-ilova

" n - chi tartibli o’garmas koeffitsientli bir jinsli bo’lmagan chiziqli differenstial tenglamalar" mavzusi bo‘yicha mustaqil ish uchun savollar

Tenglamalarning umumiy yechimini toping

1. $y'' + 4y' + y = 4$; 2. $y'' + 6y' + 9y = 12e^{-3x}$;

3. $y'' - 6y' + 9y = x^2$; 4. $y'' + 4y' = 4xe^{-4x}$;

5. $y'' + 6y' - 3y = 12\cos 3x$; 6. $y'' - y = 2x - 1 + e^{5x}$;

7. $y'' - 3y' = 1 + e^x + \cos x + \sin x$;

Koshi masalasini qanoatlantiruvchi xususiy yechimni toping

8. $y'' - 2y' = e^x(x^2 + x - 3),$ $y(0) = 2$, $y'(0) = 2;$

9. $y'' - 5y' + 6y = e^{-x}(3x - 2),$ y(0) = $y'(0) = 0;$

10. $y'' - y = 3x,$ $y(1) = -1,$ $y'(1) = 0;$

11. $y'' + 6y' + 9y = 10\sin x,$ y(0) = $y'(0) = 0;$

12. $y'' - y' = -5e^{-x}(\sin x + \cos x),$ $y(0) = -4$, $y'(0) = 5.$

Tavsiya etilgan adabiyotlar

Асосий ва қўшимча ўқув адабиётлари ҳамда ахборот манбаалари

Асосий адабиётлар

61. Morris Tenebout, Harry Pollard. Ordinary Differential Equations. Birkhhauzer. Germany, 2010.
62. Robinson J.C. An Introduction to Ordinary Differential Equations. Cambridge University Press 2013.
63. Степанов В.В. Курс дифференциальных уравнений.М. КомКнига/ URSS 2006.-472с.
64. Эльсгольц Л.Е. Дифференциальные уравнения ивариационноеисчиление.М. КомКнига/ URSS 2006.-312с
65. Филиппов А.Ф. Сборник задач по дифференциальным уравнениям. М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Қўшимча адабиётлар

66. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ, Тошкент, 2016. 56-б.
67. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилганмажлисидаги маъруза,2017 йил 14 январъ –Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 104-б.
68. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабрь- Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 48-б.
69. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Мазкур китобдан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 1 ноябрдан 24 ноябрга қадар Қорақалпоғистон Республикаси,вилоятлар ва Тошкент шахри сайловчилари вакиллари билан ўтказилган сайловолди учрашувларида сўзлаган нутқлари ўрин олган.-Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 488-б.
70. Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н. Оддий дифференциал тенгламалар. Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.

71. Бибиков Ю.Н. Курс обыкновенных дифференциальных уравнений. М., 1991. 314 с.
72. Петровский И.Г. Лекции по теории обыкновенных дифференциальных уравнений. М.: изд-во Моск. Ун-та. 1984.
73. Демидович Б.П. Лекции по математической теории устойчивости. М.: Наука, 1987.
74. Федорюк М.В. Обыкновенные дифференциальные уравнения. М.: Наука.1980.
75. Самойленко А.М. и др. дифференциальные уравнения. М., 1989. 384 с.
76. Амелькин В.В. Дифференциальное уравнение в приложениях. М.: Наука. 1987.
77. Қаландаров А.Д., Меражова Ш.Б. Дифференциал тенгламалардан масалалар тўплами. Бухоро. "Дурдона", 2013

Интернет сайтлари

78. www.lib.homelinex.org/math
79. www.eknigu.com/lib/Mathematics/
80. www.eknigu.com/info/M_Mathematics/MC

23-Ma'ruza mashg'ulot.

1. "Eylerning bir jinsli vabir chinsli bo'lmagan differensial tenglamalari. Chebishev, Bessel tenglamalari" ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi modeli

23-ma'ruza	**Eylerning bir jinsli va bir chinsli bo'lmagan differenstial tenglamalari. Chebishev, Bessel tenglamalari.**
Vaqt-2 soat	Talabalar soni: 50nafardan oshmasligi kerak
O'quv mashg'uloti shakli	ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o'rganish
Mashg'ulot rejasi	1.Eylerning bir jinslichiziqli differensial tenglamasi. 2. Eylerning bir jinslibo'lmagan chiziqli differensial tenglamasi. 3.Chebishev, Bessel tenglamalari.
Asosiy tushuncha va atamalar	Eylerning bir jinslibo'lmagan chiziqli differensial tenglamasi,umumiy va xususiy yechim.
Amaliy mashg'ulotining maqsadi	O'quv fani to'g'risida umumiy ta'surotlar berish, Oddiy differensial tenglamalari va uni keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
1.O'rgatuvchi: Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik fikrlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; *2.Rivojlantiruvchi*: Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira	1.Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; 2.Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini o'rganildi; talabalarning ijodiy mahoratini shakillandi;

olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish; *3.Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.	3.*Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individualishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirishlar o'rganildi.
Ta'lim usuli va texnikasi	instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
Ta'lim shakli	frontal; jamoaviy;
Ta'lim vositalari	Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
	mashg'ulot bo'yicha o'quv materiallari, proektor, axborot texnologiylari vositalari.
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shaklda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Manitoring va baholash	Og'zaki so'rov, kuzatish.

2. "Eylerning bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan differensial tenglamalari. Chebishev, Bessel tenglamalari" ma'ruza texnologikxaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzuning nomi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiriladi. 1.2. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi(23.1-ilova). 1.3.Talabalarning darsga tayyorgarlik darajasini aniqlash, bilimlarini faollashtirish maqsadida tezkor-savollar o'tkaziladi: 1) Eylerning bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan chiziqli differensial tenglamasining umumiy ko'rinishi yozing? 2)Eylerning bir jinslichiziqli differensial tenglamasiniyechiminini topishda qanday almashtirish olinadi? Mavzu, mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishi e'lon qilinadi.	Tinglaydilar. yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2- Asosiy bosqich.(55-daqiqa)	2.1.Talabalarni4 ta o'quv guruhiga bo'linadi. Mavzu bo'yicha tarqatma material betriladi(23.2-ilova). Guruhlarda o'quv vazifasini bajarish bo'yicha ishni tashkil qiladi. Har bir guruh o'z vazifalarini oladi(23.3-ilova). O'quv faoliyati natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi.Vazifani bajarishda o'quv materiallaridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Talabalarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar berish	Tinglaydilar; Guruhlarda ishlaydilar, Savollarga javob izlaydilar. Tinglaydilar; o'qiydilar; guruhlarda ishlaydilar, asoaiylarni

	mumkin: 1. Hozirgi zamon talablari nimalardan iborat deb bilasiz? 2.Zamon talablarini bajarishda kadrlarning malakasi qanday bo'lishi kerak? 3. Axborot texnologiyalarini qo'llashni bilish, nimalarni taqoza etadi? 4.Differensial tenglamalar fani va uning insoniyat tarixidagi ro'li hamda uning rivoji nimalardan iborat deb bilasiz? 5Chebishev, Bessel tenglamalarini ko'rinishini yozing? 6. Eylerning bir jinslichiziqli differensial tenglamasiniyechiminini topishda qanday almashtirish olingandan so'ng qanday turdagi tenglamaga keladi? 7. Eyler tenglamasining xarakteristik tenglamasini yozing? 2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Taqdimot vaqtida javoblarga izoh beradi, to'gri e'chimlarga e'tibor beradi, xatolarni ko'rsatadi. Talabalar bilan birgalikda javoblar to'g'riligini baholaydi, savollarga javob beradi. 2.4. Guruhlar bajargan ishlari bo'yicha o'z-o'zini baholaydilar va tekshiradilar. 2.5. Javoblarni to'ldiradi va qisqacha xulosalar qiladi.	yozadilar. Tinglaydilar; savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar; misol va masalalarni daftarda echadilar. Guruh liderlari topshiriqlar javoblarini aytadilar. Liderlar o'z guruhlarida baholash o'tkazadilar. Tinglaydilar.
3- bosqich, yakuniy(15 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2.Mashg'ulotda maqsadga erishishdagi, talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi(23.3-23.4 ilovalar). 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi(23.5-ilova) va uning baholash mezonlari aytiladi.	Savol beradilar. Tinglaydilar; muhokamada qatnashadilar. Topshiriqlarni yozadilar.

23.1-ilova

Har bir mashg'ulot 0,5balldan 2 ballgacha baholanadi. Ekspert guruxlarning ish natijalarini baholovchi me'zonlari

Me'zonlar	Ball	%	Gurux natijalari bahosi			
			1	2	3	4
Axborotning to'liqligi	1,0	50				
Masala yechimining boshqacha usuli, illyustratsiyasi(grafik tarzda taqdim etish, ayrim hisoblashlarni aniq ko'rsatish va h.k.)	0,6	30				
Gurux faolligi (qo'shimcha, berilgan savol, javoblarning soni)	0,4	20				
JAMI	2	100				

86-100% / a'lo"
71-85% / - "yaxshi"
55-70% / - "qoniqarli"
0-54%-- "qoniqarsiz".

23.2-ilova

"Eylerning bir jinsli va bir jinsli bo’lmagan differensial tenglamalari. Chebishev, Bessel tenglamalari" mavzusi bo‘yicha tarqatma material

Eylerning bir jinsli chiziqli differensial tenglamasining umumiy ko’rinishi

$$x^n y^{(n)} + a_1 x^{n-1} y^{(n-1)} + a_2 x^{n-2} y^{(n-2)} + \ldots\ldots + a_{n-1} x y^1 + a_n y = 0 \qquad (1)$$

dan iboratdir bunda $a_i (i = \overline{1,n})$ o’zgarmas sonlar. (1) ko’rinishdagi tenglamaning xamma vaqt

$$x = \ell^t \qquad (2)$$

almashtirish yordamida koeffisiyentlari o’zgarmas bo’lgan chiziqli differensial tenglamaga keltirish mumkin.

(1) tenglamada y dan x bo’yicha olingan hosilalarni y dan t bo’yicha olingan hosilalar bilan almashtiramiz:

$$\frac{dy}{dx} = \frac{dy}{dt} \cdot \frac{dt}{dx} = \frac{1}{e^t} \frac{dy}{dt} = e^{-t} \frac{dy}{dt}$$

$$\frac{d^2 y}{dx^2} = \frac{dy'}{dx} = \frac{dy'}{dt} \cdot \frac{dt}{dx} = e^{-t} \frac{d}{dt}\left(e^{-t} \frac{dy}{dt} \right) = e^{-t}\left(e^{-t} \frac{d^2 y}{dt^2} - e^{-t} \frac{dy}{dt} \right) = e^{-2t}\left(\frac{d^2 y}{dt^2} - \frac{dy}{dt} \right)$$

$$\frac{d^3 y}{dx^3} = e^{-3t}\left(\frac{d^3 y}{dx^3} - 3\frac{d^2 y}{dt^2} + 2\frac{dy}{dt} \right)$$

....

$$\frac{d^k y}{dx^k} = e^{-kt} F_k$$

Bunda $F_k, \dfrac{d^k y}{dt^k}, \quad \dfrac{d^{k-1} y}{dt^{k-1}}, \quad ...., \dfrac{dy}{dt}$

larorqalikoeffisiyentlario’zgarmasbo’lganchiziqlifunksiyako’rinishdaifodalanadi. Bu topilgan qiymatlarni (1) tenglamaga qo’yib, ixchamlasak

$$F_n + a_1 F_{n-1} + \ldots a_{n-1} F_1 + a_n F_0 = 0$$

yoki F_k ni qiymatlarini e’tiborga olsak keyingi tenglamani

$$\frac{d^n y}{dt} + A_1 \frac{d^{n-1} y}{dt^{n-1}} + \ldots\ldots + A_{n-1} \frac{dy}{dt} + A_n y = 0 \qquad (3)$$

Bunda $A_i \quad i = \overline{1,n}$ o’zgarmas sonlar. Bu esa o’zgarmas koeffisiyentli chiziqli differensial tenglamadir.

Misol-1 $x^3 y''' + xy' - y = 0$

$$x = e^t \qquad t = \ell n x \qquad y'_x = e^{-t} y'_t \qquad y''_x = e^{-2t}(y''_t - y'_t)$$

$$y''' = e^{-3t}(y'''_t - 3y''_t + 2y^1_t)$$

$$\ell^{3t} \cdot e^{-3t}(y'''_t - 3y''_t + 2y^1_t) + e^t \cdot e^{-t} y'_t - y = 0$$

$$y''' - 3y'' + 3y' - y = 0 \qquad y = e^{\lambda t}$$

$$\lambda^3 - 3\lambda^2 + 3\lambda - 1 = 0 \qquad (\lambda - 1)^3 = 0 \qquad \lambda_{1,2,3} = 1$$

1 xarakteristik tenglamaning uch karrali ildizi shuning uchun unga mos bo’lgan tenglamaning xususiy yechimlari.

$$e^t, \; te^t, \quad t^2 e^t \qquad y_t = e^t(c_1 + c_2 t + c_3 t^2)$$

berilgan tenglamaning umumiy yechimi esa

$y = x(c_1 + c_2 \ln|x| + c_3 \ln^2|x|)$

o'zgarmas koeffisiyenti chiziqli tenglamaga keltirilgan Eyler tenglamasi $e^{\lambda t}$, $t^m e^{\lambda t}$ ko'rinishdagi xususiy yechimlarga (agarda xarakteristik tenglamaning ildizlari haqiqiy bo'lsa) ega bo'lganligi sababli, Eyler tenglamasining uzi esa.

$x^{\lambda}, \quad [\ell n|x|]^m x^{\lambda}$

ko'rinishdagixususiyyechimlargaegabo'ladishuninguchunEylertenglamaningxususiyyechimini

$y = x^{\lambda}$ (4)

ko'rinishda izlash mumkin.

Bu xolda $y^{(i)} = \lambda(\lambda-1)(\lambda-2)....(\lambda-i+1)x^{\lambda-i}$

ga ega bo'lamiz. Bu qiymatni (1) tenglama qo'ysak:

$x^n \cdot \lambda(\lambda-1)(\lambda-2)....(\lambda-n+1)x^{\lambda-n} + a_1 x^{n-1}\lambda(\lambda-1)(\lambda-2)....(\lambda-n+2)x^{\lambda-(n-1)} +$

$...... + a_n x^{\lambda} = 0$

yoki

$\lambda(\lambda-1)(\lambda-2)....(\lambda-n+1) + a_1\lambda(\lambda-1)(\lambda-2)....(\lambda-n+2) + ... + a_{n-1}\lambda + a_n = 0$ (5

tenglamaga ega bo'lamiz. (5) Eyler tenglamasining xarakteristik tenglamasidir.

Misol-2 $x^3 y''' + xy' - y = 0$

$y = x^{\lambda} \quad y' = \lambda x^{\lambda-1} \quad y'' = \lambda(\lambda-1)x^{\lambda-2}$

$y''' = \lambda(\lambda-1)(\lambda-2)x^{\lambda-3}$

$x^3\lambda(\lambda-1)(\lambda-2)x^{\lambda-3} + x\cdot\lambda x^{\lambda-1} - x^{\lambda} = 0$

$\lambda(\lambda-1)(\lambda-2) + \lambda - 1 = 0$

$(\lambda-1)(\lambda-2\lambda+1) = 0 \qquad \lambda_1 = 1, \qquad \lambda_{2,3} = 1$

$y = c_1 x + c_2 x\ell n|x| + c_3 x\ell n^2|x|$

Agar xarakteristik tenglama $\alpha \pm \beta i$ kompeleks ildizga ega bo'lsa, u holda unga mos bo'lgan xususiy yechim quyidagicha topiladi.

$x^{(\alpha+\beta i)} = x^{\alpha}\cdot x^{\beta i} = x^{\alpha}e^{i\beta\ell nx} = x^{\alpha}(\cos\beta\ell nx + i\sin\beta\ell n(x)$

$y_1 = x^{\alpha}\cos\beta\ell n|x|$

$y_2 = x^{\alpha}\sin\beta\ell n|x|$

Misol-3 $x^2 y'' - 3xy' + 5y = 0$

$y = x^{\lambda}, \qquad x^2\lambda(\lambda-1)x^{\lambda-2} - 3x\lambda x^{\lambda-1} + 5x^{\lambda} = 0$

$\lambda(\lambda-1) - 3\lambda + 5 = 0 \qquad \lambda^2 - 4\lambda + 5 = 0 \qquad \lambda_{1,2} = 2 \pm i$

$y_1 = x^2\cos\ell n|x| \qquad y_2 = x^2\sin\ell n|x|$

Eylerning bir jinsli bo'lmagan chiziqli differensial tenglamasining umumiy ko'rinishi

$x^n y^{(n)} + a_1 x^{n-1}y^{(n-1)} + ... + a_{n-1}xy^1 + a_n y = f(x)$ (6)

bunda $ai(i = \overline{1,n})$ lar o'zgarmas sonlar bo'lib $f(x)$ ko'rilayotgan oraliqda uzluksiz funksiyadir.

Bunday ko'rinishdagi tenglamani xam

$x = e^t \qquad t = \ell nx$

almashtirish yordamida o'zgarmas koeffisiyentli bir jinsli bo'lmagan chiziqli differensial tenglamaga keltirish mumkin.

Misol-3 $x^2y'' - 2y = \sin \ell nx$

$x = e^t \qquad t = \ell nx$

$y_t'' - y_t' - 2y = \sin t$

$y'' - y' - 2 \qquad \lambda^2 - \lambda - 2 = 0 \qquad \lambda_1 = -1 \qquad \lambda_2 = 2$

$u = ce^{-t} + ce^{2t} = c_1x^{-1} + c_2x^2$

$y = A\cos t + \beta \sin t \qquad A = 0{,}1 \qquad B = -0{,}3$

$y = 0{,}1\cos \ell nx - 0{,}3\sin \ell nx$

$y = u + y = c_1x^{-1} + c_2x^2 + 0{,}\backslash 1os\ell nx - 0{,}3\sin \ell nx.$

Bu berilgan differensial tenglamaning umumiy yechimidir.

$(ax+b)^n y^{(n)} + a_1(ax+b)^{n-1}y^{(n-1)} + ... + a_{n-1}(ax+b)y' + a_ny = 0$

ko'rinishdagi tenglamani xam (Lagranj tenglamasi)

$ax + b = e^t$

almashtirish yordamida koeffisiyentlari o'zgarmas bo'lgan chiziqli differensial tenglamaga keltirish mumkin.

Bizga ma'lumki xar qanday o'zgarmas koeffisiyentli bir jinsli chiziqli tenglamaning umumiy yechimini topish mumkindir. Ba'zi xollarda koeffisiyentlari o'zgaruvchi bo'lgan bir jinsli chiziqli tenglamalarni almashtirish yordamida o'zgarmas koeffisiyentli bir jinsli differensial tenglamaga keltirish mumkin.

$$y^{(n)} + p_1(x)y^{(n-1)} + p_2(x)y^{(n-2)} + ... + p_{n-1}(x)y' + p_n(x)y = 0 \qquad (7)$$

tenglamada $t = \varphi(x)$ (8)

almashtirishini olamiz.

U xolda

$y_x' = \varphi'(x)y_t'$

$y_x'' = [\varphi'(x)]^2 y_t'' + \varphi''(x)y_t'$

....

$y_x^{(n)} = [\varphi'(x)]^n y_t^{(n)} + ... + \varphi^{n)}(x)y_t'$

Bu qiymatlarni (7) tenglamaga qo'ysak

$[\varphi'(x)]^n y_t^{(n)} + ... + p_n(x)y = 0$

ga ega bo'lamiz.

Ko'rilayotgan oraliqda $\varphi'(x) \neq 0$ bo'lmasin. Shunga ko'ra, keyingi tenglamadan

$$y_t^{(n)} + ... + \frac{p_n(x)}{[\varphi'(x)]^n} y = 0$$

ga ega bo'lamiz.

Bu tenglama o'zgarmas koeffisiyentli bo'lishi uchun y oldidagi koeffisiyent o'zgarmas bo'lishi kerak.

$$\frac{p_n(x)}{[\varphi'(x)]^n} = \frac{1}{c^n}$$

$[\varphi'(x)]^n = c''p_n(x) \qquad \varphi'(x) = c''\sqrt{p_n(x)}$

$t = \varphi(x) = c\int \sqrt[n]{p_n}(x)dx$

Misol-4 Chebishev tenglamasini

$$(1-x^2)y''-xy'+n^2y=0$$

(-1,1) oraliqda o'zgarmas koeffisiyentli tenglamaga keltiring.

$$y''-\frac{x}{1-x^2}y'+\frac{n^2}{1-x^2}y=0$$

$$t=c\int\sqrt{\frac{n^2}{1-x^2}}dx=cn\int\frac{dx}{\sqrt{1-x^2}}=\arccos x$$

$$c=-\frac{1}{n}$$

$$t=\arccos x \qquad x=\cos t$$

$$y'=-\frac{1}{\sin t}\frac{dy}{dt} \qquad y''=\frac{1}{\sin^2 t}y_t''-\frac{\cos t}{\sin^3 t}y_t'$$

$$\frac{1}{\sin^2 t}y''-\frac{\cos t}{\sin^3 t}y_t'+\frac{\cos t}{\sin^3 t}\frac{1}{\sin t}y_t'+\frac{n^2}{\sin^2 t}y=0$$

$$y_t''+n^2y=0$$

$$y=c_1\cos nt+c_2\sin nt$$

Misol-5

$$(ax+by)^n y^{(n)}+a_1(ax+by)^{n-1}y^{(n-1)}+\cdots+a_ny=0$$

tenglamani o'zgarmas koeffisiyentli tenglamaga keltiring.

$$P_n(x)=\frac{a_n}{(ax+b)^n}$$

$$t=c\int\sqrt[n]{\frac{a_n}{(ax+b)^n}}dx=c\int\frac{\sqrt[n]{a_n}}{ax+b}dx=\ln|ax+b|$$

$$\frac{c\sqrt[n]{a_n}}{a}=1 \qquad c=\frac{a}{\sqrt[n]{a_n}}$$

$$t=\ln(ax+b) \qquad ax+b=e^t$$

$$y_x'=ae^{-t}y_t'$$

$$y_x''=a^2e^{-2t}(y_t''-y_t') \qquad y_x'''=a^3e^{-3t}(y_t'''-3y_t''+2y_t')$$

Bularni berilgan tenglamaga qo'yib, so'ngra ixchamlasak

$$b_ny_t^{(n)}+b_{n-1}y_t^{(n-1)}+\ldots+b_1y_t'+b_0y=0$$

bundab_i $i=\overline{0,n}$ o'zgarmas sonlar.

Bu n-chi tartibli o'zgarmas koeffisiyentli chiziqli differensial tenglamadir.

Bessel tenglamasi

$$x^2\frac{d^2y}{dx^2}+x\frac{dy}{dx}+(x^2-n^2)y=0$$

Ko'rinishdagi tenglama Bessel tenglamasi deyiladi. Bu yerda n ixtiyoriy son. Bu tenglama $n=\frac{1}{2}$ da elementar funksiyalar yordamida integrallanadi. Bu holda tenglama

$$x^2\frac{d^2y}{dx^2}+x\frac{dy}{dx}+\left(x^2-\frac{1}{4}\right)y=0 \quad (1)$$

Ko'rinishda bo'ladi. Bu tenglamaga

$$y=x^{-\frac{1}{2}}z, \qquad z=z(x)$$

Almashtirish qo’llaymiz, buning uchun $y' \, va \, y''$hosilalarni hisoblaymiz

$$y' = x^{-\frac{1}{2}}z' - \frac{1}{2}x^{-\frac{3}{2}}z \qquad y''=x^{-\frac{1}{2}}z'' - x^{-\frac{3}{2}}z' + \frac{3}{4}x^{-\frac{5}{2}}z \qquad (2)$$

(2) ni (1) ga qo’yamiz

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar

1-bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. Mavzuning nomi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiriladi. 1.2. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi(34.1-ilova). 1.3.Talabalarning darsga tayyorgarlik darajasini aniqlash, bilimlarini faollashtirish maqsadida tezkor-savollar o'tkaziladi: 1) Turg'unlik ta'rifini ayting? 2) Lyapunov ma'nosida turg'unlikni ayting? Mavzu, mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishi e'lon qilinadi.	Tinglaydilar. yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2- Asosiy bosqich.(55-daqiqa)	2.1.Talabalarni4 ta o'quv guruhiga bo'linadi. Mavzu bo'yicha tarqatma material betriladi(34.2-ilova). Guruhlarda o'quv vazifasini bajarish bo'yicha ishni tashkil qiladi. Har bir guruh o'z vazifalarini oladi(34.3-ilova). O'quv faoliyati natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi.Vazifani bajarishda o'quv materiallaridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Talabalarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar berish mumkin: 1. Hozirgi zamon talablari nimalardan iborat deb bilasiz? 2.Zamon talablarini bajarishda kadrlarning malakasi qanday bo'lishi kerak? 3. Axborot texnologiyalarini qo'llashni bilish, nimalarni taqoza etadi? 4) Birinchi yakinlashish tenglamalar sistemasining xarakteristik tenglamasini tuzing. 5) Raus-Gurvis shartidan nimani aniklash mumkin. 6) Nol yechim asimptotik turgun bo'lishi uchun qanday shartlar bajarilishi kerak. 2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Taqdimot vaqtida javoblarga izoh beradi, to'gri e'chimlarga e'tibor beradi, xatolarni ko'rsatadi. Talabalar bilan birgalikda javoblar to'g'riligini baholaydi, savollarga javob beradi. 2.4. Guruhlar bajargan ishlari bo'yicha o'z-o'zini baholaydilar va tekshiradilar. 2.5. Javoblarni to'ldiradi va qisqacha xulosalar qiladi.	Tinglaydilar; Guruhlarda ishlaydilar, Savollarga javob izlaydilar. Tinglaydilar; o'qiydilar; guruhlarda ishlaydilar, asoaiylarni yozadilar. Tinglaydilar; savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar; misol va masalalarni daftarda echadilar. Guruh liderlari topshiriqlar javoblarini aytadilar. Liderlar o'z guruhlarida baholash o'tkazadilar. Tinglaydilar.
3- bosqich, yakuniy(15 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2.Mashg'ulotda maqsadga erishishdagi, talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi(34.3-34.4 ilovalar). 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi(34.5-ilova) va uning baholash mezonlari aytiladi.	Savol beradilar. Tinglaydilar; muhokamada qatnashadilar. Topshiriqlarni yozadilar.

34.1-ilova

Har bir mashg'ulot 0,5balldan 2 ballgacha baholanadi. Ekspert guruxlarning ish natijalarini baholovchi me'zonlari

Me'zonlar	**Ball**	**%**	**Gurux natijalari bahosi**			
			1	**2**	**3**	**4**
Axborotning to'liqligi	1,0	50				
Masala yechimining boshqacha usuli, illyustratsiyasi(grafik tarzda taqdim etish, ayrim hisoblashlarni aniq ko'rsatish va h.k.)	0,6	30				
Gurux faolligi (qo'shimcha, berilgan savol, javoblarning soni)	0,4	20				
JAMI	2	100				

86-100% / a'lo"
71-85% / - "yaxshi"
55-70% / - "qoniqarli"
0-54%-- "qoniqarsiz".

34.2-ilova

“Lyapunov ma’nosida turg’unlik.Yechimning turg’unligi.Trivial yechimning turg’unligi, noturg’un va asimptotik turg’unlik haqidagi teoremalar” mavzusi bo‘yicha tarqatma material

$$\frac{dx_i}{dt} = f_i(x_1, x_2, ..., x_n, t) \ (i = \overline{1,n}) \tag{1}$$

Sistema uchun $\varphi(t_0) = \varphi_{i0}(i = \overline{1,n})$ boshlang’ich shartni qanoatlantiruvchi $\varphi_i(t) \ (i = \overline{1,n})$ yechim Lyapunov bo’yicha turg’un deyiladi, agar ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ uchun $\delta(\varepsilon) > 0$ mavjud bo’lib, (3) sistemaning barcha $x_i(t) \ (i = \overline{1,n})$ yechimlari uchun $|x_i(t_0) - \varphi_{i0}| < \delta \ (i = \overline{1,n})$ bo’lganda barcha $t \geq t_0$ larda

$$|x_i(t) - \varphi_i(t)| < \varepsilon \ \ (i = \overline{1,n}) \tag{2}$$

o’rinli bo’lsa.

Agar yetarlicha kichik $\delta > 0$ uchun birorta $x_i(t) \ (i = \overline{1,n})$ yechim uchun (2) shart bajarilmasa $\varphi_i(t)$ turg’unmas deyiladi.

Agar turg’un yechim uchun $\lim\limits_{t\to\infty} |x_i(t) - \varphi_i(t)| = 0 \ (i = \overline{1,n})$ shart bajarilsa, bunday yechim asimptotik turg’un deyiladi.

Umuman tenglamalar sistemasi yechimining turg’unligini tekshirish masalasini uning nol yechimi turg’unligini tekshirish masalasiga keltirish mumkin. Nol yechimini tekshirish Lyapunov usullari yordamida bajariladi.

A) Lyapunovning I-chi usuli.

Bu usul bo'yicha agar chiziqli sistema matrisasining barcha xos qiymatlarining haqiqiy qismi manfiy bo'lsa, sistema nol yechimi asimptotik turg'un bo'ladi.

Agar birorta xos qiymatning haqiqiy qismi musbat bo'lsa, nol yechim turg'unmas bo'ladi.

1-misol. vektor tenglamaning nol yechimini turg'unligini tekshiring, bunda

$$A=\begin{pmatrix} 3 & 0 & 8 \\ 3 & -1 & 6 \\ -2 & 0 & -5 \end{pmatrix}.$$

Matrisaning xos quymatlarini $\det\left(A-\lambda E\right)=0$ tenglamadan topamiz.

$$\begin{vmatrix} 8-\lambda & 0 & 8 \\ 3 & -1-\lambda & 6 \\ -2 & 0 & -5-\lambda \end{vmatrix}=0,\ (\lambda^3+3)^2+3\lambda+1=0 \text{ bundan } \lambda_{1,2,3}=-1.$$

Xos qiymatlar manfiy, demak, nol yechim asimptotik turg'un.

2-misol. α,β parametlarning qanday qiymatlarida $\frac{dx}{dt}=Ax$ vektor tenglamaning nol yechimi asimptotik turg'un bo'ladi, bunda

$$A=\begin{pmatrix} -1 & \alpha & 0 \\ \beta & -1 & \alpha \\ 0 & \beta & -1 \end{pmatrix}.$$

A matrisaning xarakteristik tenglamasi $(1+\lambda)^3-2\alpha\beta(1+\lambda)=0$.

Bundan $\lambda_1=-1, va\ \lambda_2,\lambda_3 lar \begin{cases} \lambda_2+\lambda_3=-2 \\ \lambda_2\cdot\lambda_3=1-2\alpha\beta \end{cases}$ shartlarni qanoatlantiradi.

Nol yechim asimptotik turg'un bo'lishi uchun $\lambda_2,\lambda_3>0$ shart bajarilishi kifoya. Demak, $\alpha\beta<\frac{1}{2}$ bo'lganda nol yechim asimptotik turg'un bo'ladi.

Ko'phadning barcha nollarini haqiqiy qismini manfiyligini Raus – Gurbis shartlari yordamida aniqlash mumkin.

$$\lambda^n+a_{n-1}\lambda^{n-1}+...+a_1\lambda+a_0$$

ko'phad koeffisiyentlari yordamida Gurvis matrisasini tuzamiz

$$\begin{pmatrix} a_{n-1} & 1 & 0 & 0 & ... & 0 \\ a_{n-3} & a_{n-2} & a_{n-1} & 1 & ... & 0 \\ a_{n-5} & a_{n-4} & a_{n-3} & a_{n-2} & ... & 0 \\ ... & ... & ... & ... & ... & ... \\ ... & ... & ... & ... & ... & ... \\ 0 & 0 & 0 & 0 & ... & a_0 \end{pmatrix}.$$

Ko'phadning barcha nollarining haqiqiy qismi manfiy bo'lishi uchun Gurvis matrisasining barcha bosh minorlari musbat bo'lishi zarur va yetarlidir.

Izoh: Chiziqli bo'lmagan tenglamalar sistemasini koordinata boshi atrofida chiziqlashtirilgan sistemasini tuzish uchun sistemaning o'ng tomonidagi funksiyalarni Makloren qatoriga yoyish kerak.

3–misol. $\frac{dx}{dt} = Ax$ vektor tenglama nol yechimining asimptotik turg'unligi tekshiring, bunda

$$A = \begin{pmatrix} 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 1 \\ -3 & -2 & 2 \end{pmatrix}.$$

A matrisaning xarakteristik tenglamasi

$$\lambda^3 + 2\lambda^2 + 2\lambda + 3 = 0 .$$

Gurvis matrisasini tuzamiz:

$$\begin{pmatrix} 2 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 3 & 2 & 2 & 1 & 0 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 3 & 2 & 2 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 0 & 3 & 2 & 2 & 1 \end{pmatrix}.$$

Bu matrisaningg bosh minorlari $M_1 = 2 > 0$, $M_2 = \begin{vmatrix} 2 & 1 \\ 3 & 2 \end{vmatrix} = 1 > 0$

$$M_3 = \begin{vmatrix} 2 & 1 & 0 \\ 3 & 2 & 2 \\ 0 & 0 & 3 \end{vmatrix} = 3 \cdot M_1 > 0 .$$

Demak, nol yechim asimptotik turg'un.

33.3-ilova

Insert texnikasini qo'llagan holda ish yuritish qoidalari

1. Matnni o'qing.
2. Matn qatorlariga qalam bilan beligilar qo'yib, olingan ma'lumotni tizimlashtiring:

V - ... haqida mavjud bo'lgan bilimlar (ma'lumotlar) mos keladi

- (minus) - ... haqidagi mavjud bilimlarga e'tiroz bildiradi.

+ (plyus) - yangi ma'lumotlar hisoblanadi.

? - tushunarsiz / aniqlik / qo'shimcha ma'lumot talab qiladi

B/Bx/Bo texnikasini qo'llagan holda ish yuritish qoidalari

1. "Insert" texnikasidan foydalanib matnni o'qing.
2. Olingan ma'lumotlarni tizimlashtiring – matnga qo'yilgan belgilar asosida tablitsa qatorlarini to'ldirib chiqing.

B/Bx/Bo (Bilaman / Bilishni xoxlayman / Bilib oldim)

№	Mavzu savollari	Bilaman (Q)	Bilishni xoxlayman (?)	Bilib oldim
1	Nol yechim asimptotik turgun bo’lishi uchun qanday shartlar bajarilishi kerak?			
2	Birinchi yaqinlashish tenglamalar sistemasining xarakteristik tenglamasini tuzing?			
3	Xarakteristik tenglamaning ildizlari qanday bo’lganda nol yechim asimptotik turgun buladi?			
4	Qaysi vaqtda nol yechim turgunmas buladi?			
5	Qaysi vaqtda markaz tipidagi maxsus nuqtaga ega bo’lamiz?			
6	Nol yechim asimptotik turg’un bo’lishi uchun qanday shartlar bajarilishi kerak?			
7	Raus-Gurvis shartidan nimani aniklash mumkin			
8	Nol yechimning turgun bo’lishining zaruriy va yetarli sharti nimadan iborat?			

34.4-ilova

Kichik guruhlarda ishlash qoidasi

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo‘lmog‘i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog‘i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo‘yilgan topshiriqni bajarish uchun yetarli vaqt ajratiladi.
4.Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchra-masligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o‘qituvchi ularga yo‘riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo‘lganda ham muloqotda bo‘ling, o‘z fikringizni erkin namoyon eting.

34.5-ilova

“Lyapunov ma’nosida turg’unlik.Yechimning turg’unligi.Trivial yechimning turg’unligi, noturg’un va asimptotik turg’unlik haqidagi teoremalar” mavzusi bo‘yicha mustaqil ish uchun savollar

Lyapunovning birinchi yaqinlashish bo’yicha turg’unlik haqidagi teoremasidan foydalanib, nol yechimni turg’unlikka tekshiring

1. $$\begin{cases} \dot{x} = \dfrac{1}{4}\left(e^{x}-1\right) - 9y + x^{4} \\ \dot{y} = \dfrac{1}{5}x - \sin y + y^{4} \end{cases}$$

2. $$\begin{cases} \dot{x} = \dfrac{1}{4}\left(e^{x}-1\right) - 9y \\ \dot{y} = \dfrac{1}{5}x - \sin y \end{cases}$$

3. $\begin{cases} \dot{x} = 5x + y\cos y - \dfrac{x^3}{3} \\ \dot{y} = 3x + 2y + \dfrac{x^4}{12} - y^3 e^y \end{cases}$

4. $\begin{cases} \dot{x} = 7x + 2\sin y \\ \dot{y} = e^x - 3y - 1 \end{cases}$

5. $\begin{cases} \dot{x} = \dfrac{3}{2}x - \dfrac{1}{2}\sin^2 y \\ \dot{y} = y + 2x \end{cases}$

6. $\begin{cases} \dot{x} = ax - 2y + x \\ \dot{y} = x + y + xy^2 \end{cases}$

Raus-Gurvis shartlaridan yoki Mixaylov kriteriysidan foydalanib, nol yechimni turg'unlikka tekshiring.

7. $y^{IV} + 7y''' + 19y'' + 23y' + 10y = 0$

8. $y^{IV} + 5y''' + 18y'' + 34y' + 20y = 0$

9. $y''' - 3y'' + 12y' + 10y = 0$

10. $y^{IV} + 7y''' + 17y'' + 17y' + 6y = 0$

11. $y^{IV} - 2y''' + y'' + 2y' - 2y = 0$

Tavsiya etilgan adabiyotlar

Асосий ва қўшимча ўқув адабиётлари ҳамда ахборот манбаалари

Асосий адабиётлар

301. Morris Tenebout, Harry Pollard. Ordinary Differential Equations. Birkhhauzer. Germany, 2010.
302. Robinson J.C. An Introduction to Ordinary Differential Equations. Cambridge University Press 2013.
303. Степанов В.В. Курс дифференциальных уравнений.М. КомКнига/ URSS 2006.-472с.
304. Эльсгольц Л.Е. Дифференциальные уравнения ивариационноеисчиление.М. КомКнига/ URSS 2006.-312с
305. Филиппов А.Ф. Сборник задач по дифференциальным уравнениям. М.: Наука, 1979 (5-е издание).

Қўшимча адабиётлар

306. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ, Тошкент, 2016. 56-б.
307. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилганмажлисидаги маъруза,2017 йил 14 январъ – Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 104-б.
308. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабрь- Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 48-б.
309. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Мазкур китобдан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг

2016 йил 1 ноябрдан 24 ноябрга қадар Қорақалпоғистон Республикаси,вилоятлар ва Тошкент шахри сайловчилари вакиллари билан ўтказилган сайловолди учрашувларида сўзлаган нутқлари ўрин олган.-Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 488-б.
310. Салохитдинов М.С., Насритдинов Г.Н. Оддий дифференциал тенгламалар. Тошкент, “ Ўзбекистон”, 1994.
311. Бибиков Ю.Н. Курс обыкновенных дифференциальных уравнений. М., 1991. 314 с.
312. Петровский И.Г. Лекции по теории обыкновенных дифференциальных уравнений. М.: изд-во Моск. Ун-та. 1984.
313. Демидович Б.П. Лекции по математической теории устойчивости. М.: Наука, 1987.
314. Федорюк М.В. Обыкновенные дифференциальные уравнения. М.: Наука.1980.
315. Самойленко А.М. и др. дифференциальные уравнения. М., 1989. 384 с.
316. Амелькин В.В. Дифференциальное уравнение в приложениях. М.: Наука. 1987.
317. Қаландаров А.Д., Меражова Ш.Б. Дифференциал тенгламалардан масалалар тўплами. Бухоро. “Дурдона”, 2013

Интернет сайтлари

318. www.lib.homelinex.org/math
319. www.eknigu.com/lib/Mathematics/
320. www.eknigu.com/info/M_Mathematics/MC

35-Ma’ruza mashg’ulot.

1. “Ikkinchi tartibli differenstil tenglmalar nazariyasi taqqoslach teoremasi. Chegaraviy masalalar. Grin funksiyasi. Grin funksiyasining mavjudligi va yagonaligi haqida” ma’ruza mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi modeli

35-ma’ruza	**Ikkinchi tartibli differenstil tenglmalar nazariyasi taqqoslach teoremasi.Chegaraviy masalalar. Grin funksiyasi. Grin funksiyasining mavjudligi va yagonaligi haqida.**
Vaqt-2 soat	Talabalar soni: 50nafardan oshmasligi kerak
O'quv mashg'uloti shakli	ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o’rganish
Mashg'ulot rejasi	1.Ikkinchi tartibli differensial tenglmalar nazariyasi 2.Taqqoslash teoremasi.chegaraviy masalalar. 3.Grin funksiyasi.
Asosiy tushuncha va atamalar	Ikkinchi tartibli differenstil tenglmalar, Taqqoslash teoremasi.chegaraviy masalalar, Grin funksiyasi.
Amaliy mashg'ulotining maqsadi	O’quv fani to’g’risida umumiy ta’surotlar berish, Oddiy differensial tenglamalari va uni keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
1.O’rgatuvchi: Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik fikrlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; *2.Rivojlantiruvchi*: Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil	1.Talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; differensial tenglamaning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik firlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; matematik masalalarni yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish; 2.Kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag’zlarini tanlab olish, tahlil qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini

qilish; gaplar tuzish, hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish; *3.Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.	stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini o'rganildi; talabalarning ijodiy mahoratini shakillandi; 3.*Tarbiyalovchi:*Aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; Differensial tenglamani matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individualishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirishlar o'rganildi.
Ta'lim usuli va texnikasi	instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
Ta'lim shakli	frontal; jamoaviy;
Ta'lim vositalari	Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
	mashg'ulot bo'yicha o'quv materiallari, proektor, axborot texnologiylari vositalari.
Ta'lim berish sharoiti	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shaklda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Manitoring va baholash	Og'zaki so'rov, kuzatish.

2. "Ikkinchi tartibli differenstil tenglmalar nazariyasi taqqoslach teoremasi.Chegaraviy masalalar. Grin funksiyasi. Grin funksiyasining mavjudligi va yagonaligi haqida" ma'ruza texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1.Mavzuning nomi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiriladi. 1.2. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi(35.1-ilova). 1.3.Talabalarning darsga tayyorgarlik darajasini aniqlash, bilimlarini faollashtirish maqsadida tezkor-savollar o'tkaziladi: 1) Ikkinchi tartibli chiziqli bir jinsli differensial tenglamalarni umumiy ko'rinishini yozing? 2) Ikkinchi tartibli chiziqli bir jinsli differensial tenglamalarni umumiy yechimi qanday topiladi? 3) Chiziqli chegaraviy masalalarni ayting? Mavzu, mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishi e'lon qilinadi.	Tinglaydilar. yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar
2- Asosiy bosqich.(55-daqiqa)	2.1.Talabalarni4 ta o'quv guruhiga bo'linadi. Mavzu bo'yicha tarqatma material betriladi(35.2-ilova). Guruhlarda o'quv vazifasini bajarish bo'yicha ishni tashkil qiladi. Har bir guruh o'z vazifalarini oladi(35.3-	Tinglaydilar; Guruhlarda ishlaydilar, Savollarga javob

	ilova). O'quv faoliyati natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhlarda ish boshlanganligini ma’lum qiladi.Vazifani bajarishda o'quv materiallaridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Talabalarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar berish mumkin: 1. Hozirgi zamon talablari nimalardan iborat deb bilasiz? 2.Zamon talablarini bajarishda kadrlarning malakasi qanday bo'lishi kerak? 3. Axborot texnologiyalarini qo'llashni bilish, nimalarni taqoza etadi? 4.Differensial tenglamalar fani va uning insoniyat tarixidagi ro’li hamda uning rivoji nimalardan iborat deb bilasiz? 5.Bir jinsli chegaraviy masalalarni ayting? 6. Taqqoslash teoremasini ayting? 7 .Grin funksiyasi qanday shartlarni qanoatlantirishi lozim? 2.3. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Taqdimot vaqtida javoblarga izoh beradi, to'gri e'chimlarga e'tibor beradi, xatolarni ko'rsatadi. Talabalar bilan birgalikda javoblar to'g'riligini baholaydi, savollarga javob beradi. 2.4. Guruhlar bajargan ishlari bo'yicha o'z-o'zini baholaydilar va tekshiradilar. 2.5. Javoblarni to'ldiradi va qisqacha xulosalar qiladi.	izlaydilar. Tinglaydilar; o'qiydilar; guruhlarda ishlaydilar, asoaiylarni yozadilar. Tinglaydilar; savollar beradilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar; misol va masalalarni daftarda echadilar. Guruh liderlari topshiriqlar javoblarini aytadilar. Liderlar o'z guruhlarida baholash o'tkazadilar. Tinglaydilar.
3- bosqich, yakuniy(15 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2.Mashg'ulotda maqsadga erishishdagi, talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi(35.3-35.4 ilovalar). 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi(35.5-ilova) va uning baholash mezonlari aytiladi.	Savol beradilar. Tinglaydilar; muhokamada qatnashadilar. Topshiriqlarni yozadilar.

35.1-ilova

Har bir mashg'ulot 0,5balldan 2 ballgacha baholanadi. Ekspert guruxlarning ish natijalarini baholovchi me'zonlari

Me'zonlar	Ball	%	Gurux natijalari bahosi			
			1	2	3	4
Axborotning to'liqligi	1,0	50				
Masala yechimining boshqacha usuli, illyustratsiyasi(grafik tarzda taqdim etish, ayrim hisoblashlarni aniq ko'rsatish va h.k.)	0,6	30				
Gurux faolligi (qo'shimcha, berilgan savol, javoblarning soni)	0,4	20				

JAMI	2	100				

86-100% / a'lo"
71-85% / - "yaxshi"
55-70% / - "qoniqarli"
0-54%-- "qoniqarsiz".

35.2-ilova

"Ikkinchi tartibli differenstil tenglmalar nazariyasi taqqoslach teoremasi.Chegaraviy masalalar. Grin funksiyasi. Grin funksiyasining mavjudligi va yagonaligi haqida" mavzusi bo‘yicha tarqatma material

Ma’lumki ikkinchi tartibli bir jinsli

$$y'' + p_1(x)y' + p_2(x)y = 0 \qquad (1)$$

tenglamaning bitta $y_1(x)$ xususiy yechimi ma’lum bo’lsa, uning umumiy yechimi

$$y = y_1\left[\int \frac{\int c_1 \ell^{-\int p_1(x)dx}}{y_1^2}dx + c_2\right]$$

formula bilan aniqlanar edi. Bunda $P_1(x)$ *ва* $P_2(x)$ lar ko’rilayotgan oraliqda uzluksiz funksiyalardir.

$$\frac{d}{dx}\left(p(x)\frac{dy}{dx}\right) + q(x)y = 0 \qquad (2)$$

differensial tenglamaga o’ziga qo’shma ikkinchi tartibli differensial tenglama deyiladi.(2) ni ochib chiqsak:

$$p(x)\frac{d^2y}{dx^2} + p'(x)\frac{dx}{dy} + q(x)y = 0$$

bundan kurinadikim, o’ziga qo’shma differensial tenglamada y' oldidagi koeffisiyent y'' oldidagi koeffisiyentning hosilasiga tengdir.

Xossa1Xar qanday ikkinchi tartibli bir jinsli chiziqli tenglamani o’ziga qo’shma bo’lgan differensial tenglamaga keltirish mumkin.

$$P_0(x)y'' + P_1(x)y' + P_2(x)y = 0 \qquad (3)$$

differensial tenglama berilgan bo’lsin. $P_0(x) \neq 0$.

(3) tenglamaning xar ikkala tomonini $\mu(x)$ ga ko’paytirganda,yo’ziga qo’shma bo’lgan differensial tenglamaga aylansin, ya’ni quyidagi shart bajarilsin.

$$(\mu P_0)' = \mu P_1$$

Bundan $\mu' P_0 + \mu P_0' = \mu P_1, \qquad \mu' P_0 = \mu(P_1 - P_0')$

$$\frac{d\mu}{\mu} = \frac{P_1 - P_0}{P_0}dx = -\frac{P_0'(x)}{P_0(x)}dx + \frac{P_1(x)}{P_0(x)}dx$$

integrallasak

$$\ln\mu = -\ln P_0 + \int \frac{P_1(x)}{P_0(x)}dx + C, \quad C = 0$$

$$\mu = \frac{1}{P_0(x)} e^{\int \frac{P_1(x)}{P_0(x)}dx}$$

$$P_o(x)\cdot\frac{1}{P_0(x)} e^{\int \frac{P_1(x)}{P_0(x)}dx} y'' + P_1(x)\frac{1}{P_0(x)} e^{\int \frac{P_1(x)}{P_0(x)}dx} + \frac{P_2(x)}{P_0(x)} e^{\int \frac{P_1(x)dx}{P_0(x)}} y = 0$$

$$\frac{d}{dx}\left(e^{\int \frac{P_1(x)}{P_0(x)}dx} \frac{dy}{dx} \right) + \frac{P_2(x)}{P_0(x)} e^{\int \frac{P_1(x)}{P_0(x)}dx} y = 0$$

bunda $\qquad p(x) = e^{\int \frac{P_1(x)}{P_0(x)}dx} \qquad$ (6)

$$q(x) = \frac{P_2(x)}{P_0(x)} e^{\int \frac{P_1(x)}{P_0(x)}dx}$$

deb olsak (2) tenglamaga ega bo'lamiz (6) dan ko'rinadikim $p(x) > 0.$

Misol-1 Bessel tenglamasini o'ziga qo'shma bo'lgan differensial tenglamaga keltiring.

$$x^2 y'' + xy' + (x^2 - n^2)y = 0$$

Bu yerda $\qquad p_o(x) = x^2 \qquad p_1(x) = x \qquad p_2(x) = x^2 - n^2$

$$p(x) = e^{\int \frac{p_1(x)}{p_0(x)}dx} = e^{\int \frac{x}{x^2}dx} = e^{\int \frac{dx}{x}} = e^{\ln x} = x$$

$$q(x) = \frac{p_2(x)}{p_0(x)} e^{\int \frac{p_1(x)}{p_0(x)}dx} = \frac{x^2 - n^2}{x^2}\cdot x = x - \frac{n^2}{x}$$

$$\frac{d}{dx}\left(x\frac{dy}{dx} \right) + \left(x - \frac{n^2}{\alpha} \right) y = 0$$

Bu Bessel tenglamasiga qo'shma bo'lgan differensial tenglamadir.

Xossa 2. Ikkinchi tartibli bir jinsli chiziqli tenglamani erklio'zgaruvchini almashtirish yordamida uni xamma vaqt

$y'' + Q(t)y = 0 \qquad$ (8)

Ko'rinishga keltirish mumkin.

Bunda $\qquad Q(t) \in C(I) \qquad I = (a;b)$

Faraz etaylik ikkinchi tartibli differensial tenglama o'ziga qo'shma xolga keltirilgan bo'lsin.

$\frac{d}{dx}\left(p(x)\frac{dy}{dx} \right) + q(x)y = 0 \qquad$ (9)

Bunda $\qquad t = \int \frac{dx}{p(x)}$

Almashtirishni olamiz.

(16) ga asosan

$p(x) \neq 0, \qquad p(x) > 0$ bo'lgani uchun

$\frac{dt}{dx} = \frac{1}{p(x)} > 0$ ga ega bo'lamiz.

Bundan t o'zgaruvchi x ning monotan o'suvchi funksiyasi ekanligi kelib chiqadi.
Bundan chiqadikim, x xam t ning uzluksiz va differensiallanuvchi funksiyasi sifatida $I=(a;b)$ interavalga mos kelgan $I_1=(\alpha,\beta)$ interavalda aniqlanadi.



Uni $x=\varphi(t)$ (10)

desak $\frac{dy}{dx}=\frac{dy}{dt}\cdot\frac{dt}{dx}=\frac{1}{p(x)}\frac{dy}{dt}$ bajariladi.

U xolda $\frac{d}{dx}\left(p\frac{dy}{dx}\right)=\frac{d}{dt}\left(p(x)\cdot\frac{1}{p(x)}\frac{dy}{dt}\right)\frac{dt}{dx}=\frac{1}{p(x)}\frac{d}{dt}\left(\frac{dy}{dt}\right)$ (11)

(11) ga asosan (9) $\frac{1}{p(x)}\frac{d}{dt}\left(\frac{dy}{dt}\right)+q(x)y=0$ (10)ni e'tiborga olsak keyingi tenglamani

$\frac{d^2y}{dt^2}+Q(t)y=0$

ko'rinishda yoza olamiz.
Bunda $Q(t)=p(\varphi(t))q(\varphi(t))$

Misol-2 $xy''+\frac{1}{2}y'-y=0$

$$\mu = \frac{1}{x}\ell^{\frac{dx}{2x}} = \frac{1}{x}e^{\frac{1}{2}\ln(x)} = \frac{1}{2}\cdot x^{\frac{1}{2}} = x^{-\frac{1}{2}}$$

$$x^{\frac{1}{2}}y'' + \frac{1}{2}x^{-\frac{1}{2}}y' - x^{-\frac{1}{2}}y = 0$$

$$\frac{d}{dx}\left(x^{\frac{1}{2}}\frac{dy}{dx}\right) - x^{-\frac{1}{2}}y = 0$$

$$t = \int\frac{dx}{\sqrt{x}} = 2\sqrt{x}$$

$$\frac{1}{\sqrt{x}}\frac{d}{dt}\left(\sqrt{x}\cdot\frac{1}{\sqrt{x}}\frac{dy}{dt}\right) - x^{-\frac{1}{2}}y = 0$$

$$\frac{d^2y}{dt^2} - y = 0 \qquad \lambda_{1,2} = \pm 1$$

$$y = c_1e^{-t} + c_2e^{t} = c_1e^{-2\sqrt{x}} + c_2e^{\sqrt{2}x}$$

Xossa 3. Ikkinchi tartibli bir jinsli chiziqli tenglamani, noma'lum funksiyani chiziqli almashtirish yordamida.

$$z'' + I(x)z = 0$$

ko'rinishga keltirish mumkin.

$$y'' + p(x)y' + q(x)y = 0 \qquad (12)$$

tenglamada $y = u(x)z$ (13)

almashtirishni olamiz. Bundan

$$y' = uz' + u'z \qquad y'' = uz'' + 2u'z' + u''z$$

Bu qiymatlarni (12) ga qo'ysak

$$uz'' + 2u'z' + u''z + p(x)(uz' + u'z) + q(x)uz = 0$$

$$uz'' + (2u' + p(x)u)z' + (u'' + p(x)u' + q(x)u)z = 0 \qquad (14)$$

$$z'' + \left(\frac{2u'}{u} + p(x)\right)z' + \frac{1}{u}(u'' + p(x)u' + q(x)u)z = 0$$

$u(x)$ ixtiyoriyfunksiyabo'lganiuchununishundaytanlabolamizkim

$$\frac{2u'}{u} + p(x) = 0 \quad \text{bajarilsin.}$$

$$\frac{du}{u} = -\frac{1}{2}p(x)dx \qquad \ln|u| = -\frac{1}{2}\int p(x)dx \qquad u = e^{-\frac{1}{2}\int p(x)dx}$$

bundan $u' = -\frac{1}{2}p(x)e^{-\frac{1}{2}\int p(x)dx}$

$$u'' = -\frac{1}{2}p'(x)\cdot e^{-\frac{1}{2}\int p(x)dx} + \frac{1}{4}p^2(x)e^{-\frac{1}{2}\int p(x)dx}$$

Bu qiymatlarni (14) ga qo'ysak

$$z''+e^{\frac{1}{2}\int p(x)dx}\times$$

$$\times\left[-\frac{1}{2}p'(x)e^{-\frac{1}{2}\int p(x)dx}+\frac{1}{4}p^2(x)e^{-\frac{1}{2}\int P(x)dx}+p(x)\left(-\frac{1}{2}p(x)\right)e^{-\frac{1}{2}\int p(x)dx}+q(x)e^{-\frac{1}{2}\int p(x)dx}\right]z=0$$

$$z''+(q(x)-\frac{1}{2}p'(x)-\frac{1}{4}p^2(x))z \qquad z''+I(x)z=0$$

$$I=q(x)-\frac{1}{2}p'(x)-\frac{1}{4}p^2(x)$$

Bunga (12) tenglamaning invarianti deyiladi.

Agar invariant o'zgarmas songa yoki $I=\dfrac{c}{(x+a)^2}$ ko'rinishga ega bo'lsa u holda ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglamani xamma vaqt integrallash mumkin. Chunki bu xolda (12) tenglama yo koeffisiyentlari o'zgarmas tenglamaga yoki Eyler tenglamasiga keltiriladi.

Misol-3 $xy''+2y'+xy=0 \qquad y''+\frac{2}{x}y'+y=0$

$$q(x)=1; \qquad p(x)=\frac{2}{x}$$

$$I=2-\frac{1}{2}\left(-\frac{2}{x^2}\right)-\frac{1}{4}\left(\frac{2}{x}\right)^2=1+\frac{1}{x^2}-\frac{1}{x^2}=1$$

$$z''+z=0 \qquad \lambda_{1,2}=\pm i \qquad z=c_1\cos x+c_2\sin x$$

$$u=e^{-\frac{1}{2}\int\frac{2}{x}dx}=e^{-\ln x}=\frac{1}{x} \qquad y=uz=\frac{1}{x}(c_1\cos x+c_2\sin x)$$

Ikkinchi tartibli bir jinsli chiziqli differensial tenglamani tebranmas va tebranuvchi yechimlari. Taqqoslash teoremasi

Koeffisiyentlari o'zgarmas bo'lgan, ikkita ikkinchi tartibli

$$y''-a^2y=0 \qquad (1)$$

$$y''+a^2y=0 \qquad (2)$$

differensial tenglamalar berilgan bo'lsin.

Bunda $a=\cos t$

Ma'lumki (1) tenglamaning xususiy yechimlari $y_1=e^{-ax}$, $y_2=e^{ax}$ dan iborat bo'lib

Uning umumiy yechimi $y=c_1e^{ax}+c_2e^{ax}$ dan iborat.

Uning nolini topamiz

$$c_1e^{-ax}+c_2e^{ax}=0 \qquad a>0 \qquad c_1c_2<0$$

$$c_1+c_2e^{2ax}=0 \qquad e^{2ax}=-\frac{c_1}{c_2} \qquad 2ax=\ln\left|-\frac{c_1}{c_2}\right|$$

$$x=\frac{1}{2a}\ln\left|-\frac{c_1}{c_2}\right|$$

ya'ni (1) tenglamaning yechimi $(-\infty,\infty)$ da bittadan ortiq nolga ega emas.

(2) tenglamaning umumiy yechimi $y = c_1\cos ax + c_2\sin ax = A\sin(ax+\varphi)$

ning nolini topamiz:

$A\sin(ax+\varphi)=0 \qquad ax_k+\varphi=\pi k$

$$x_k=\frac{\pi k}{a}-\frac{\varphi}{a} \qquad x_{k+1}-x_k=\frac{\pi(k+1)}{a}-\frac{\pi k}{a}=\frac{\pi}{a}$$

ya'ni (2) tenglama $(-\infty,\infty)$ oraliqdacheksizko'pnollargaegabo'lib, ketma-ketikkitanolorasidagamasofa $\frac{\pi}{a}$ gateng.

Uzunligi $\frac{\pi}{a}$ dankattabo'lganxarbiroraliqda (2) tenglamaningixtiyoriyyechiminingbittanoliyetadi, uzunligi $\frac{2\pi}{a}$ dankattabo'lganixtiyoriyintervaldaesa 2 tanoliyotadi.

Ta'rif. Agar differensial tenglamaning yechimi berilgan oraliqda bittadan ortiq nolga ega bo'lmasa, bunday yechimga tebranmas yechim deyiladi.

Agar bu yechim yetarli katta oraliqda 2 tadan ortiq nolga ega bo'lsa, bunday yechimga tebranuvchi yechim deyiladi.

Ma'lumki har qanday ikkinchi tartibli bir jinsli chiziqli differensial tenglamani.

$y''+p_1(x)y'+P_2(x)y=0$

ni $y''+p(x)y=0$ (3)

ko'rinishga keltirish mumkin.

Teorema1. Agar (a,b) oralig'ining barcha nuqtalarida $p(x)\le 0$ bo'lsa u, xolda (3) tenglamaning xamma yechimlari bu oraliqda tebranmas bo'ladi.

Isbot. Aksincha faraz etaylik, (3) tenglamaning ixtiyoriy $y_1(x)$ yechimi ikkita nolga ega bo'lsin.Bu nollarni x_0,x_1 bilan belgilaymiz.

Masalaning aniqligi uchun $x_0<x_1$ va $(x_0;x_1)$ oraliqda $y_1(x)$ yechim boshqa nolga ega bo'lmasin.

U xolda uzluksiz $y_1(x)$ funksiya bu oraliqda o'z ishorasini o'zgartirmaydi. Hamma vaqt bu oraliqda o'z ishorasini o'zgartirmaydi. Xamma vaqt bu oraliqda $y_1(x)>0$ deb olish mumkin (aks xolda $-y_1(x)$ yechimni olar edik). U xolda $y_1'(x)>0$ chunki x_0 ningo'ng tomonida $y_1(x)$ o'suvchi funksiya bo'lib, $y_1'(x_0)\ne 0$ aks xolda $y_1(x)\equiv 0$ bo'lar edi (3) tenglamadan.

$y''=-p(x)y \quad\Rightarrow\quad y_1''=-p(x)y_1>0$

ya'niikkinchihosila (x_0,x_1) oraliqdamusbatbo'lganiuchun, $y'_1(x)$ buoraliqdakamayuvchidir ya'ni

$y_1'(x)\ge y_1'(x_0) \qquad (x_0<x\le x_1)$

U xolda chekli ortirma haqidagi teoremaga asosan

$y_1(x_1)-y_1(x_0)=y_1'(\xi)(x_1-x_0)$

Butenglikningchaptomoninolgatengbo'lib, o'ngtomoniesanoldanfarqlibuningbo'lishimumkinemas. Buqarama -qarshilikko'rsatidikim $y_1(x)$ yechimkurilayotganoraliqdatebranmasyechimdir.

Shturm teoremasi

Ma'lumki $y''+a^2y=0$ tenglama 2 ta chiziqli bog'lik bo'lmagan

$y_1 = \cos ax \qquad y_2 = \sin a\lambda$

yechimlarga ega bo'lib, bu yechimlardan birini ketma-ket ikkita nollari orasida ikkinchi yechimning faqat bitta noli yotadi.

Bundayxossaga, harqandayikkinchitartiblibirjinslichiziqlidifferensialtenglamaningchiziqlibog'liqbo'lmaganikkitatebranuvchiyechimlargaegabo'ladi.

Shturm teoremasi. Ikkinchi tartibli bir jinsli

$$y''+p(x)y=0 \qquad (3)$$

differensial tenglamaning ikkita chiziqli bog'lik bo'lmagan tebranuvchi yechimlarining nollari bir-birini o'zora ajratadi.

Isbot. Faraz etaylik $y_1(x)$ va $y_2(x)$ (3) tenglamaning ikkita chiziqli bog'lik bo'lmagan tebranuvchi yechimlari bo'lsin va $y_1(x)$ yechimning ikkita ketma- ket noli x_0 va $x_1$bo'lib, $[x_0, x_1]$ oraliqda

$y_1(x)$ boshqa nolga ega bo'lmasin.

Ya'ni $\quad y_1(x) \neq 0 \quad x_0 < x < x_1$

Isbot etamizkim (x_0, x_1) oraliqda faqat bitta $\bar{x}$ $\bar{x}$ nuqta mavjudkim, bu nuqtada $y_2(\bar{x}) = 0$ bo'ladi. Teskarisincha faraz etaylik $x_0 < \bar{x} < x_1$oraliqdagi nuqta uchun

$y_2(\bar{x}) \neq 0$ bo'lsin.

Masalanning aniqligi uchun (x_0,x_1) da $y_2(x)>0$ bo'lsin.

$[x_0,x_1]$ oraliq oxirida $y_2(x)$ nolga teng bo'lmaydi, ya'ni $y_1(x_0) \neq 0 \quad y_2(x_0) \neq 0$ aks, xolda Vronskian

$$W(x) = y_1(x)y'_2(x) - y'_1(x)y_2(x) \qquad (4)$$

x_0 va $x_1$nuqtada nolga teng bo'lar edi. Buning bo'lishi mumkin emas, chunki $y_1(x)$va$y_2(x)$ lar chiziqli boglik emas.

Demak Vronskiy determinanti bu oraliqda o'z ishorasini o'zgartirmaydi. Shuning uchun $W(x)>0$ deb olish mumkin $[x_0,x_1]$ da.

(4) ning xar ikkala tomonini $y_2^2(x)$ ga bo'lamiz.

$$\frac{y_1 y'_2 - y'_1 y_2}{y_2^2} = \frac{W(x)}{y_2^2} \Rightarrow -\left(\frac{y_1}{y_2}\right)' = \frac{W(x)}{y_2^2}$$

$y_2>0$ bo'lgani uchun, bu tenglikning o'ng tomoni $x$ni uzluksiz funksiyasi bo'ladi.Keyingi tenglikni xar ikkala tomonini x_0 dan x_1 oraliqda integrallaymiz:

$$-\left(\frac{y_1(x)}{y_2(x)}\right)_{x=x_0}^{x=x_1} = \int_{x_0}^{x_1} \frac{W(x)}{y_2^2(x)} dx$$

Bu keyingi tenglikning chap tomoni nolga teng bo'lib, o'ng tomoni esa musbatdir.

Bu qarama-qarshilik ko'rsatadikim, shunday $\bar{x}$ nuqta ($x_0 < \bar{x} < x_1$) mavjudkim bu nuqtada $y_2(\bar{x})=0$ .Bunday nuqta yagonadir aksincha faraz etaylik $y_2(x)$ ikkita $\bar{x}_0, \bar{x}_1$ nolga ega bo'lsin bunda $x_0 < \bar{x}_0 < \bar{x}_1 < x_1$.

y_1 bilan y_2o'rinlarini almashtirsak, $\bar{x}_0$ bilan $\bar{x}_1$ oraliqda $y_1(x)$ ning bitta noli bo'lar edi.Bu esa $y_1(x)$ ikkita ketma-ket x_0,x_1 nolga ega degan shartga karama karshidir.

Shturm teoremasiga misol kilib, $y''+y=0$ tenglamani olish mumkin. Bu tenglamaning ikkita $y_1=\cos x$,$y_2=\sin x$ chiziqli boglik bo'lmagan yechimlarinining nollari almashinib keladi.

Taqqoslash teoremasi

$$y''+p_1(x)y=0 \qquad (1)$$

$$z''+p_2(x)z=0 \qquad (2)$$

tenglamalari berilgan bo'lsin. Bunda $p_1(x)$ va $p_2(x)$ funksiyalar (a,b) oraliqda uzluksiz va bu oraliqda

$$p_1(x) \le p_2(x)$$

sharti bajarilsin.U xolda birinchi tenglamaning ixtiyoriy $\bar{y}(x)$ yechimining ikkita ketma-ket x_0,x_1 nollari orasida, ikkinchi tenglamaning ixtiyoriy $\bar{z}(x)$ yechimining xech bo'lmaganda bitta noli yetadi.

Isbot. Faraz etaylik $x_0$vax_1 yechimning ikkita ketma-ket noli bo'lsin. Isbot etamizkim, shunday x^*nuqta mavjudkim, uning uchun $(x_0<x^*<x_1)$ bo'ladi. Teskarisini faraz etamiz (x_0,x_1) oraliqda $\bar{z}(x)$ ning birorta xam noli bo'lmasin, ya'ni $\bar{z}(x) \neq 0$. Aniqlik uchun (x_0,x_1) oraliqda $\bar{y}(x) > 0, \quad \bar{z}(x) > 0$ bo'lsin.

U xolda $\bar{y}(x)$, x_0 ning o'ng tomonida o'suvchi va x_1 ning chap tomonida kamayuvchi bo'ladi. Demak

$$\bar{y}'(x_0) > 0, \qquad \bar{y}'(x_1) < 0$$

$\bar{y}(x)$ va $\bar{z}(x)$ yechimlarni (1) va (2) tenglamaga olib borib qo'ysak

$$\begin{aligned} &\bar{y}''+p_1(x)\bar{y} \equiv 0 \\ &\bar{z}''+p_2(x)\bar{z} \equiv 0 \end{aligned} \qquad (3)$$

Bularning birinchisini $\bar{z}(x)$ ga, ikkinchisini $\bar{y}(x)$ ga ko'paytirib, birinchisidan ikkinchisini hadlab ayirsak

$$\bar{y}''\bar{z} - \bar{y}\bar{z}''= (p_2(x) - p_1(x))\bar{y}\bar{z} \qquad \textit{ёки}$$

$$(\bar{y}'\bar{z} - \bar{y}\bar{z}')'= (p_2(x) - p_1(x))\bar{y}\bar{z}$$

Bu keyingi tenglikni x_0 dan x_1 oralig'ida integrallasak

$$(\bar{y}'\bar{z} - \bar{y}\bar{z}')\,|_{x_0}^{x_1} = \int_{x_0}^{x} (p_2(x) - p_1(x))\bar{y}\bar{z}dx \qquad (4)$$

ga ega bo'lamiz.

Lekin $\bar{y}'(x_0) > 0, \quad \bar{y}'(x_1) < 0, \quad \bar{z}'(x_0) > 0, \quad \bar{z}'(x_1) > 0,$ bo'lgani uchun (4)ning chap tomini manfiy bo'lib, o'ng tomoni esa musbatdir.

Bu qarama qarshilik ko'rsatadikim, (x_0,x_1) oraliqda shunday x^* nuqta topiladikim, bu nuqtada $\bar{z}(x^*) = 0$.

Shuning bilan birga quyidagi teoremani isbot etdik.

Agar x_0 (1) va (2) tenglamaning $\bar{y}(x)$ va $\bar{z}(x)$ yechimlarining umumiy noli bo'lib, x_0 dan keyingi $\bar{y}(x)$ yechimning x_1 noli orasida $p_1(x) < p_2(x)$ shartini qanoatlantiruvchi nuqtalar mavjud bo'lsa, bundan tashqari $p_2(x)$-$p_1(x)$ manfiy bo'lmasa u holda $\bar{z}(x)$ yechimning x_0 dan keyingi noli x_1 ning chap tomonida yotadi.

Natija. Faraz etaylik $y''+p(x)y=0$ tenglama berilgan bo'lsin.bunda $p(x)>0$ bo'lib, $p(x) \in C_{(a,b)}$ da

$$\max_{x\in[\alpha,\beta]} p(x) = M, \qquad \min_{x\in[\alpha,\beta]} p(x) = m \qquad M > 0, \quad m > 0 \text{ bo'lsin.}$$

U xolda trivial bo'lmagan tenglamaning ixtiyoriy $y(x) \neq 0$ yechimining ikkita ketma-ket nollari orasidagi masofa ρ

$$\frac{\pi}{\sqrt{M}} \le \rho \le \frac{\pi}{\sqrt{m}}$$

tengsizlikni kanoatlantiradi.

Buning isboti uchun

$$\begin{cases} z''+mz=0 \\ y''+p(x)y=0 \end{cases} \qquad m<p(x) \qquad \rho \le \frac{\pi}{\sqrt{m}}$$

$$y_1=\cos\sqrt{m}x, \quad y_2=\sin\sqrt{m}x$$

$$\sin\sqrt{m}x=0 \qquad \sqrt{m}x=\pi k \qquad k=1 \quad x=\frac{\pi}{\sqrt{m}}$$

$$\begin{cases} y''+p(x)y=0 \\ z''+Mz=0 \end{cases} \qquad M>p(x) \qquad \rho \ge \frac{\pi}{\sqrt{M}} \qquad y_2=\sin\sqrt{M}x$$

$$\sin\sqrt{M}x=0 \qquad \sqrt{M}x=\pi k \qquad k=1 \quad x=\frac{\pi}{\sqrt{M}}$$

Teorema 1 ni taqqoslash teoremasidan foydalanib isbotlash mumkin.

Natija 1. Agar $y''+p(x)y=0$ tenglamada $p(x)\le 0$ bo'lsa, u xolda uning hamma yechimlari tebranmasdir.

Isbot. (1), (2) tenglamada $p_1(x)=p(x)$, $p_2(x)=0$ deb olamiz. Teskarisincha faraz etamiz (1) tenglamaning ixtiyoriy $y(x)$ yechimi ikkita ketma-ket x_0,x_1 nollarga ega bo'lsin. U xolda $[x_0,x_1]$ oraliqda $z''(x)=0$ tenglamaning ixtiyoriy yechimi nolga aylanishi zarur.

Buning bo'lishi mumkin emas.Masalan $z(x)\equiv 1$ yechim uchun.

Shturm teoremasini xam taqqoslash teoremasidan foydalanib isbotlash mumkin.

Natija 2.$y''+p(x)y=0$ tenglamaning chiziqli bog'lik bo'lmagan tebranuvchi yechimlarining nollari navbatlashib keladi.

Boshqacha aytganda $y_1(x)$ yechimning ixtiyoriy ikkita ketma-ket noli orasida $y_2(x)$ yechimning bitta noli yotadi.

Isbot.$y_1(x),y_2(x)$ tenglamaning chiziqli bog'lik bo'lmagan yechimlari bo'lsin. Ular umumiy nolga ega bo'lishi mumkin emas, chunki $y_1(x_0)=y_2(x_0)=0$ bo'lganda edi, bularning Vronskiy determinanti $x_0$nuqtada nolga teng bo'lar edi. Buning bo'lishi mumkin emas chunki $y_1(x)$va $y_2(x)$ chiziqli bog'lik emas.

Faraz etaylik x_1,x_2, $y_1(x)$ ning qo'shni nollari bo'lsin. Taqqoslash uchun (1), (2) tenglamada

$p_1(x)=p_2(x)=p(x)$

deb olamiz.

Taqqoslash teoremasiga asosan $y_1(x)$ yechimning $x_1$vax_2 nollari orasida $y_2(x)$ yechimning x_3 noli yotadi.

Agar $y_2(x)$ yechim yana bitta $x_4\in(x_1,x_2)$ nolga ega bo'lsa edi, isbotlaganimizga asosan $y_1(x)$ yechim x_3 va x_4 nollar orasida nolga ega bo'lar edi. Buning bo'lishi mumkin emas chunki x_1,x_2qo'shni nollar.

Misol.

$x^2y''+xy'+(x^2-n^2)y=0$ Bessel tenglamasini $0<x<+\infty$ oraliqda qaraymiz. $y=\frac{z}{\sqrt{x}}$ almashtirish yordamida uni

$$z''+\left(1-\frac{n^2-\frac{1}{4}}{x^2}\right)z=0 \qquad (6)$$

ko'rinishga keltiramiz.

Bunda z oldidagi koeffisiyent $n^2<\frac{1}{4}$ bo'lganda birdan katta ,$n^2>\frac{1}{4}$ bo'lganda birdan kichik bo'ladi.

(6) tenglamani

$y''+y=0$

tenglama bilan taqqoslab, Bessel funksiyasining ketma-ket nollari orasidagi masofa ρ,

$-\frac{1}{2} < n < \frac{1}{2}$ da π dan kichik (ρ< π) va $n > \frac{1}{2}$ *ва* $n < -\frac{1}{2}$ da π dan katta bo'ladi (ρ>π)

$n = \pm\frac{1}{2}$ da Bessel funksiyasining ketma-ket nollari orasidagi masofa ρ= π ga teng bo'ladi.

Chegaraviy masalalarning qo'yilishi.

Differensial tenglamalarning xususiy yechimlarini izlaganda Koshi masalasi bilan birga boshqa chegaraviy deb ataluvchi masalalalarni ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Bunday masalalarga noma'lum funksiya qiymatlari bir nuqta emas intervalning ikki yoki undan ko'p nuqtalarida berilishi mumkin.

Misol. Massasi m bo'lgan moddiy nuqta $F(t,\bar{r},\dot{\bar{r}})$ kuch ta'sirida harakatga keltirgan bo'lsin. Harakat qonunini aniqlash talab qilinadi. Agar boshlang'ich $t = t_0$ momentda uni o'rni $\bar{r} = \bar{r}_0$ da bo'lib, $t = t_1$ momentda esa $\bar{r} = \bar{r}_1$ da bo'lsa, ($\bar{r}$ bunda M nuqtaning radius vektori)

Masala ushbu

$$m\frac{d^2\bar{r}}{dt^2} = F(t,\bar{r},\dot{\bar{r}})$$

differensial tenglamaning $\bar{r}(t_0) = \bar{r}_0$,$\bar{r}(t_1) = \bar{r}_1$ chegaraviy shartlarini qanoatlantiruvchi yechimini izlashga keltiriladi.

Ikkinchi tartibli differensial tenglamani qaraymiz:

$$y'' = f(x, y, y') \qquad (1)$$

Eng sodda chegaraviy masala bu tenglama uchun ushbu ko'rinishda bo'ladi:

$$y(a) = A\,, y(b) = B \qquad (2)$$

ya'ni (1) differensial tenglamaning $[a, b]$ da aniqlangan shunday $y = y(x)$ yechimini topish talab etiladiki, u chetki nuqtalarida A va B qiymatlarni qabul qilsin. Geometrik nazardan $M(a, A)$ va $N(b, B)$ nuqtalardan o'tadigan integral egri chiziqni topish talab qilinadi.



Umumiy chegaraviy (1), (2) masala uchun quyidagi hollar bo'lishi mumkin:
1) bitta yechim mavjud;
2)cheksiz ko'p yechimlar;
3) yechim mavjud emas.

1-Misol. Quyidagi $y'' + y = 0$; $y(0) = 1$, $y\left(\frac{\pi}{2}\right) = 0$

chegaraviy masalani yeching.

Yechilishi: Berilgan differensial tenglamaning umumiy yechimining shakli:

$y = c_1 \cos x + c_2 \sin x$,

bunda c_1 ,c_2 ixtiyoriy o'zgarmaslar. Chegaraviy shartlarni qo'yib, c_1 va c_2 larni topamiz. Birinchi shartdan $c_1 = 1$, ikkinchisidan $c_2 = 0$.

Izlangan yechim

$y = \cos x \ \left(0 \leq x \leq \frac{\pi}{2}\right).$

2-Misol. Ushbu $y'' + y = 0$ tenglamaning, chegaraviy shartlarni qanoatlantiradigan yechimini toping: $y(0) = 1\,, y(\pi) = -1$

Yechilishi: Differensial tenglamaning umumiy yechimi

$y = c_1 \cos x + c_2 \sin x\,,$

Birinchi chegaraviy shartda $x = 0$ da $y = 1$. Bundan $c_1 = 1$. Ikkinchi shartga ko‘ra, $x = \pi$ da $y = -1$

$$c_1 \cos x + c_2 \sin x = -1\,, c_2 * 0 = 0.$$

Demak, c_2 ixtiyoriy o‘zgarmas. Shunday qilib, chegaraviy masala yechimi cheksiz ko‘p va u quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$y = c_2 \sin x + \cos x$

3-Misol. Ushbu $y'' + y = 0\,;\ y(0) = 1\,, y(2\pi) = 7$ chegaraviy masala yechimi bo‘lmasligini ko‘rsating.

Yechilishi: Differensial tenglamaning umumiy yechimi

$$y = c_1 \cos x + c_2 \sin x,$$

Berilgan shartlarni yechimga qo‘yamiz:

$$\left.\begin{array}{r} c_1 \cos 0 + c_2 \sin 0 = 1 \\ c_1 \cos 2\pi + c_2 \sin 2\pi = 7 \end{array}\right\} =>$$

$$\left.\begin{array}{l} c_1 * 1 + c_2 * 0 = 1 \\ c_1 * 1 + c_2 * 0 = 7 \end{array}\right\}$$

Sistemaning birinchi tengligidan $c_1 = 1$, ikkinchisidan $c_2 = 7$ bo‘layapti. Xulosa, chegaraviy masalani qanoatlantiruvchi yechimi yo‘q. Bu holda chegaraviy masala nokorrekt qo‘yilgan deyiladi.

Yuqorida eng oddiy chegaraviy masalalarni ko‘rdik. Unda berilgan differensial tenglamaning umumiy yechimi ma’lum edi. Biz berilgan shartlardan foydalanib, ixtiiyoriy o‘zgarmaslar qiymatini aniqladik, shu bilan chegaraviy shartlarni qanoatlantiradigan yechimlarni topib oldik. Ayniqsa, matfizika masalalarini yechishda ancha murakkab hollar ham bo‘ishi mumkin.

Chiziqli chegaraviy masala.

Yuqori tartibli oddiy differensial tenglamalar nazariyasida n-tartibli chiziqli tenglamalar alohida o‘rin tutadi. Buning sababi chiziqli differensial tenglamalar nazariyasi har tomonlama chuqur o‘rganib chiqqan, yechim metodlari mavjud va chiziqli tenglamalar fizika, mexanika, texnikada keng tadbiq qilinadi. Injinerlik amalida tez-tez $L(y) = f(x)$ differensial tenglamaning biror $[a, b]$ kesmada u yoki bu shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini izlashga to‘g‘ri keladi. Bunga misol oldin ko‘p marotaba ko‘rgan Koshi masalasi bo‘ladi. Koshi masalasining o‘ziga xos talabi shu ediki, noma’lum $y = y(x)$ funksiya va uning $(n-1)$ tagacha hosilalarining qiymati $x = x_0$ bitta nuqtada berilgan edi. Vaholanki ba’zi fizik, texnik masalalarni yechishda shu jarayonni tasvirlovchi chiziqli differensial tenglamalarning boshlang‘ich shartlar kesmaning bir nechta nuqtalarida berilgan yechimlarini izlashga to‘g‘ri keladi.

Chegaraviy masala chiziqli deyiladi, agar differensial tenglama va chegaraviy shartlar chiziqli berilgan bo‘lsa. Ikkinchi tartibli chiziqli differensial tenglama va chegaraviy shartlar ushbu ko‘rinishda o‘lishi mumkin:

$$L(y) \equiv f(x)y'' + g(x)y' + h(x)y = d(x) \tag{3}$$

$$\left.\begin{array}{l} \alpha\, y(a) + \beta\, y'(a) = A \\ \gamma\, y(b) + \delta\, y'(b) = B \end{array}\right\} \tag{4}$$

bu yerda $\alpha, \beta, \gamma, \delta, A, B$ $-$berilgan o‘zgarmaslar.

Chiziqli chegaraviy masala (3) , (4) bir jinsli chegaraviy masala deyiladi, agar $d(x) = 0$ va $A = B = 0$ bo‘lsa.

Bir jinsli chegaraviy masala.

Chiziqli bir jinsli chegaraviy masalani qaraymiz:

$$f(x)y'' + g(x)y' + h(x)y = 0\ , a \le x \le b \qquad (5)$$

$$\left.\begin{matrix} \alpha\, y(a) + \beta\, y'(a) = 0 \\ \gamma\, y(b) + \delta\, y'(b) = 0 \end{matrix}\right\} \qquad (6)$$

bu yerda $f(x) \neq 0\ , f, g, h$ −lar $x\epsilon[a, b]$ lar uchun uzluksiz funksiyalar bo‘lsin.

Faraz qilaylik, $|\alpha| + |\beta| \neq 0$ va $|\gamma| + |\ \delta| \neq 0$ $y \equiv 0$ trivial yechim. Biz $y \neq 0$ yechimlarni izlaymiz.

Aytaylik $y_1(x)$ va $y_2(x)$ berilgan differensial tenglamaning yechimlar fundamental sistemasi bo‘lsin.unda umumiy yechim ushbu formula orqali ifodalanadi:

$$y(x) = c_1 y_1(x) + c_2 y_2(x) \qquad (7)$$

(6) chegaraviy shartlarga (7) ni qo‘yamiz:

$$\left.\begin{matrix} \alpha[c_1 y_1(a) + c_2 y_2(a)] + \beta[c_1 y_1'(a) + c_2 y_2'(a)] = 0 \\ \gamma[c_1 y_1(b) + c_2 y_2(b)] + \delta[c_1 y_1'(b) + c_2 y_2'(b)] = 0 \end{matrix}\right\}$$

c_1 va c_2 koeffitsientlarni gruppalaymiz unda,

